

791
F61

A.D. ABDURAXIMOV,
T.P. KO'CHKARBEKOV,
K.S. ISMOILOV, N.R. SABUROVA.

FILM ISHLAB CHIQRARISH MENEJMENTI ASOSLARI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

A.D. ABDURAXIMOV, T.P. KO'CHKARBEKOV,
K.S. ISMOILOV, N.R. SABUROVA.

FILM ISHLAB CHIQRISH MENEJMENTI ASOSLARI

(Darslik)



TOSHKENT – 2018

UO‘K: 791:005

KBK: 85.37

F 63

A.D. Abduraximov, T.P. Ko‘chkarbekov, K.S. Ismoilov, N.R. Saburova. Film ishlab chiqarish menejmenti asoslari. T.: «Aloqachi», 2018, 160 b.

ISBN 978–9943–5521–3–5

Qo‘lingizdagi ushbu darslik “Film ishlab chiqarish menejmenti asoslari” fani nazariyasini mustahkam o‘zlashtirish bilan bir qatorda, o‘quvchida o‘z ijodiy imkoniyatlaridan to‘la foydalanish sharoitini yaratadi. Televideniya va kino san‘ati sohasida o‘z bilimlarini yanada rivojlantirish, film istiqbolini oldindan ko‘ra olish qobiliyatini yanada takomillashtirish, ishlab chiqarish guruhiga rahbarlik qilish va ish yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

UO‘K: 791:005

KBK: 85.37

F 63

Taqrizchilar:

S.A. Haytmatova – san‘atshunoslik fanlari nomzodi, “Telestudiya tizimlari va ilovalari” kafedrasida dotsenti;

X.X. Xasanov – O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, kinooperator-kinorejissyor;

G.X. Yunusov – “Respublika teleradiomarkazi” DUK maxsus yoritish guruhi boshlig‘i.

ISBN 978–9943–5521–3–5

© «Aloqachi», nashriyoti, 2018.

KIRISH

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim andozasi bo'yicha bakalavrlarni tayyorlashga qo'yilgan talablarga muvofiq ishlab chiqildi. Kino va televideniya ta'lim yo'nalishlarida tahsil oluvchi o'quvchilarga mo'ljallangan. Televizion texnologiyalar yo'nalishida o'qitiladigan fanlar ichida "Film ishlab chiqarish menejmenti asoslari" fani alohida ahamiyatga ega fanlar sarasiga kiradi. Mazkur fan kino va televideniya filmlar ishlab chiqarishda menejment ishlari va uning asoslarini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Unda film ishlab chiqarishning barcha bosqichlari, xodimlarning vazifa va majburiyatlari, menejment asoslari, film smetasi va uning asosiy elementlari, bir so'z bilan aytganda, televideniya va kino san'atida filmlar yaratishning alifbosi o'rganiladi. Sanab o'tilgan jihatlarni amaliy nuqtai nazardan o'rganmay turib, kino va televizion texnologiyalar sohasida menejmentning sir asrorlarini egallash mumkin emas.

"Film ishlab chiqarish menejmenti asoslari" nomli darslikning asosiy maqsadi – talabalarga kino va televideniya filmlar hamda boshqa turdagi media mahsulotlar yaratishda menedjerlik faoliyatini olib borish, ijodiy guruh ishini tashkil qilish, ish yuritish va rahbarlik qilish, smetalar tuzish, mahsulot yaratishning kalendar rejasini tuzish va nazorat qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fan doirasida dastlab asosiy tushunchalar, ularning mohiyati o'rganilsa, keyinchalik talaba filmlar ishlab chiqarishning nisbatan murakkab bo'lgan tomonlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'zlashtiradilar. Shu bilan birga menejmentga doir masalalarning yechimi, turli janrlardagi filmlar yaratish, postanovka ssenariysi kabi tushunchalar bilan yaqindan tanishadilar.

Fanning o'ziga xos xususiyatlari talabalarga predmetni mustahkam o'zlashtirish bilan bir qatorda o'z ijodiy imkoniyatlaridan to'la foydalanish sharoitini yaratadi, televideniya va kino san'at sohasida o'z bilimlarini yanada rivojlantirish, film istiqbolini oldindan ko'ra olish qobiliyatini yanada takomillashtirish, ishlab chiqarish guruhiga rahbarlik qilish, unda ish yuritish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Har tomonlama shakllanib kelayotgan ma'naviyatli shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, uning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda radio, musiqa, multimedia, kino va televideniya kabi muhim rol o'ynovchi sohalar uchun yetuk muhandis kadrlar tayyorlovchi «5350200 – Televizion texnologiyalar («Audiovizual texnologiyalar», «Telestudiya tizimlari va ilovalari»)» bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun filmlar va boshqa turdagi

media mahsulotlar yaratish, ularni realizatsiya qilishning zamonaviy usul va vositalari haqidagi tushunchalar eng muhim hisoblanadi. "Film ishlab chiqarish menejmenti asoslari" nomli ushbu darslik esa aynan shu tushunchalarni o'rgatishga yo'naltirilgandir.

Birinchi bo‘lim

TELEVISION MAHSULOTLARINI YARATISH

O‘zbekiston televideniya aynan Mustaqillik yillarida eng muhim taraqqiyot bosqichlaridan o‘tmoqda desak mubolag‘a bo‘maydi. Televideniya keyingi paytlarda texnikaviy taraqqiyotning, kommunikatsiya va umuman madaniy sohalaridagi barcha yangilik hamda afzalliklarni sintezlab foydalangan holda, shiddat bilan rivojlanmoqda. Televideniya ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari, telekanallar faoliyati ortib bormoqda. Television mahsulotlarini ishlab chiqarishda o‘ziga xos bo‘lgan murakkab tizim asosida amalga oshiriladi. Ushbu tizim tartibi va faoliyati bilan quyida tanishamiz.

1. TELEVIDENIYA FAOLIYATI

1.1. Bosqich maqsadi

«Filmlar ishlab chiqarish menedjmenti asoslari» kursining maqsadi – tinglovchilar (talabalar)ni O‘zbekiston, Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya va Amerika qo‘shma shtatlari misolida turli television mahsulotlarini hamda badiiy va hujjatli kinofilmlarni ishlab chiqarishda asosiy tashkiliy, iqtisodiy bosqichlari va tasvirga tushirish jarayonining asosiy ishtirokchilari vazifalari bilan tanishtirishdir.

Aytish lozim, telekanallarni, telestudiyalarni va kinostudiyalarni tashkillashtirish, rejalashtirish, moliyalashtirish va ishi bo‘yicha bizning davlatimizda, MDHning boshqa davlatlari, masalan Rossiyada. g‘arb davlatlarida, AQSh yoki Hindistonda farqlar mavjud.

Har bir davlat yoki tuzum birligi (film yoki telemahsulot ishlab chiqaruvchi) o‘ziga qulay va mos sxema bo‘yicha ishlashi mumkin.

So‘ngi vaqtda, kino va telemahsulotlarni narxi oshishi tufayli, bir davlat ichida va halqaro miqyosida studiyalar ishini kooperatsiyalash (birlashtirish) kuzatilmoqda. Shu bilan birga, dunyoning ko‘pchilik davlatlari tomonidan qabul qilinib, nusxa olinayotgan AQSh (Gollivud)da badiiy kinoni ishlab chiqarish tajribasi eng katta qiziqishga ega. Keyinchalik, biz filmlarni ishlab chiqarish asoslarini Buyuk Britaniya, Hitoy. AQSh. Rossiya va O‘zbekiston misolida o‘rganamiz.


Agar, butun dunyoda badiiy kinoni ishlab chiqarish, to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganda, foyda keltirishi mumkin bo‘lsa, hujjatli kino, qoida bo‘yicha foyda keltirmaydi va o‘zini oqlamaydi (tabiat yoki hayvonot olami, dunyoga mashhur shaxslar to‘g‘risidagi omadli filmlar bundan mustasno), va hujjatli kino – bu avvalom bor “davri hujjati” deb gapirishadi.

Televideniyadagi alohida janr – bu seriallar, serialning tabiati (muhiti) va uning teletomoshabinga ta'siri to'g'risida ko'p gapirilmoqda va yozilmoqda, va bu alohida izlanish uchun mavzu.

Eng omadli seriallar o'z ijodkorlariga foyda keltirmoqda, hattoki serialni ssenariysi yoki serial g'oyasi sotilishi mumkin («Moya prekrasnaya nyanya», «Ne rodis schastlivoy» va boshqalar). Ko'pchilik mamlakatlar uchun seriallar o'zining turmush tarzini, madaniyatini, tarixini tashviqot uslubiga, masalan – Janubiy Koreya “Saroy javoxiri”, yoki Turkiya «Velikolepniy vek» seriallari o'ziga xos “mafkuraviy qurol”ga aylanib qolgan.

O'zbekiston milliy teleradio-kompaniyasi (O'zbekiston MTRK) – Osiyoda eng katta kompaniyalardan biri. Hozirgi vaqtda, uning tarkibida 23 ta bo'linma va korxonalar, shu jumladan 13 teleradiokanallar mavjud. NSS12@57^E aloqa sun'iy yer yo'ldoshi orqali tarqatilayotgan “Uzbekistan-Int” teleradio-dasturlarini O'zbekistonda markazlardan uzoqda joylashgan va yetib borish qiyin bo'lgan aholi punktlarida, Markaziy Osiyo, Rossiya, Pokiston, Turkiya, Bolgariya, Ruminiya, Moldova, Estoniya, Latviya, Ukrainaning bir qismi, Gruziya, Ozarbayjon, Afg'oniston, va Eron, Belorussiya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvesiya, Hitoy, Mongoliyalarning bir qismida ishonchli qabul qilish mumkin. MTRK tarkibida so'ngi yillarda 9 ta yangi telekanallar tashkil etildi va bu o'z-o'zidan betakror hodisa bo'lmoqda. «Dunyo bo'ylab», «Navo», «Madaniyat va ma'rifat», «Oilaviy», «Bolajon», «Diyor», «Kinoteatr», «UZ-HD SD format», «Mahalla» kabi yangi telekanallar tezda ommalashib, teletomoshabinlarni muhabbatiga erishdi.

Teleradiokompaniyaning mutaxassis xodimlar tarkibi mustahkamlanmoqda, yangidan-yangi teleko'rsatuvlar, filmlar va tokshoular efirga uzatilmoqda.



O'zbekiston MTRK

Milliy teleradiokompaniyani texnik qayta jihozlashga Respublikamiz Prezidenti va hukumati shaxsan alohida e'tibor qilishmoqda.

MTRKni texnik bo'linmalarini asosiy faoliyati raqamli televideniya o'tish va raqamli televideniya paketlari uchun teledasturlar sonini ko'paytirish masalasini yechishga yo'naltirilgan. MTRKni asosiy ijodiy va mafkuraviy vazifalaridan biri – bu yuksak badiiy va hujjatli televizion filmlarni ishlab chiqarish.

Bir necha yil avval mamlakatimiz hukumati tomonidan MTRK kanallari uchun seriallarni ishlab chiqarish bo'yicha «Milliy serial» («Natsionalniy serial») dasturi tasdiqlangan. Dasturda, uni bajarilishi uchun «Uzbektelefilm» DUKga kerak bo'lgan texnikaviy, kadrlar va badiiy yo'nalishlardagi barcha zaruriyatlarni hal etish, shu jumladan, yillar bo'yicha teleseriallar ishlab chiqarishni oshirib borish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Buning uchun yangi zamonaviy Media markaz barpo etildi. (1.1- rasm) Undagi texnik jihozlar jahon standartiga javob bera oladi.

Badiiy va hujjatli kino, seriallar – barcha yoshdagi, davlatlardagi va toifadagi teletomoshabinlarning televideniyaning ko'ngilochar va bilim orttirish segmenti (qismini)ni eng talab etilayotgan janri hisoblanadi. Teledasturlarni ochganda, teletomoshabinlar eshittirishlar jadvalida aynan ularni qidirishadi. So'ngi yillarda O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasida yangi telekanallarni ochilishi munosabati bilan, Mustaqillik yillarida bo'lgan ulkan o'zgarishlarni munosib aks ettiradigan milliy kinoteleserillarni yaratish masalasi dolzarb bo'lmoqda.



1.1- rasm. Media markaz

Televizion kinoni ishlab chiqarish – murakkab va ko'p qirrali jarayon. Va ushbu jarayonni tashkil etuvchilardan biri bo'lib, davlat budjeti mablag'lari hisobidan tasvirga olinayotgan film yoki serial smetasini (xarajatlar jadvali)ni to'g'ri tuzish bo'limoqda.

1.2. Televizion kanallarining ishlashi

O'rganiladigan sohani ko'rib chiqamiz va televideniya oid asosiy tushunchalardan boshlaymiz. Bu bizga, yo'limizda uchraydigan ishlarni asosiy bosqichlari va ish turlari bilan tanishishga va ular bir-biri bilan qanday bog'langanligini tushinishga yordam beradi.

Tashkil etish – tashkil etishni tayanch tamoyillari barcha turdagi televizion ishlab chiqarishlari uchun o'xshash bo'lsa ham, rejissyor tomonidan tanlanayotgan shakli quyidagi omillarga bog'liq:

- Tasvirga olish studiyadami yoki tabiatdami.
- Dastur “jonli” (harakatlarni rivojlanib borishiga qarab) to'g'ridan-to'g'ri uzatiladimi yoki kelajakdagi eshittirish uchun tasmaga yoziladimi. (1.2- rasm)

- Harakat takrorlanishi mumkinmi (xatolarni to'g'irlash, kadrlarni sozlash) yoki u faqat bir marta yuzaga keladi va uni shu zahoti tasvirga olish kerakmi.

- Vaqtni, dastgohlarni va joylarni yetmasligi bilan bog'liq har xil cheklovlar.

- Rejissyor tomonidan tanlangan tasvirga olish uslubi (kamerallarni joylashishi, ko'rinishlar (plan)larni almashishi va h.k)

- Tasvirga olishda ommani bor-yo'qligi, shunga o'xshashlar va h.k.

Ba'zi holatlarda ko'p kamerali tasvirga olish ko'proq samaradorlikka ega (maxsus guruh tomonidan masofadagi nazorat xonasidan kuzatiladi). Boshqa holatlarda rejissyor yagona-bitta kamerani yo'naltirib, tasvirni yaqinida joylashgan monitor orqali kuzatishni afzal ko'radi.



1.2- rasm. Studiyada ko'rsatuv yozish pulti

Rejalashtirish va ijro etish – chiroyli, to‘g‘ri qurilgan dasturni tuzish uchun, rejissyor harakatlarni aniq tasavvur etishi kerak, ya‘ni: keyinchalik nima yuzaga keladi, odamlar qayerda bo‘ladi, nima qilishadi, qayerga o‘tishadi, nima gapirishadi, va h.k.

Holbuki, ayrim vaqtlarda rejissyor faqat improvizatsiya qilib, kadrlarni tasodifiy (spontanno) tanlashi mumkin, ammo tasvirga olish guruhini harakatlari va ishi ozmi yoki ko‘pmi rejalashtirilgan holda sifati natijalarni olish ehtimoli bor.

Murakkabroq ishlab chiqarishda ijrochi va tasvirga olish guruhi, odatda, oldindan tayyorlangan ssenariyga asoslangan, tasdiqlangan sxema bo‘yicha ishlashlari kerak. U tasvirga olish vaqtida barcha ishtirokchilarni boshqarish uchun qo‘llaniladi. Tasvirga olish guruhi dastgohlarni sozlab olishi uchun (kameralarni rakursi, yoritish, ovoz, o‘tishlar va h.k.) harakatlar va dialoglar repetitsiya qilinadi.

Xattoki, dialoglar va harakatlarni oldindan aytish mumkin bo‘lmasa ham (intervyuga o‘xshash), odatda baribir ayrim tayyorgarliklar o‘tkaziladi. Suhbatni mavzulari belgilanishi, kameralar va ovoz yozish apparaturalar sozlanishi mumkin. Badiiy filmlarni tasvirga olishda, aktyorlar odatda o‘zlarini luqmalarini (replika) yoddan bilishadi va har bir so‘z va harakat oldindan repetitsiya qilinadi. Lekin, ko‘pchilik hollarda, ijrochilarda oldindan batafsil ishlab chiqilgan ssenariyni eslab qolish uchun vaqti yoki imkoniyatlari yo‘q. Shuning o‘rniga, ular matnni kamera oldidagi yarim shaffof ko‘zguga tasvirni chiqaruvchi telesuflyordan o‘qishadi. Bunga qo‘shimcha ravishda, ular shaxsiy radiopriyomniklarga ulangan kichik quloqchinlar orqali maslahat va yo‘riqlar olishi mumkin – odatda, bunday tizimlar yangiliklar va shunga o‘xshash dasturlarda qo‘llaniladi.

Harakatlarni tasvirga olish – har xil uslublarda tasvirga olish mumkin:

- Uzluksiz (“jonli”, to‘g‘ridan-to‘g‘ri), jarayonni yozib borish.
- Butun harakatni qismlarga bo‘lib, bo‘lak “saxna”lar bo‘yicha yozish.
- Har bir harakatni kamerani ko‘rish nuqtalari yoki obyektning o‘lchamlari bilan farq qiladigan, alohida yoziladigan “plan” (ko‘rinish)larga bo‘lish.

Mentajni yengillashtirish uchun bir nechta dubl (nusxa)lar olinishi mumkin.

Keyinroq, biz ushbu har bir uslublarni ustuvorliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

Kameralar – hozirgi vaqtda ishlatilayotgan kameralar “shedevrlar”, ya'ni texnik sifati bo'yicha noyob (1.3-rasm). Kameralar mahsulotlar yaratish uchun og'ir shtativlarga o'rnatilib ishlatiladiganidan tortib, to yelkada ushlab turiladigan

studiyada ham, tabiatda ham ishlatish mumkin bo'lgan yengillarigacha mavjud. Hujjatli tasvirga olish uchun kichik, raqamli qo'l kameralari ham to'g'ri kelishi mumkin.


Videotasmaga yozish – qulaylik va ko'proq moslashuvchanligi uchun, TV dasturlarni ko'pchiligi videotasmaga yoziladi. Tasvir va ovoz, odatda videomagnitofondagi uzun magnit tasma (analog yoki raqamli uslubda) tushiriladi. (1.4- rasm) Ba'zida ovoz ham alohida magnitofonga yoziladi.

Videomagnitofon (VTR) quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Kamera ichiga qurilgan yoki unga bevosita o'rnatilgan.
- Mustaqil ixcham qurilma bo'lib, kamera bilan simli yoki radioaloqa vositasida bog'lanib turadigan.
- Avtobusda yoki yaqin joylashgan binoda bo'lishi mumkin.

Ko'p kamerali tasvirga olishda har xil kameralar tasvirini biridan biriga o'tish yoki birlashtirish kerak bo'lganda, ushbu ish, odatda, miksher (mikroavtobus yoki yaqin joylashgan binoda) tomonidan bajariladi. Bunday uslubda mujassamlangan material markaziy videomagnitofonda yozilib olinadi. Buning o'rniga har bir kamerali chiqish signalini yozish va keyin montaj qilish mumkin. So'ngi uslub tasvir va ovozni raqamli ko'rinishda disklarga (magnit yoki optik) yozilishini yoki ma'lumotlarni saqlaydigan yarim o'tkazgichli elektron to'plagichlarni (nakopiteli) qo'llanilishini nazarda tutadi. Lekin, qayd etish lozimki, hozirgi vaqtda butun dunyo yozish, montaj qilish va videoaxborotni saqlashda tasmalar, ya'ni raqamli tizimlarga o'tmoqda. (1.4- rasm)


- **Tasvirlarni qo'shimcha manbalari** – kinotasma, grafika, slaydlar, uzoq nuqtalardan uzatishlar, titrlar va h.k.lar kabi qo'shimcha



1.3- rasm. Studiya kamerasi

manbalardagi suratlar, dasturga yozish vaqtida yoki keyingi montaj (post-obrabotka)da kiritilishi mumkin.

- **Ovoz yozish** – odatda kichik mikrofon gapirayotganni kiyimiga mahkamlanadi yoki qo‘liga beriladi, yoki “turna” (juravl)ga va boshqa tagtayanchga o‘rnatiladi. Barcha musiqalar, izohlar va h.k.lar yozish vaqtida eshittirilishi yoki post-obrabotka vaqtida joylashtirilishi mumkin.



1.4- rasm. Analog va raqamli tizimga moslashgan studiya pulti

- **Yorug‘lik yoritish** – kun yorug‘ligini to‘ldirgan holda yoki to‘liq sun‘iy bo‘lganda, ko‘p tomondan ko‘rsatuvni tasviriy muvaffaqiyatiga yordam berishi mumkin. Yoritish texnikasi o‘z ichiga ma‘nbalarni kuchi, jadalligi va chiroqni «faktura»si (uni “qattiqligi” yoki yoyiluvchanligi) bo‘yicha diqqat bilan birlashtirilishini va obyektни yoki sahnani qaysidir elementlarini ajratish uchun, har bir manbani yo‘nalishi va qamrash hududini tanlashni o‘z ichiga oladi.

- **Pardoz (grim) va kostyumlar (garderob)** – katta masshtabli loyihalarda ushbu muhim tashkil etuvchi masalalar bilan mutahassislar shug‘ullanadi. Lekin kichik studiyalarda bunga kam e‘tibor beriladi va pardozni o‘zi bilan kifoyalanadi.

- **Montaj** – tuzilishi bo‘yicha montaj ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

1. Voqeani harakati bo‘yicha shu zahoti amalga oshiriladigan bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri montaj hisoblanib, manbalarni bir-biriga o‘tish uchun miksher qo‘llaniladi. Montajning bunday xili efirga to‘g‘ri uzatiladigan “jonli efir” eshittirishlar uchun xos.

2. Keyingi ishlov berish (postobrabotka). Bu holatda, dasturdagi barcha materiallar yig‘ilgandan so‘ng, ayrim kadrlar tanlab olinadi va keyingi montaj vaqtida ro‘yxatda belgilanib, montaj varag‘i (EDL) shakllantiriladi.

So'ngra, tanlangan kadrlar yoki qismlar bo'lagini muayyan taasurot tug'dirish uchun, boshqa "toza" videotasmaga ma'lum tartibda nusxalanadi. Bu tasma «master-kopiya» deb nomlanadi. Asos qilib olingan (isxodniy) tasmalar kelajakda bo'lishi mumkin bo'ladigan qayta montajlar yoki arxivlar uchun saqlaniladi.

Video va ovoz montajida ikkita asosiy tizim qo'llaniladi:

1. **Chiziqli** - montajda siz asos qilib olingan (isxodniy) bo'lgan yozuvni oldinga va orqaga o'rab, kerakli qismlarni tanlab olasiz va ularni montaj varag'iga binoan boshqa magnitofondagi "toza" tasmaga ko'chirasiz va shunday qilib master-kopiyani shakllantirasiz.

2. **Nochiziqli** - montajda, siz barcha yozuvlarni tasmadan diskli to'plagichlar tizimiga ko'chirib, raqamli nusxalarni barpo etasiz. Diskli tizimlar shunday ustunlikka egaki, ular, har bir bo'limni topish uchun ayrim vaqt kerak bo'ladigan, ayniqsa bir nechta g'altaklar ishlatiladigan tasmali videomagnitofonlar tizimidan farqli ravishda, tarqoq holda bo'lgan qismlarni juda tez yig'ib olish imkonini beradi.

Ovoz (dasturdagi ovoz) – ko'pchilik dasturlar, voqeani amaldagi ovozlarning yozuvidan tashqari o'z ichiga har xil manbalardan, masalan audiotasmalar yoki disklar, videomagnitofonlar, kinolentalarni o'qish apparaturalari, masofadagi manbalar olinadigan boshqa ovozlarni: musiqa, ovoz effektlari, izohlarni kiritadi. Tasvir montajidagi kabi, ovoz voqeani rivojlanishi bo'yicha tanlanishi va shakllantirilishi (miksherlanishi) mumkin, yoki ovoz yo'lakhasi keyingi ishlovda ("post-obrabotka") tuziladi. Ko'pchilik hollarda ikkala variant qo'llaniladi.

1.3. Amaldagi televideniya

Bugungi kunda, katta bo'lmagan qo'l kamerasi (1.5-rasm) va kamtarin (katta imkoniyatlarga ega bo'lmagan) kompyuterga ega odam, qisqa davrda katta tasvirga olish guruhining ishini, kuchli va qo'pol dastgohlar beradigan natijalarni olishi mumkin!



1.5-rasm. Qo'l kamerasi

Hozirda televizion kamera amalda hamma yerda tasvirga olishi mumkin. Bizning omma, kameralarni har tomonlama mosligini shunday bo'lishi kerak deb qabul qilishga o'rgandi. Tomoshabin ko'rayotgan kadrlar studiya kamerasidan yoki koinotdanmi, endoskopdan yoki suzib

ketayotgan tyulenga yoki parashutchini dubulg'asiga o'rnatilganmi- barcha bu materiallar televideniya tegirmonidagi donga o'xshatiladi va allaqanday "tabiiylik" sifatida qabul qilinmoqda.

Qandaydir mahsulotni ishlab chiqish yo'li qator omillarga bog'liq: dastur to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatilmoqdami (ya'ni tomoshabinlar amaldagi vaqtda ko'rishmoqda), yoki keyingi montaj va ishlov uchun tasmaga yozilmoqda.

Yozuvni doimiy yoki voqea translyatsiya qilinadigan va texnik nuqtai nazaridan qulay tartibda tanlab olib tashkil etilishi mumkin. Shunday ekan ko'p narsa voqeani nazorat qilish va yo'naltirish mumkinligiga bog'liq, yoki paytni ushlab boricha tasvirga olish.

Yangi imkoniyatlar paydo bo'lishi bilan dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha ko'proq uslublar yuzaga keldi. Dasturlar, imkon darajasida video yoki kinotasmaga yozilmoqda va ko'pincha, mahsulotni ko'proq o'ziga tortadigan qilish maqsadida ko'pchilik raqamli videoeffektlarni o'z ichiga olgan keyingi montajda shakllantirilmoqda.

Ko'pchilik holatlarda asosan kadrlarni orasida murakkab bo'lmagan o'tishlar talab etiladi, boshqalarida kadrlarni tanlashni va tartibini belgilovchi montaj jarayoni nozik san'atga aylanmoqda. Kutilganidek, televizion ishlab chiqarishni barcha turlari qator o'xshash jihatlariga ega, ammo dasturning har bir turi rejissyor va tasvirga olish guruhidan ba'zi, o'ziga xos uquvlarni talab etadi. Dastur materialini o'zi uni qanday namoish etilishini belgilaydi. Ba'zi turdagi mahsulotlar aniq reja bo'yicha yurishni, boshqalari, ko'pincha birdaniga qabul qilingan qarorlarga bog'liq.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston televideniyasini yangi telekanallarini ayting.
2. «Milliy serial» dasturi mazmuni.
3. Televideniyaning tashkillashtirish va rejalashtirish.
4. Televideniya qo'llanilayotgan montaj turlari.
5. Televideniya ishlab chiqarish uslublari.

2. TELEVIDENIYADA ISHLAB CHIQARILADIGAN ASOSIY MAHSULOTLAR


2.1. Televizion mahsulotlarining asosiy turlari

Intervyu va tok-shou - bunday holatlarda ko'pincha ma'lum darajada standart yondoshuvlar qo'llaniladi, kamera ustuvor tarzda so'zlovchini va tinglovchilarni munosabatini ko'rsatadi.

Yangiliklar (informatsion) dasturlari – ularni ko'pchiligi o'xshash shaklga rioya qiladilar. (2.1- rasm)

«Studiyaning to'g'ri efiir»: bir juft suxandonlar markazdagi stol atrofida o'tirib, har xil qo'shimcha manbalardan olingan - video-kinotasmalardagi lavhalarni, mahalliy muhbirning yangiliklarini, rasmlarni yoki kutubxonadagi grafika materiallarni kiritgan holda kameralar oldidagi videosuflyorlardan

yangiliklarni o'qib bermoqda. Qisqa intervyular ham shunday bo'lishi mumkin, bunda obyekt studiyada o'tirishi yoki studiya ekranida ko'rinib turishi mumkin. Dastur doimiy nazoratda bo'ladi va to'g'rilab boriladi, va kadr ortidagi harakatlar shoshilinch ravishda



amalg oshiriladi, ayniqsa eng yangi xabarlar yoritilayotganda. Xodimlar guruhi kelishilgan holda ishlashi lozim va kelayotgan materiallarni ko'rish va montaj qilishni, izohlarni tayyorlashni, illustrasiyalarni, kutubxona roliklarni, grafikani, titrlarni va h.k.larni jamlashga ulgurishi kerak.

Sport reportajlari – sportni yoki o'yinni har bir turi rejissyor oldiga alohida vazifalar qo'yadi. Tasvirga olish sharoitlari sezilarli farq qiladi.

Bir tomondan, siz katta bo'lmagan boks ringini tutashgan maydoni yoki bilyard stoli bilan ishlashingiz mumkin. Boshqa tomondan, bu futbol maydonida doimiy o'zgarib turgan harakat bo'lishi mumkin. Golf bo'yicha turnir, marafon, ot yoki velosiped poygalari kabi har xil musobaqalarda kameralar ishtirokchilar ortidan yurishi kerakmi yoki bir nechta o'zgaraydigan nuqtalardan olishi kerakmi? Ba'zida bir vaqtda bir nechta tadbirlar o'tkaziladi. Ularni to'laqonli to'g'ridan-to'g'ri efiirda yoritish mumkinmi yoki keyinchalik ko'rsatish uchun yozib olish lozimmi? Har bir holatda, rejissyorni asosiy maqsadi – «kerakli joyda kerakli vaqtda»

bo'lish. Uzluksiz hissini saqlagan holda, kamera nafaqat eng muhim paytlarni ko'rsatishi, tasodifiy hodisalarni ham ushlab olishi kerak. Sekinlashtirilgan takroriy ko'rsatish voqeani tushunishga yordam beradi.

Komediya – komediyali shoularni ko'pchiligi o'rganish bo'lgan SitCom (situatsiyalar komediyasi) «realistik» formatida tasvirga olinadi. Ishlab chiqarish shunday tashkil etilganki, tasvirga olish vaqtida hozir bo'lgan ommani (tomoshabin ularni ko'radi yoki eshitadi) voqeaga javoban harakatlanish imkoni bor. Kino yoki videotasmalardagi qo'shiladigan lavhalar ularga yuqoriga osilgan ekranlarda ko'rsatiladi. «Zarur bo'lgan» qo'shimcha qarsaklar va kulgilari yoki «javob harakatlar» keyingi ishlovda kiritilishi mumkin.

Musiqa va raqs - ishlab chiqarish kamera oldida oddiy ijro etishdan, tasvir va ovozni sezilarni darajada keyingi ishlov berish (masalan, ustidan joylashtirish, harakatni sekinlashtirish, rangni o'zgartirish, animatsiya effektlari va h.k.) ko'zda tutilgan, murakkab namoyishgacha o'zgarib borishi mumkin.


Alohida olganda, agar ovozlashtirish juda murakkab bo'lsa, kamera oldida oldindan tayyorlangan ovoz yo'lakchasi yordamida pantomima qilib ijro etilishi mumkin.

Drama, badiiy film, serial – tasvirga tushirish, odatda, kamera, ovoz va yoritishni aniq grafikga bo'ysingan butun jarayonni sinchiklab (tshatelnoe) rejalashtirilishini nazarda tutadi. Dialoglar, harakatlar, kamerani va ovoz dastgoxini ishi ssenariyda yozilgan bo'ladi. Yozuv uzluksiz yoki bo'laklar (fragmentlar) bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi vaqtda, badiiy kinolar ko'pincha keyingi ishlov va montajga asoslanmoqda.

Realiti-shou – televideniya janri, ko'ngilochar ko'rsatuvni va onlayn-(to'g'ridan-to'g'ri) translyatsiyani bir ko'inishi. Syujeti (mazmuni) – bir guruh odamlarni hayotga yaqin yoki ekstremal vaziyatda ko'rsatish. 1999 yilda Gollandiyada paydo bo'lgan. Hozirda realiti-shouni 4 ta xili bor deb hisoblaniladi.

2.2. Tok-shou teleko'rsatuv turi sifatida


Tok-shou – bir yoki bir nechta taklif etilgan ishtirokchilar boshlovchi tomonidan taqdim etilayotgan mavzularni muhokama qilib borayotgan teleko'rsatuv turi. Qoida bo'yicha, bunda studiyaga taklif etilgan tomoshabinlar ishtirok etadilar. Ba'zida, tomoshabinlarga savol berish yoki o'z fikrini bildirish imkoni beriladi. (2.2- rasm)



2.2- rasm. "Imkon" tok-shou teledasturidan ko'rinish

Klassik (mumtoz) tok-shou o'zicha uchburchak ko'rinishida bo'ladi: boshlovchi – taklif etilgan suhbatdoshlar (ekspertlar) – studiyadagi tomoshabinlar. Tok-shou jurnalistika va sahna uslublari birlashtiradi. Va tok-shou ishtirokchilaridan har biri bir paytda mualliflar tomonidan unga topshirilgan rolli personaj bo'ladi. Janr tuzilishi (sxemasi) juda sodda: qahramonlar, tomoshabinlar, boshlovchi, savollar va javoblar.

Janrning ko'pchilik mutaxassislari, misol uchun, hajviya, hazilni tok-shou muvafaqqiyatini garovi deb hisoblashadi.



2.3- rasm. Musiqiy tok-shouni tasvirga olish jarayoni

Tok-shou janrini vazifasi – bahslashish, keskin savollar, har xil nuqtai nazarlarni bildirish yordamida eshittirishga kiritilgan mazmuni qabul qilinishini faollashtirish. Zamonaviy tok-shouni xiyalasi shundaki, tashqi ko'rinishdan erkin bahsda tomoshabinlarga qandaydir, yagona, o'z ko'rsatkichlari bo'yicha qat'iy cheklangan qarash singdirib boriladi.

Tok-shou janri bir paytda ham ko'ngilochar, o'yinli va musiqiy, (2.3-rasm) ham informatsion, ham siyosiy bo'lib kelishi mumkin. Tok-shou

uchun tashqi sharoitlar ham sezilarli: ma'lum joy va qat'iy rioya etiladigan davriylik, ya'ni ommaviy tomoshabinni ongida «uchrashuvni sabrsizlik bilan kutish» holatini qo'zg'atishga mo'ljallangan dasturlarda muntazam takrorlanishi. Tok-shou dramaturgiyasi, ushbu janrni savol-javobli asosi bilan chambarchas bog'liq. Aynan shakli, sifati, turi va savollar ketma-ketligini mantiqlari dasturni yashirin maqsadi (intriga)ni va mavzu qatorini rivojlanish dinamikasini belgilaydi. Asosiy savollarni boshlovchi beradi, javobni tok-shouni har xil toifadagi ishtirokchilari (qahramonlari, ekspertlar, tomoshabinlar va h.k.) berishadi.

Dunyoda birinchi bo'lib tok-shouni **Fil Donaxyu** yaratgan deb hisoblanadi, uni loyihasi «Shou Fila Donaxyu» deb nomlangan va bu nihoyatda tasodifan yuzaga kelgan: 1967 yilda, ko'rsatuvlar biridagi qahramon bilan suhbat paytida o'zining savollari tugab qolgan, va u tomoshabinlar zaliga murojaat qilgan – savollar kutilgandan ham ko'proq ekan. Dunyodagi birinchi tok-shou shunday paydo bo'lgan deb hisoblanmoqda. (2.4-rasm)



2.4- rasm. Fil Donaxyu shousidan ko'rinishlar

Tok-shou janrli har-xilligi bo'yicha nooddiy tematik va funksional kengligi bilan farq qiladi. Tadqiqotchilar tok-shou boshlovchini shaxsiga mujassamlangan deb hisoblashmoqda. Bu maksimal darajasida shaxsiyatga bog'liq shakl. Shaklni va yaratuvchini birgalikda harakatlanishiga birinchi navbatda boshlovchini shaxsiy sifatleri yordam beradi: taniqligi (ommaviyligi), aqli, topqirligi, dilraboligi, hazilkashligi, diqqat bilan tinglash va boshqalar. AQShda eng ommabop bo'lgan tok-shou boshlovchisi **Opra Uinfri**ni ko'p yillar mobaynida dunyoning eng nufuzli shaxslar qatoriga kirishi tasodifan emas va uning olayotgan qalam haqi (gonorarlari) Amerika uchun ham nihoyatda baland.

Boshlovchi tomonidan qo'yilayotgan masalaga bog'liq holda dasturning har xil bosqichda har xil turdagi savollar ishlatiladi. Tok-shouni doimiy tarkibiy qismlari, bu boshlovchi

(«qahramon»)larni – bir narsa bilan mashhur bo‘lib ketgan yoki shunchaki o‘zining harakatlari, fikrlari, turmush tarzi bilan qiziq bo‘lgan insonlar. Televideniyada bir qancha o‘nlab tomoshabinlar va bilimga ega ekspertlarni studiyada bo‘lishi shart. Tomoshabinlar, har doim ham suhbatga tortilmaydilar, ba’zida ularni ishtiroki olqishlash, kulgi, hayratlanish nidolari bilan cheklanadi – bu alohida ommaviylik muhitni yaratadi, teletomoshabinlarga «hissiyotli habar» yuboradi. To‘g‘ri efirga uzatilayotgan ayrim tok-shoularda, studiyaga telefon orqali qo‘ng‘iroq qila oladigan va baland ovoz aloqasi orqali ulana oladigan, SMS yordamida va internet-ovoz berish orqali o‘z fikrini bildira oladigan teletomoshabinlar faol ishtirok etadilar.

Hozirgi paytda tok-shoular dramaturgiya bo‘yicha ikki shakllarga asoslanishi mumkin: muqobil (alternativ) va ochiqligiga. Alternativ shakli auditoriyani ikki guruh (lager)ga bo‘linishini nazarda tutadi va har tomonni ishtirokchilari o‘zini haqiqatini isbotlashi lozim. Bunday dasturda, muhokama qilinadigan savolni qo‘yilishidan kelib chiqadigan to‘qnashuv, harakatni keltirib chiqaradi.



2.5- rasm. Keng auditoriyada ommaviylik muhiti va qarshi tomonlar

Bunday tok-shouda, qarama-qarshi tomonlar “tarozasi tenglashtiriladi” – ular bir xil vazn toifasida bo‘lishi va har biri teng darajada o‘zini qarashini namoyish etishni va ochib berishni bilishi kerak. (2.5- rasm)

Tok-shouni ochiq shakli, ishtirokchilarni har xil fikrlari orqali namoyish qilinishi mumkin bo‘lgan bitta, oldindan qo‘yilgan ochiq savolga asoslangan bo‘ladi. Bunday turdagi tok-shoularni tashkil etish va o‘tkazilishidagi murakkabligi shundaki, bu shakl, fikri tomoshabinlarga qiziq bo‘lgan, juda yuqori darajadagi bahs ishtirokchilarini taklif etishni talab etadi. Ushbu dramaturgik shakllardan xohlangani telestudiyaga o‘rinli keladi. Ularni ikkisi ham “klassik uchburchak”ga asoslangan:

boshlovchi – taklif etilgan hamsuhbat (ekspert)lar – studiyadagi tomoshabinlar.

Tok-shou paydo bo'lishi bilan Amerika televideniyasida o'ziga xos lavozim – tok-shou moderatori vujudga keldi. Bu – auditoriyani “qizdirish” bilan shug'ullaniladigan odam. U dasturni o'tish tartibi, tomoshabinlarni ish-



2.6- rasm. Tok-shou tashkilotchilari

tiroki to'g'risida gapiradi, odamlarni dialogga chorlaydi, ishtirok etayotganlardan mavzu bo'yicha kim gapirishni xohlashini so'raydi, ovoz berish pultrlari (dasturda qo'llanilayotgan bo'lsa) bilan ishlashni o'rgatadi. Dunyoning har xil mamlakatlarida tok-shou tashkilotchilari moderatorlarni xizmatidan faol foydalanishmoqda. (2.6- rasm)

Ko'pincha tok-shou professional qoidalarga to'liq mos holda o'xshash (janri bo'yicha), yozilgan dastur “to'g'ri efirni” o'xshatishi lozim. Telestudiya tok-shoularni tayyor ssenariylari, mavzuli videorasmlar, grafik va musiqiy bezash variantlariga ega bo'lishi kerak. Va hatto “navbatchi qahramonlar” (ekspertlar) bo'lishi kerak. Bunda, studiyaga qisman (masalan, o'zining tayyor ssenariysiga ega) yoki tok-shouga kerak bo'lgan barchasi bilan ta'minlangan “tashkillashtirilgan tashrif qiluvchilar”ni studiyaga kelishi ko'zda tutiladi.

Ba'zida, reytinglarni oshirish, shouni tomoshabop va hissiyotliroq qilish maqsadida, tok-shou tashkilotchilari yonlangan (podstavniye) aktyorlardan foydalanishadi. va nihoyat, tok-shoular ko'pincha:

- “maqom berishadi, in'om qilishadi” (o'z xodimlariga va ular yoritayotgan predmetga); ijtimoiy me'yorlarni o'rnatadi, ijtimoiy ahloqni bosh hakami bo'lmoqda;
- bosh vaqtni o'tkazishda asosiy tarkibiy qismlardan biri bo'lmoqda;
- jamoatchilik fikrini manbalaridan va saralab oluvchilardan biri sifatida xizmat qilmoqda;
- shaxsiy dunyoqarashlarni shakllantiradi va ranglarini belgilaydi

Tok-shoularni har xil turlari mavjud, va ular har xil mezonlar bo'yicha tasniflanishi mumkin.

O'zbekistonning har xil telekanallarida quyidagi tok-shoular o'tkazilmoqda:

«Bugun va erta», «Imkon-shou», «Yashash uchun kurash», «Superkelinchak», «O'zingni angla», «Oydin xayot», «Stat blije», «Bilimdon», «Biz uchun muhim», «Tadbirkorlik teleklubi», «Uchburchak» va boshqalar.

Yuqorida barcha aytilganlardan kelib chiqadigani, tok-shoular o'tadigan studiyalarni yoritilishi shunday bo'lishi kerakki, videokameralar xohlagan vaqtda, xohlagan qahramonga, ekspert yoki tomoshabinga yo'naltirilganda, studiyadagi xohlagan nuqta bir tekisda va professional yoritilgan bo'lishi lozim.

Ovozga ham shunday talablar: agar bosh qahramonlar va taklif etilgan mehmon (ekspert)lar yoqaga o'rnatiladigan ("petlichka") mikrofonlari bilan ta'minlangan bo'lsa, bahsda ishtirok etishni xohlagan minbardagi tomoshabinlarga radiomikrofonlar yordamchilar tomonidan darhol yetkazilishi kerak.

2.3. Televideniya murakkab mahsulotlarni ishlab chiqarishning odatiy jarayoni

2.1- jadval.

Dastur g'oyasi	Predmetni o'rganish
Ssenariy loyihasi	G'oyadan kelib chiqib jarayonni rejalashtirish.
Dastlabki rejalashtirish	Yakuniy mahsulotni interpretatsiyasi, dekoratsiyalarni yaratishni boshlash (chizmalar, umumiy ko'rinishlar), yoritishni ko'rib chiqilishi mumkin, kostyumlarni loyihalash, texnik vositalar.
Yakuniy ssenariy	Rollarni taqsimlash, ijrochilarni tanlash.
Texnik rejalashtirish	Ishlab chiqarish rejasini tasdiqlash. Yuqorida ko'rsatilgan bosqichlarni batafsil rejalashtirish. Suratlarni, rekvizitni, maxsus effektlarni (sahna va video) tayyorlash. Tashkiliy ishlarni boshlanishi (buyurtmalar yozish). Qurilmalar: tasvirga olish maydonchasi, rekvizit,

	<p>rasmlar, effektlar.</p> <p>Qo'shilmalar: filmotekadan tasmalar, suratlar, tabiatda olingan tasvirlar/tasvir yozuvlari.</p>
Ssenariyni o'qish	<p>Yaratish/olib kelish: rekvizit, kostyumlar, turmaklar, modellar.</p>
Studiyadan tashqaridagi repetitsiyalar	<p>Ijrochilar uchun repetitsiyalar: harakatlanish yo'llari, o'yin, voqealar, mashg'ulotlar va h.k.</p> <p>Ishlab chiqarishni birlashtirish. Yakuniy tashkillashtirish: chiroq, dastgohlar.</p> <p>Ovoz effektlarni, fon uchun musiqani tanlash/yaratish.</p> <p>Ko'rik, qo'shimchalar (fillar, tasvir yozuvlar, suratlar)ni montaj qilish</p>
Kameralar uchun Ssenariylar	<p>Topshiriqni tayyorlash, kadr formati, kamerani ishlatish partiturasini, luqmalar, sekin aytib turish.</p> <p>Joyga yetkazish: ijaraga olingan dastgohlar, dekoratsiyalar, rekvizit, suratlar, kostyumlar va h.k.</p>
Studiyani tayyorlash	<p>Tasvirga olish maydonchasini shakllantirish, dekoratsiyalarni, umumiy chiroqlarni o'rnatish.</p> <p>Ko'rsatish qurilmalari: telekinoproektor, videomagnitofon.</p>
Xodisa (epizod)larni tasvirga olish. *	<p>Sozlash: kamera dastgohlari, yakuniy chiroqlarni o'rnatish, mikrofonlar, pardoz, kostyumlar, dekoratsiyalar, effektlar.</p>
To'liq ko'rib chiqish (progon)*	<p>Yuqorida ko'rsatilgan barcha bosqichlarni yakunlanishi.</p>
Bosh repetitsiya*	<p>Baholash: ijrochilar o'yini, jamoani ishi, va h.k.</p> <p>Yakunlovchi to'g'rilashlar.</p>
Videoyozuv*	<p>Yozish yoki yozishni repetitsiyasi. Kerak bo'ladigan qismlarga vaqt belgilarni aniqlash (montajga qo'llanma sifatida).</p> <p>Voqeani harakat vaqtini, davomiyligini tekshirish.</p> <p>Qaytadan tasvirga olish.</p>
Montajga tayyorgarlik	<p>Yozuvni (videotasmadagi vaqt belgilari bilan solishtirib) tekshirish. Kerakli kadrlarni tanlash, montajni tartibi va nuqtalarini tanlash.</p>

Montaj	Kerakli kadrlarni kesib olish, ularni talab etilgan tartibda joylashtirish, o'tish titrlarni kiritish. Ovozga ishlov berish, ovoz effektlarini, fon musiqasini, videoeffektlarni kiritish. Vaqt bo'yicha tenglashtirish (sinxronizatsiyalash).
Ko'rik (ko'rish)	Namoyish.
Efir	Nusxalar olish, taqsimlash, arxivga topshirish.

Repetitsiya yozuv uslubi qo'llanilganda bu bosqichlar birlashtiriladi, chunki epizodlar alohida rejalashtiriladi, repetitsiya qilinadi, yoziladi.

Nazorat savollari:

1. Televizion mahsulotlarini asosiy turlarini ayting.
2. Mumtoz (klassik) tok-shou qanday ko'rinishga ega?
3. Tok-shou dunyoda birinchi bo'lib qachon va qayerda paydo bo'lgan?
4. Televideniyada murakkab mahsulotni yaratish jarayoni nimadan boshlanadi.
5. Studiyani tayyorlash va montajga tayyorlashga nimalar kiradi?

Ikkinchi bo'lim

BADIIY VA HUJJATLI FILMLAR ISHLAB CHIQRISH

Badiiy va hujjatli filmlar ssenariy asosida yaratiladi. Ssenariy – bu ma'lum shakldagi adabiy asar bo'lib, u shu asosida film yaratishga mo'ljallangandir. Ushbu ssenariy film ishlab chiqarishning asosiy loyihaviy hujjatiga aylanadi va shu asosda boshqa zarur hujjatlar ishlab chiqiladi. Bunday hujjatlarni ishlab chiqilishida film direktori boshchilik qiladi. Badiiy va hujjatli film yaratilishida ularning bir-biriga o'xshash tomonlari ko'p bo'lgani bilan, o'ziga xos jihatlari ham mavjud.

I. FILM YARATISHDA IJODIY GURUHNING ASOSIY TARKIBI VA VAZIFALARI

I.1. Tasvirga olish guruhi direktori vazifasi

Tasvirga olish guruhi direktori – film ishlab chiqarishni tashkilotchisi. Sahnalashtirayotgan asosiy tasvirga olish guruh tarkibiga kiradi. Ijodiy jarayonni **sahnalashtiruvchi-rejissyor** boshqaradi, ishlab chiqarish-moliya faoliyatini-tasvirga olish guruhi direktori. Filmni yaratishni barcha bosqichlarida, kinossenariydan boshlab to filmni ishlash tugatilguncha, tasvirga olish guruhi direktori har xil muhim vazifalarni bajaradi. U kinostudiya tomonidan sahnalashtirishga ajratilgan mablag'larni boshqaradi, idora qiladi; sahnalashtiruvchi-rejissyor, bosh operator, sahnalashtiruvchi-rassom bilan filmning badiiy g'oyaviy sifati uchun javobgar.

Ijodiy masalalarni hal etishda ishtirok etadi: artistlar, maslahatchilar bilan shartnomalar tuzishda, sahnalashtirish loyihasini muhokamasida, tabiatda tasvirga olinadigan joylarni tanlashda, postanovkani miqyosini kattaligini aniqlashda, ishlarni davomiyligi va narxini, urush va boshqa ommaviy sahnalarni tayyorlaydi va tasvirga olinishini tashkil qiladi: barcha tasvirga olish ishtiroqchilarga qulay va xavfsiz mehnat sharoitlarni ta'minlaydi: kinostudiya va dekoratsiyalarni, kostyumlarni, rekvizitni tayyorlash, hamda ovoz yozish, tasvirga tushirish, yoritish va boshqa texnikalar bilan xizmat ko'rsatish bo'yicha tasvirga olish guruhining buyurtmalarini bajarayotgan chet tashkilotlar bilan aloqada bo'ladi.

Har bir filmni sahnalashtirish yoki teleprogrammani yaratish uchun ishlab chiqarish zarur, va bu kartina direktoriga tegishli imtiyoz. Kartina direktori butun tayyorlov va tasvirga olish davrida ishlab chiqarishni boshida turadi. U, sahnalashtirish bilan bog'liq – tabiatda tasvirga olish ekzotik joylardan to ko'changizni yaqin burchagidagi tasvirga olish maydonchasigacha, eng ulkan dekoratsiya va dastgohlarni o'rnatishdan

uning eng kichkina tirgovuchigacha bo'lgan sahnalashtirishga bog'liq barcha muammolar majmuasi hal bo'lganini kafolatlashi lozim. Optimal narxlarda olingan, ularni barchasi, kerakli joyda, kerakli vaqtda, kerakli sonda bo'lishi lozim; kartina direktori ishlab chiqarish jarayonini har bir ishtirokchisi undan bujarni talab qilishga haqi borligini bilishi shart. (3.1-rasm)



3.1-rasm. Kartina direktori tayyorgarlik jarayonida

Kartina direktori, sog'liqni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, ish kunini davomiyligi kabi barcha yuridik talablarni har biri uchun bajarilishini kafolatlaydi. Bu chegaradan tashqari ekspeditsiyalarga ham taaluqli. Chet mamlakatlarini qonunlari, valyuta va ijtimoiy kelishuvlar, atayin qilinmagan buzilishlar natijasida paydo bo'ladigan muammolarni oldini olish uchun, butun jamoa tomonidan bajarilishi kerak. Kartina direktori badiiy-ijodiy jarayonga aralashmasligi kerak: uning ishi ishlab chiqarishni boshqarish. Kartina direktori, uni qarorlariga ijodiy tomonlar tasir qilishini bilishi kerak: mavzuni rivolanishi, badiiy yechimlarni natijalari va ijodiy jarayonni borishi, hatto rejissyor o'ylab qo'yganini har doim ham tasavvur qilish mumkin bo'lmaganda ham. Bunday ish kartina direktoriga ishlab chiqarish jarayonini samarali boshqarishga va uni boshida turishga imkon beradi.

Kartina direktorini ishi postanovkani miqyosini kattaligi va ishlab chiqarish imkoniyatlariga bog'liq. Uni ishini, tashkiliy masalalarni yechish uchun ijod bilan, ya'ni o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyish etish bilan shug'ullanishi lozim bo'lganlarni vaqtini olmasdan, ijodiy ishlarga sharoitlar yaratishni bilishiga qarab, baholash mumkin. Badiiy filmni ishlab chiqarish uchun kartina direktoriga bo'lgan ehtiyoj o'z-o'zidan ko'rinib turibdi. Jamoa katta va shuning uchun, kelishilgan holda va ijodiy birlik muhitida harakatlanishi lozim bo'lgan barcha mutaxassislar ishi

muvofiglashtirilishi lozim. Bu butunlay ishlab chiqarishni tashkil etishga taaluqli.

Badiiy filmni ishlab chiqarish ko'pchilik dastgohlarni va katta hajmda har xil xizmatlarni talab etadi, va ularni barchasi, ishlab chiqarish uchun belgilangan vaqtga sig'dirish uchun muvofiglashtirilishi lozim. Bularni barchasiga kartina direktori mas'uliyatli. U rejissyorni yaxshi ko'rishi yoki nafratlanishi mumkin, lekin u yoki bu holatda, u osonmas ishini o'z zimmasiga oladi.


Ko'p sonli bo'lmagan tasvirga olish guruhli hujjatli film rejissyori ko'pincha, kartina direktori ishini bajaradi. Hujjatli filmlarni ishlab chiqaruvchi mustaqil studiyalarda odatiy amaliyot. Bu sahnalashtirish loyihasini prodyuser-rejissyori bo'lib qolgan rejissyor tomonidan jarayonni jadallashtirishga qiziqishni uyg'otishga yo'naltirilgan. Lekin, agar u bu ikkita kasbni birlashtirish baxtiga erishsa ham, u tushunishi kerak sahnalashtirish jarayonida shunday vaqt keladiki prodyuser-rejissyor butun ishini, hattoki ishlab chiqarishi oddiy bo'lgan hujjatli filmda yetarli darajada samarali bajara olmaydi. Demak, kartina direktori albatta tayinlanishi lozim, va bu tayinlash tayyorlov davridan ancha oldin amalga oshiriladi.

Hujjatli texnologiyalar orasida ba'zida prodyuser yordamchisi kabi lavozim uchraydi, ayniqsa, bu yordamchi ancha tajribali bo'lib va oldinroq ishlab chiqarish jarayonida o'zini ijobiy tomondan ko'rsatganda. Uning lavozimi prodyuser yordamchisi deb nomlanishiga qaramasdan, u amalda ishlab chiqarish boshqaruvchisi bo'ladi, va amalda uni kartina direktori deb atashadi. Ishlab chiqarishni boshqarish murakkabligi bo'yicha birinchi o'rinda to'liqmetrajli badiiy film turibdi, hujjatli film esa iqtisodiy moliyaviy shkalani boshqa uchi (tepasida) joylashgan. Ko'pchilik kartinalarni joylashishi - bu ikki qutblar orasida.

O'zida badiiy va hujjatli kinoni tasvirga olish uslublarini birlashtirgan, ommabop musiqiy ijrochilarni ishtirokidagi reklama roliklari ham bo'ladi. Ular murakkablik shkalasi bo'yicha har xil baholanadi: ba'zilari badiiyga yaqin, ba'zilari esa - hujjatli tasvirga olishga.

Badiiy kino - bu haqiqiy filmlar yaratiladigan yagona muhit deb hisoblaydiganlarni ogohlantirish lozim. Bu bunday emas. Hujjatli filmni ishlab chiqarish boshqaruvchisiga bo'lgan talablar, badiiy to'liqmetrajli filmlarda bo'ladigan moddiy-texnik ta'minotini mutlaqo barcha tomonlarini, kiritilishi har doim emas. Badiiy filmni (ayniqsa, bu katta to'liqmetrajli film bo'lsa) yaratish ustida ishlayotgan boshliq (menedjer), funksional vazifalari bo'yicha sanoat - ishlab chiqarish boshqaruvi,

industrial menejmentiga yaqinlashadi. Bunday boshqaruvni miqyosini tushunish uchun, kartina direktori boshqarayotgan ishlab chiqarish hajmini bilish lozim. Bu aniq ma'noda butun ishlab chiqarish. Butunlay sahnalashtirishni strategik va moliyaviy boshqarish uchun, kartina direktori prodyuser va rejissyor bilan birgalikda badiiy va moliyaviy talablarni qoniqtirish uchun, ishlab chiqarish bo'limiga murojaat qilishlari lozim.



3.1- chizma. Munosabatlar daraxti

Kartina direktorini o'rni ierarxik daraxtini atamalarida, odatda, munosabatlar tizimini chizmasida ko'rsatilgan o'rinda joylashgan.



3.2- rasm. Tasvirga olish jarayonining minatyur ko'rinishi

Bu bo'ysunish tartibi daraxtidan ko'rinishicha, kartina direktori prodyuser va rejissyor bilan ishlab chiqarishni asosiy figuralari bo'lmoqda, (3.1- chizma) va shuning uchun ular, odatda, sahnalashtirish loyihasi boshidan oxirigacha ishtirok etadilar. Navbatdagi sahnalashtirishga kirishganda, kartina direktori topshirilgan ish uchun butun mas'uliyatni o'ziga oladi. Uning kasbi, yaxshi suratga olingan va u tomonidan ishlab chiqarishni barcha bosqichlaridan o'tkazilib omadli yakunlangan filmdan

qanoatlanish va qo'shimcha tetiklik zaryadini olish imkoniyatini yaratadigan.

Va uning teskarisi filmni suratga olishda vaziyat xohlagandek rivojlanib bormasa, kartina direktorini xafsalasi pir bo'lib hafa bo'ladi.

Kartina direktori faoliyatini butunlay baholash uchun, u ishga kirishib, ijodiy va ishlab chiqarish jarayonini uning yakunigacha va nihoyasida tayyor mahsulotni qarsaklar ostida topshirishga yetib kelishi uchun, hammasidan oldin qanday bosh qadamlarni bosishi lozimligini tushunish kerak. Filmni qabul qilinishidan so'ng tanqid qilinishi mumkin. Kartina direktori rejissyorni ijodiy muvafaqqiyatsiligiga javobgar emas, ammo u butun jarayonda o'zini roli ahamiyatini ko'rish uchun ushbu tanqidni tushunishi zarur. Kartina direktorini ishlab chiqarish davomida barcha bo'limlardagi ishi barchaga mutlaqo tushunarli bo'lishi kerak:

- **kerakli odamlar** (jamoada vazifalarni taqsimlash) ;
- **kerakli joyda** (tabiatda va studiyada tasvirga olish joylari);
- **kerakli vaqtda** (vaqt va navbat bo'yicha jadval) ;
- **kerakli narxda** (smeta ajratmalari va budjet ichida).

1.2. Kinorejissor ijodi

Kinorejissor - filmni sahnalashtiruvchi, kinokartinani yaratish bo'yicha butun ijodiy va ishlab chiqarish jarayonini boshqaruvchi, g'oyaviy-badiiy konsepsiyasini muallifi. (3.3)

Rejissyorni dunyoqarashini tavsifi va mahorat darajasi filmni g'oyaviy-estetik butunligini belgilaydi. Adabiy ssenariyni talqin qilishda, u o'zini badiiy o'ylamasini tadbiiq etadi, shuning uchun kinodramaturg singari kartina muallifi bo'ladi. O'ylaganini tadbiiq



3.3- rasm. Kinorejissor

etayotganda, rejissor uni tanlagan janr tizimida iborali tilni ifodali, ta'sirli vositalarini ishlatgan holda amalga oshiradi, va bunda uning ijodi uchun ssenariy asos bo'ladi. Qahramonlar shaxsini va muhitni ijtimoiy haqqoniyligi, badiiy ifodalanganligi, ta'sirchanligi va emotsional-

psixologik tahlilni chuqurligini izlashda, rejissyor atrofni va vaqtni elementlarini shakllantiradi, personajlarni o'zaro bir-birlari bilan harakatlarida to'qnashuvini va xarakterini ochib beradi.

Rejissyor o'zini shaxsiy o'ylaganlari (g'oyasi)ni aktyorlar, operator, rassom, bastakor, ovoz operatori, tasvirga olish guruhining boshqa ishtirokchilari bilan amalga oshiradi. Kartinani o'ziga qanday tasvirlamasin, rejissyor, har qanday holatda, bo'lajak asarni barcha tarkibiy qismlarini kelishtiradi. Uni orkestrni dirijori bilan taqqoslash mumkin. Adabiy ssenariyda yozilgan voqealar rassom va operator bilan birgalikda tuzilgan rejissyor ssenariysida plastik va ovoz ko'rinishiga ega bo'lishadi. Montaj qatorini ishlab chiqilishiga eng muhim o'rin ajratiladi. Rejissyor savodli, malakali ishlab chiqaruvchi bo'lishi kerak, tasvirga olish guruhini unumdorlik bilan boshqarishga imkon beruvchi tashkilotchilik, pedagogik iqtidorga ega bo'lishi kerak.

1.3. Kinooperator faoliyati

Sahnalashtiruvchi operator – badiiy kinematografda, filmni asosiy yaratuvchilardan biri, uni tasviriy yechimlari ustida bevosita ishlovchi va tasvirga olishni amalga oshiruvchi. Operatorlik san'atini barpo etilishi, kino san'atini butunlay rivojlanishi bilan, musavvirlik, teatr, dramaturgiyani ko'p asrlik tajribasini o'zlashtirilishi bilan yaqin bog'langan. (3.4- rasm) O'zini ijodida operatorlik san'atini va zamonaviy kinotexnikasini badiiy imkoniyatlarini qo'llagan holda, operator tasvirga olish jarayonida film yaratuvchilari butun jamoasini ijodiy o'ylanmalarini ekranli ko'rinishda amalga oshiradi.



3.4- rasm. Kinooperator V.Yusov

Operator, ssenariy va filmni g'oyasi asosida, sahnalashtiruvchi rejissyor va sahnalashtiruvchi rassom bilan birgalikda filmni tasviriy yechimini, kartina sahnalari va epizodlari talqinini, asosiy personajlarni portret tavsiflarini ishlab chiqadi, aktyorlar sinovini o'tkazadi, tasvirga olish

joylarini tanlashda, dekoratsiyalar va kostyumlarni eskizini tasdiqlashda ishtirok etadi.

Pastanovkachi operator operatorlar guruhini boshqaradi, filmning asosiy tasviriy strukturasi yaratadi. Operatorlar guruhida ikkinchi operator va assistentlar mavjud bo'lib, bosh operatorning ko'rsatmalariga asosan ish jarayonini tashkil etadi. Tasvirga olish texnikalari injeneri va bosh chiroq ustasi ham pastanovkachi operatorning ko'rsatmalariga asosan ishlarni tashkil etadi.

1.4. Ovoz operatorining ahamiyati

Ovoz operatori - ssenariy muallifi va sahnalashtiruvchi-rejissyorni umumiy o'ylamasiga binoan kinokartinani ovozlashtirishni amalga oshiradigan tasvirga olish guruhini asosiy ijodiy xodimlardan biri. Film ustida ishlash jarayonida ovoz operatori dialogni, shovqinlarni, musiqani yozadi. Ovoz yozuvi tasvir bilan sinxronlashtiriladi, va yangi badiiy sifat - eshitimli va ko'rinishli qiyofa paydo bo'ladi. Bunda, ovoz shunchaki tasvirni sharhlashi yoki namoyish etishi emas, balki buning uchun keng qo'llaniladigan kontrastlar va ovoz taasurolari eshitimli, ko'rinishli, obrazli zarur bo'lgan va qisimli elementi bo'lishi kerak. (3.6- rasm)



3.6- rasm. Ovoz operatori

1.5. Film ishlab chiqarishda assistentlarning roli

Assistent - film sahnalashtiruvchilarni – rejissyor, operator yoki rassomni filmni tasvirga olish jarayonida tashkiliy ishlab chiqarish vazifalarni bajaruvchi eng yaqin ijodiy yordamchi. (3.5- rasm)

Rejissyor assistenti tayyorlov davrida, rejissyorni o'ylagani (g'oyasi) bo'yicha bosh va epizod rollarga ijrosiga aktyorlar nomzodlarini, hamda ommaviy sahnalar



3.5- rasm.

uchun statistlarni tanlaydi va ularni tasvirga olish uchun to'liq tayyor bo'lishiga javob beradi. Tasvirga olish maydonchasida rejissyor assistenti ikkinchi ko'rinishni tashkil etadi, ishtirokchilar ishini tartibga soladi.

Operator assistenti apparaturani tasvirga olish uchun tayyorlaydi, sahnalashtiruvchi-operatorni topshirig'i bo'yicha yorituvchilar bilan birgalikda yoritish asboblari joylashtiradi, tasvirga olish maydonchasini yorug'ligini boshqarib boradi. U kamera fokusi o'rnatilishini kuzatib boradi, tasma (plyonka)ni oladi va uni hisobini olib boradi.

Rassom assistenti arxitektura, kundalik turmush, folklor bo'yicha tasviriy materialni tanlaydi. Sahnalashtiruvchi-rassomni eskizlariga binoan dekoratsiyalar, murakkab s'yomkalar maketlarini loyihalari bo'yicha qismlar (detallar)ni ishlab chiqadi. U kinostudiyalar sexlari tomonidan bajarilayotgan buyurtmalarni sifati va muhlatlarini nazorat qiladi. Assistentni vazifalar doirasi juda keng, uni tajribasi, chin dilligi, tashabbuskorligi va ijodiy imkoniyatlariga, ko'pincha, butun tasvirga olish guruhini ish natijalari bog'liq.

Assistent - kino ishlab chiqarishida eng muhim kasblardan biri, va uni egallash har xil bilimlarni va amaliy uquqlarni talab etadi.

1.6. Prodyuser vazifasi

Bizning mamlakatimizda endigina paydo bo'lgan kino va teleprodyuser lavozimi alohida suhbatni talab qiladi.

Prodyuser (angl. *Producer* — ishlab chiqarish) kinematografda va televideniya da bu kinotelekompaniyani filmni yoki teleko'rsatuvni sahnalashtirishda g'oyaviy-badiiy va tashkiliy-moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi ishonchli shaxsi. (3.7-rasm) U aktyorlarni, texnik xodimlarni tanlashda ham faol qatnashadi. Prodyuser vazifalarini rejissyorlar, aktyorlar, ssenariy mualliflari ham bajarishi mumkin. Prodyuserni asosiy vazifasi — filmni, teleko'rsatuvni tasvirga olish guruhiga sharoitlar yaratish, ijodiy masalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish.



3.7-rasm Prodyuser

Tarixi: Prodyuserlar tizimi 1910 yillar oxirida Gollivudda paydo bo'ldi, kinofilmni ishlab chiqarilishi va namoyish etilishga berilishi mumkin bo'lmagan ijodiy, tashkiliy va moliyaviy masalar uchun shaxsiy

mas'uliyatni kiritish bo'yicha tabiiy qadam bo'ldi. Urushdan oldingi Amerika kinosi ko'rinishini, rejissyorlardan ko'ra ko'proq darajada prodyuserlar belgilangan. **Irving Talberg** mumtoz Gollivudda kitobiy prodyuser misoli bo'lgan; darhol uning o'limidan so'ng Amerika kinoakademiyasi, eng yahshi kinoprodyuserlarga beriladigan uning nomidagi mukofotni ta'sis etgan.

Kasbni xususiyatlari: Prodyuserlar faoliyatini qutulib bo'lmaydigan kamchiligi bo'lib ularni ijodiy va kadrlar masalalari bo'yicha qat'iy ko'rsatmalar berishga davo qilishi. Shu bilan bir paytda, prodyuser nafaqat rejissyor o'ylaganini amalga oshirishiga yondoshgani, shu bilan bir vaqtda yosh iqtidorli rejissyorlar namoyondalari qatorini hayotga olib chiqqan holatlar kam emasligi ma'lum.

Kinoprodyuser ishini umumiy ko'rinishda bir nechta nuqtada yozib berish mumkin. Prodyuser yangi film g'oyasini topadi yoki unga taklif etishadi. U uni ustida ishlab boradi, uni amalga oshirish uchun qancha pul kerak bo'lishini o'ylab chiqadi. moliyalashtirish manbalarini topadi. ssenariy muallifini, rejissyorni, aktyorlarni taklif etadi, reklamani va filmni kino ko'rishga (prokat)ga chiqarishni ta'minlaydi. Rejissyor bilan munosabatlariga kelsak, ular har xil bo'lishi mumkin. Agar gap mualliflik kino to'g'risida bo'lsa, birinchi o'rinda rejissyor bo'ladi. G'oya unga yoki ssenariy muallifiga tegishli bo'lsa, u o'zi film konsepsiyasini o'ylab chiqaradi, prodyuser esa filmni olishda yordam ko'rsatadi.

Moliyalashtirish manbalariga tegishli boblar alohida tushintirishlarni talab qiladi. Mutaxassislar, kinoprodyuserni ishi, u ishlatayotgan modelga bog'liqligini qayd qilishmoqda. Kinematografda ikkita: tijorat va budjet modeli mavjud. Tijorat kinematografi foyda olishga mo'ljallanadi. Bunday model, kino ko'rsatish (prokat), sezilarni foyda keltiradigan darajada rivojlangan joyda, ish beradi. Bunday mamlakatlar orasida AQSh yetakchilik qiladi. Budjet modeli, birinchi navbatda davlat telekompaniyalar uchun, loyihani budjetdan qo'llab-quvvatlanishga qaratilgan. MTRK ishi budjet yo'nalishiga asoslangan. Va tijorat qonunlari bo'yicha yashayotgan kinematograf kinoprodyuseri hamda budjet sohasi orasida ulkan farq mavjud. Tijorat varianti, foyda kinoni namoyishidan (prokat)ligini belgilaydi.

Budjetlida - foyda davlat budjetidan yoki homiylardan jalb qilinishiga bog'liq. Jalb qilingan pullardan qancha ko'p tejalsa, loyihadan prodyuserni o'ziga shuncha ko'p foyda bo'ladi. Kinoni namoyishidan olinadigan foyda ikkinchi o'ringa o'tadi. O'zbekistonda ham tijorat kinematograf

rivojlanmoqda, bu esa bizda ham klassik (tijorat) sxemasi bo'yicha ishlaydigan prodyuserlar paydo bo'layotganini bildiradi.

Kinoprodyuserlar qanday bo'ladi? Prodyuser studiya nomidan ishlashi mumkin (studiya prodyuseri) yoki o'z-o'zicha (mustaqil prodyuser). Studiya prodyuseri studiyada mavjud bo'lgan pullardan foydalanadi. Mustaqil prodyuser moliyalashtirish, reklama, kino namoyishi (prokat) masalalari bilan shug'ullanadi. Bundan tashqari, filmni yaratish vaqtida bir talay tashkiliy va texnik masalalar yechilishi lozim, va bir odam shuncha tashvishlarni uddalay olmaydi. Shuning uchun, asosiy (bosh) prodyuserdan tashqari film ustida ijrochi va yo'nalishlar bo'yicha prodyuserlar ishlaydilar.

Bosh prodyuser (executive producer) – texnik vositalarni jalb qilish, ijodiy xodimlar (ssenariy muallifi, rejissyor, aktyorlar va h.k.), distribyuterlar bilan shartnomalar tuzishga diqqatini qaratadi. U o'zi film budjetini taxminiy o'lchamini aniqlaydi.

Lekin oldin – film g'oyasi. Undan harakatlana boshlab, bosh prodyuser qaysi rejissyorni jalb qilish, moliyalashtirish qanday bo'lishini va h.k.larni hal etadi. Ba'zida film ustida bir nechta bosh prodyuserlar ishlaydi. Biri g'oyani pishitish bilan shug'ullanadi, uni boshqa studiyalarga taklif etadi, boshqasi – pullarni jalb qiladi, uchinchisi to'g'ri keladigan rejissyorni, ssenariychini va h.k. qidiradi.

Ijrochi prodyuser (producer) - katta loyihalarda kerak bo'ladi. U jarayonni yuqori darajasida boshqaradi:

(3.8-rasm) mablag'larni ishlatilishini kuzatadi, ishchi xodimlar, material, dastgohlarni va h.k.larni ta'minlovchilari bilan shartnomalar tuzadi, va ijodiy masalalarga kirib boradi. Lekin bularni hammasi texnik maydachuydalarga, kundalik tasvirga olish jarayoni, ovozlashtirish va



3.8- rasm Ijrochi prodyuser

h.k. bo'lishi mumkin. Shuning uchun, ijrochi prodyuser birdaniga bir nechta loyihalarni olib borishi mumkin. Ushbu barcha vazifalarni bosh prodyuser bajarishni bo'lib turadi. Katta kinokompaniyalardan tashqarida bu vazifani ssenariychi o'z zimmasiga olishi mumkin.

Yo'nalish bo'yicha (joydagi) prodyuser (lineproducer, unit production manager) – aksincha, ijodiy guruhni ishini ta'minlaydigan aniq tashkiliy masalalar bilan shug'ullanadi. Uni o'zi ish jadvaliga rioya etilishini nazorat qiladi. Aynan joydagi prodyuser loyihani bevosita rahbari deb aytish mumkin. Ba'zida, ishni undan ham tor bo'lagiga javob beradigan prodyuserlar tayinlanadi. Masalan, ma'muriy prodyuser, filmni yaratish vaqtida har xil ishlarni bajarish uchun shtatdan tashqari ishchilarni yonlash bilan shug'ullanishi mumkin. Aytish lozim, prodyuserni kinodagi ishi teleprodyuser shug'ullanadiganlar bilan ko'plab umumiy larga ega. Lekin, televideniya o'zining alohida xususiyatlari bor.

Prodyuserlar rejissyorlarga qarshi - Prodyuser kasbi kinematografni jiddiy industriyaga aylanishi bilan 1910 yillarda Gollivudda paydo bo'ldi. Ushanda, prodyuserlik sexi va rejissyorlik orasida qarshi turishlar belgilandi. Prodyuser har bir filmga tijorat loyihasi deb qaraydi, va u film taxminan qanday chiqishini oldindan ko'radi.

Rejissyorni ko'rishni umuman boshqacha bo'lib chiqishi mumkin. Taniqli misol – prodyuser **Devid Selznik** va uning «Unesyonniye vetrom» filmi. Shunday nomlangan roman bo'yicha ishlangan film nafaqat rangli filmlardan birinchilardan bo'lgani uchun ajralib turadi. U, kino tarixida eng kassabop hisoblanadi, Selznikni o'zi – gollivudlik eng muvaffaqiyatli prodyuserlardan biri. Bu film unga birinchi «Oskar»ni olib keldi. Bunday muvaffaqiyat uchun Selznik film ustida ishlash jarayonida to'rtta rejissyorni almashtirdi. Boshqa tomondan, prodyuserni bosimi har doim ham omadli bo'lib chiqmaydi.

Rejissyorlarni qarama-qarshi turishi hozirgi vaqtgacha saqlanib kelmoqda. Lekin, prodyuser o'zi ko'rishini zo'rlab o'tkazmasdan, rejissyorni o'ylaganini hayotga kiritishga yordam berganiga ko'plab misollar bor. va prodyuser dunyo uchun o'z uslubiga ega yorqin rejissyorni kashf etish hollari bo'lib turadi. Va bu kinoprodyuser iqtidorini qirralaridan biri. Rejissyorlik va prodyuserlik faoliyatini muvaffaqiyatli birlashtirilishiga misollar bor.

Masalan, **Stiven Spilberg** – aktyor, rejissyor va prodyuser. U 40 dan ortiq filmni ishlagan va 120 tasiga prodyuserlik qilgan.

Robert Zemeskisni hisobida 20-dan ortiq rejissyorlik va 35 ortiq prodyuserlik ishi. **Djeyms Kameron, Bred Pit, Rossiyada - Valeriy Todorovskiy, Fyodor Bondarchuk** iqtidorli prodyuser bo'lishdi.

Ish joyi: Kinoprodyuser kinostudiyada, prodyuserlik markazida ishlashi, kinojarayonni mustaqil tashkilotchisi sifatida harakatlanishi mumkin.

Muhim sifatlari: Prodyuser kasbi mas'uliyatni, o'ziga ishonchni, o'zini tashkillashtirishni, qarorlarni qabul qilish qobiliyatni, har xil odamlar bilan shaxsiy aloqalar o'rnatishni, san'at va ishbilarmon odamlari bilan umumiy til topishni nazarda tutadi va kinoga san'at sifatida va tijorat sifatida qiziqishi ahamiyati bo'yicha kam emas. Kasbda doimiy rivojlanishi, o'zini kasbiy ko'rish doirasini kengaytirishga tayyor bo'lishi zarur. Prodyuserni yutuqli g'oyalarga va iqtidorli odamlarga bo'lgan sezgirliги yaxshi did bilan mujassam bo'lishi kerak.

Bilim va uquvlari: Kino – va teleishlab chiqarish sohasida, marketingda, menjmentda bilimlari bo'lishi, adabiyot, tarix, kinosan'ati bo'yicha keng dunyoqarashlarga ega bo'lishi.

Qayerda o'qitiladi: Prodyuserlik va iqtisodiyot fakultetlari, ixtisoslik «Kino va televideniya prodyuserligi» Ba'zi hollarda, kinematograf va televideniya aktyor, rejissyor sifatida band bo'lgan odamlar yuqorida gapirilgandek prodyuser bo'lishadi.

1.7. Kino film ishlab chiqarish texnologiyasi

Kino ishlab chiqarish jarayoni 5 ta asosiy bosqichlardan iborat:

1. Rivojlanish (development – development);
2. Tayyorlash (pre-prodakshn – pre-production);
3. Tasvirga olish (prodakshn – production);
4. Montaj-ovozlantirish (MTP, post-prodakshn – post-production),
5. Reklama, sotish, namoyish qilish (prokat) (distributsiya – distribution).

Rivojlanish (development) - bosqichida, studiya prodyuser orqali ssenariy qidiradi. Yoki boshqa varianti – studiya (prodyuser)da g'oya bor, va u ssenariychi bilan ushbu g'oya bo'yicha ssenariy yozilishiga shartnoma tuzadi. Studiya ssenariy sotib olganda yoki buyurtma qilinganni olganda, u muallifga qalam haqini to'laydi va sahnalashtirish huquqiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, bu davrda, studiya loyihaga moliyalarni va mumkin bo'lgan sheriklarni jalb qiladi. Ssenariy batamom tasdiqlanishi va mablag'larni birinchi qismi topilishi bilan, tayyorlash davri boshlanadi.

Tayyorlash (pre-prodakshn) - davrini vazifasi tasvirga tushirishga to'liq tayyorlanish. Filmni budjeti va murakkabligiga qarab tasvirga olish guruhini tarkibi har xil bo'lishi mumkin. Ularning ko'pchiligi o'z ishini tayyorlash davrida boshlaydilar.

Kinoguruh a'zolarini namunaviy ro'yxati:

1. Prodyuser, prodyuser yordamchisi
2. Sahnalashtiruvchi-rejissyor, rejissyor yordamchisi

3. Sahnalashtiruvsi-operator (umumiy ko'rinish yechimlarga, chiroqni hisobga olganda javob beradi, kamera ortida o'zi har doim ham o'tirmaydi)

4. Sahnalashtiruvchi-rassom (3.9- rasm)

5. Bastakor

6. Ovoz rejissyori (ovozni umumiy yechimlariga, shovqinlar va musiqani yakuniy joylashtirish – miksga javob beradi), assistentlar

7. Kostyumlar bo'yicha rassom, uni assistenti, liboschilar

8. Pardozchi-rassom, pardozchilar

9. Ovoz operatori, assistentlar, mikrofonchilar (tasvirga olish maydonchasida)

10. Operator, ikkinchi operator (ba'zida, aynan ular kamera ortida o'tirishadi)

11. Ommaviy sahnalar bo'yicha rejissyor, assistent, ommaviy sahnalar brigadiri

12. Ikkinchi rejissyor yoki 1-nchi assistent (butun jarayonni nazorat qiladi)

13. 2-nchi rejissyor (ishlab chiqarishni rejalashtirish bilan shug'ullanadi)

14. Rejissyorni 2-nchi va 3-nchi assistentlari

15. Aktyorlar bo'yicha assistentlar

16. Muharrir (amerikadagi kino ishlab chiqarishda u, tasvirlarni ssenariyga mosligini umumiy nazoratidan tashqari, montajni amalga oshiradi).



3.9- rasm. Rassomning tayyorgarlik jarayonidan

17. Skript - supervayzer (masalan, o'tkazib yuborilgan gap, luqma yoki teskarisi, qo'shimcha gap sahnani va u bilan bog'liq sahnalarni ma'nosiga ta'sir qilmasligini kuzatadi)

18. Musiqa muharriri

19. Operatorni tasma va fokus bo'yicha assistenti

20. Rassom assistenti, dekoratorchi-rassom, dekoratorchi-rassom assistenti, sahna jihozlar ustasi (butaforlar), rekvizitorlar, bo'yoqchilar, sahna ishchilari

21. Kasting-direktor, assistent

22. Lokeyshn-menedjer (tasvirga olish maydonchalarni oldindindan kidirishni amalga oshiradi)

23. Murakkab harakatlarni (tryuklar) sahnalashtiruvchi

24. Vizual maxsus effektlar bo'yicha rejissyor (maxsus effektlarni, kompyuter grafikasini tayyorlaydigan studiyalar bilan ishlaydi)

25. Ijrochi prodyuser

26. Tasvirga olish maydonchasini direktor o'rinbosari

27. Mehmonxonalar, ko'chib o'tishlar bo'yicha ma'mur (administrator), temir yo'l va aviachiptalarni buyurtmalari kiritilgan holda

28. Katta ma'mur

29. Maydoncha bo'yicha ma'mur

30. Maishiy masalalar ma'muri (ovqatlanish, hojatxonalar, dam olish, ovqatlanish xonalariga javob beradi)

31. Kamera, kranlar va boshqa tasvir texnikasi mexaniklari

32. "Dolli"chi (operator aravachasi-dollini yurgizadi, relslarni yotqizadi)

33. Yorituvchilar brigadasi, brigadir va uning yordamchisi

34. Elektrchi

35. Pirotexnik

36. Navbatchi shifokor

37. Ishchilar, yukchilar

38. Qo'riqchilar

39. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar

Zarurat bo'lganda, maslahatchilar va boshqa mutaxassislar yollanadi, masalan, murabbiylar, tarbiyachilar (tasvirga olishda bolalar ishtirok etganda), o'rgatuvchilar (hayvonlarni tasvirga olganda) va h.k. Tasvirga olish guruh a'zolarini soni yuz kishidan ortiq bo'lishi mumkin.

Rejissyorni konsepsiyasiga mos ravishda, tasvirga olinadigan obyektlarni tanlash birinchi bosqichda rassom lokeyshn-menedjeri bilan yoki faqat lokeyshn-menedjeri tomonidan amalga oshiriladi. Agar rassom, ko'rilgan obyekt talablarga javob beradi deb hisoblasa, uni ko'rishga

rejissyor, operator va ovoz operatori borishadi. Barcha obyektlar, ular qanchalik sahnalarni xarakteriga, kayfiyatiga, muhitiga mosligiga qarab tanlanadi. Lekin, bundan tashqari, texnologik nuqtai nazar bo'yicha ham.

Kasting, odatda, quyidagi sxema bo'yicha o'tadi. Rejissyor film qahramonlarini qanday bo'lishini kasting-direktoriga tushuntiradi va u mo'ljallanayotgan (taxmin qilinayotgan) aktyorlar ro'yxatini (fotosuratlari va demo-video) tayyorlaydi. Odatda, bitta rolga bir nechta davogar bo'ladi. Oldindan tanlangan aktyorlar bilan bog'lanib, o'rganish va eng asosiysi, ularni personaji kimligini o'ylab chiqish va bir nechta sahnalarni repetitsiya qilish uchun, ularga ssenariy jo'natiladi. Shundan so'ng, rolga davogar-aktyorlar studiyaga kelib, ular o'zini personajini qanday tasavvur qilishini gapirib berishadi va tayyorlangan sahnalarni namoyish etishadi.

Bu hammasi, keyingi muhokamalar uchun videoga yoziladi. Ba'zida, aktyorlarga birnecha marta kastingga kelishiga to'g'ri keladi. Bu kasting, budjetni imkoniyatlari bo'yicha tanlab olinadigan «A» toifasidagi "yulduzlar"ga bog'liq emas. G'arb kinematografida, yulduzlar bilan birinchi bosqichdagi muloqot quyidagi sxema bo'yicha bo'lyapti. Kasting-direktori aktyorni ishonchli vakili (agenti) bilan bog'lanib, uni bandlik grafigini aniqlaydi. Agar aktyor kerakli davrda bo'sh bo'lsa, agentiga ssenariy yuboriladi va aktyor, birinchi navbatda bu rolni unga qiziq yoki qiziqmasligi bo'yicha qaror qabul qiladi. Agar rol aktyorni qiziqtirgan bo'lsa, gonorar va mehmonxonalaridagi xonalar klassi, unga xizmat ko'rsatadigan avtomobil klassi va h.k. larni o'z ichiga olgan boshqa, shartlar bo'yicha savollar ko'tariladi. «A»toifasidagi yulduzlarni gonorari (ish haqi) bir necha millionlarga, ba'zida o'nlab millionlarga yetishi mumkin.

Yulduzlar kastingda ishtirok etishmaydi, lekin rejissyor bilan uchrashishadi va u ularga personaj qanday bo'lishini tushuntiradi. Aktyorlar tanlangandan so'ng ular bilan ssenariyni o'qish va repetitsiyalar o'tkaziladi.

Asosan bu studiyalarda amalga oshiriladi. Lekin, tasvirga olish maydonchalari tanlangan bo'lsa, murakkab saxnalashtirish ko'rinishlarni repetitsiyasi o'sha yerda o'tkaziladi, chunki amaliy xonalarda mizanssenalarni (aktyorlarni joylashishini) aniq belgilash mumkin. Har doim ham barcha sahnalarni repetitsiya qilishni ulgurish imkoniyatlari mavjud, shuning uchun rejissyor, birinchi navbatda eng murakkablarini tanlaydi. Parallel ravishda rejissyorni mutaxassislar bilan ishi o'tkaziladi. Guruh, har bir sahna qanday tasvirga olinishini: chiroqni qanday o'rnatish, kamera qanday harakatlanishi, qaysi paytda va qanday aktyorlar

harakatlanishni boshlaydi va h.k., yaxshi bilishi kerak. Agar, qaysidir obyekt ancha vaqt tasvirga olinadigan bo'lsa, unda haqiqiy (mavjud)isini qidirib yurmasdan, dekoratsiyalarni tasvirga olish pavilyonida qurishda ma'no bor.

Pavilyonda tasvirga olish, amaldagi interyerlarga nisbatan ancha yengilroq, chunki dekoratsiyalar chiroqni joylashishini va kamerani bemaol harakatlanishini hisobga olib quriladi hamda rejissyor va rassomni niyatini o'z ichida aniq gavdalantiradi. Ko'pincha, dekoratsiyalarni shipi (potolok) bo'lmaydi va operator yoritish asboblari bir qismini tepaga joylashtirish imkoniyatiga ega. Ayniqsa bu aktyorlarni orqadan yoritib beradigan (kontrovoy) nurlar uchun qulay. Ko'pincha, kamera va yoritish asboblari joylashtirish uchun, dekoratsiyalarda bu yoki boshqa devorni joyidan olib turish ko'zda tutiladi. Uchta devordan iborat dekoratsiyalar ham bo'ladi, va barcha tasvirga olish, yo'q bo'lgan to'rtinchi devor tomonidan olib boriladi. Qaysidir ma'noda bu texnologik tomondan qulay va 4-nci devorga sarflanadigan vaqt va mablag'lar tejiladi. Bunday dekoratsiyalarni TV-seriallarni ishlab chiqarishida tez-tez uchratish mumkin.


Tasvirga olish (prodakshn) - tayyorlash davriga qancha vaqt ajratilmasin, u har doim yetmaydi. Har holda, vaqtlimi yoki kechmi u tugaydi va ishlab chiqarish sikli s'yomka davriga o'tadi. Tasvirga olish davri eng qimmatli, chunki har bir tasvirga olish kunida texnika, rekvizit, tasvirga olinadigan xonalar ijaraga olinadi, qo'shimcha xizmatlar ishlaydi va aktyorlarni ish haqi, aynan tasvirga olish kunlarni soni bo'yicha hisoblanadi. Aynan shu uchun, tasvirga olish davrida uzaytirilgan ish kuni belgilanadi va ko'pincha bitta, bo'lmasa-ikkala dam olish kunisiz ishlashga to'g'ri keladi. (3.10- rasm)



3.10- rasm. Tasvirga olish jarayoni

Tasvirga olish smenalar kunning yorug' qismiga bog'langan. Ayniqsa, tabiatdagi tasvirlar, chunki xonalarda kun sun'iy yoritish bilan yaratiladi. Bir smenada foydali materialni ishlab chiqarish me'yori badiiy filmlar uchun 2 - 4 daqiqani tashkil etadi. TV mahsuloti uchun me'yorlar o'n marta ko'p bo'lishi mumkin. To'liqmetrajli badiiy filmni (ikki soatli) tasvirga olish davri 2 oy davom etadi. Bu mavzu prodyuser Syu Bertuistl va ssenariychi Syuzi Konklin tomonidan yozilgan «Kak snimali «Gordost i predubejdenie» kitobda yoritilgan. Unda, bir tasvirga olish kuni to'liq ko'rsatilgan bob bor.

Montaj – ovozlashtirish (postprodakshn) - davri tasvir olingan negativ tasmani proyavka qilib, undan pozitiv chop etishdan boshlanadi, so'ng raqamli formatga o'tkazish uchun, skanerlanadi. Keyin, raqamli material montaj qilinadi, ranglar tuzatiladi (svetokorreksiya) va maxsus effektlar qo'shiladi va h.k. (3.11- rasm)



3.11- rasm. Montaj va ovoz yozish jarayoni

Montajning mazmuni eng yaxshi dubllarni tanlab olib, keyinchalik alohida tasvirga olingan planlar bilan uzaro ulash. Ko'pincha to'liq dublni emas, uning qismini boshqa dublni boshqa qismiga ulagan holda olishga to'g'ri keladi. Montajni yoki sahnalashtiruvchi-rejissyor, yoki muxarrir amalga oshiradi. Texnik qismini (montaj dastgohlarni boshqarish) montajyor yoki montaj muxandislar bajarishadi. Oldinlari montaj, tasma o'ramlari qo'yiladigan maxsus montaj stolida qilinar edi. Montajyorlar tasmani maxsus pichoq bilan kerakli joylarda kesib, shaffof yopishqoq lenta bilan yopishtirishgan. Hozirgi montaj – roxatni o'zi. Oldingizda, montaj dasturi yoyilib ko'rsatilgan zamonaviy displey. Yuqorida, tasvir ko'rinadigan ekranlar, pasida kiritilgan materiallarni bir nechta qatori (lineykalari). Montajyor tasvirga olingan sahnalarni qismlarini onsonligicha kesadi, ulaydi, qisqartiradi, o'rnini almashtiradi. Tasvirli lineykalalar tagida ovoz yo'lakchalarini lineykalari bor. Shunday qilib,

tasvirni tagiga ovozni joylashtirish mumkin. Montaj bilan parallel tarzda ovoz bilan ish boradi.

Ovoz rejissyori, tasvirga olish vaqtida olingan barcha materialni, qaysinisini ishlatish, qaysinisini tuzatilishi kerak va qaysinisini yangidan yozish lozimligini aniqlash uchun eshitib chiqadi. Lekin brakni (buzilganini) studiya sharoitida qayta yozishga to'g'ri keladi. Agar bu aktyorlarni luqmasi (replika)da bo'lsa, aktyorlarni studiyaga taklif etishadi va ular bu yerda, ekrandagi tasvirga qarab, yangitdan kerakli luqmalarni gapirib chiqishadi. Bunda ularga ovoz rejissyori, yangi yozilgan luqmalarni to'liq sinxronligiga erishish uchun, ovozlar orasidagi tinishlarni qo'shib yoki olib, tasvir tagiga joylashtirib ozgina yordam beradi. Ba'zi holatlarda, brak (buzilish)larga bog'liq bo'lmagan holda, aktyorlar studiyada to'liq qayta yozib olinadi. Bunday jarayon ovozashtirish deb nomlanadi. Agar brak ovoz foniga tegishli bo'lsa, ovoz rejissyori fonogrammani brak qismini kesib olib o'rniga "yamoq" qo'yishga harakat qiladi. Agar fon shovqinidagi brak aktyorlar luqmasida yuzaga kelgan bo'lsa, unda nafaqat shovqin fragmentini almashtirishga to'g'ri keladi, ammo luqmalarni ham qayta yozilishi kerak. Fon shovqinlariga, masalan, shamol, oqayotgan (tomchilayotgan emas) suvni, yomg'ir shovqini, suv to'liqlarini urilishi, qushlar baqirishi (agar ular ko'p bo'lsa yoki ular kadrda bo'lmasa), olomon (tolpa) shovqini va h.k.lar kiradi. Fon shovqinlaridan tashqari, ovoz rejissyori sinxron shovqinlar bilan ishlaydi. Bularga, kadrda ko'rinadigan predmetlardan paydo bo'ladigan bo'lingan (qisqa) tovushlar. Masalan: eshiklarni qarsillashi, qadamlar, hayvonlarni tovushlari (hayvonlar kadrda bo'lganda) va h.k. Agar sinxron shovqinlarda brak (buzilish) bo'lsa, yoki ular ovoz rejissyorini qoniqtirmasa, ularni studiyada yozishga imkoniyat bor. Masalan, sinxron shovqinlarni yozadigan tegishli pavilyonni polida har xil: asfalt, qum, tuproq, shag'al va h.k.li alohida kataklar (seksiya) bor. Sinxron shovqinlarni yozishda ovoz rejissyoriga shovqin bo'yicha mutaxassislar (shumoviki) yordam beradilar. Lekin, studiya sharoitidagi yozuv, maydochada yozilgan tovushlarga nisbatan kamroq jonli bo'lib eshitiladi, shuning uchun ovoz rejissyori aynan maydonchadagini ishlatish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanadi. Ba'zida, ijodkorlar oldida sun'iy tovushlarni tanlash masalasi ko'tariladi. Ayniqsa, bu fantastik janridagi filmlarida tez-tez bo'ladi. Bunday ovozlar bilan, ularni ovoz sintezatorlari yordamida chiqarib olib va keyin ushbu ovozlarga ovoz filtrlari va plaginlar yordamida ko'p marotaba ishlov berib, tayyorlaydigan ovoz effektlari bo'yicha mutaxassislar shug'ullanadi.

Shovqinlardan tashqari ovoz rejissyori, fayllari bastakor tomonidan beriladigan, musiqiy yo'lakchalar bilan ishlaydi. Cholg'uchilarni jonli ovozlari va hattoki butun orkestr, studiyada yoziladi. Zamonaviy sintetik musiqa ovozlari ovoz sempl (tayyor bo'lgan alohida musiqiy tovush) lardan foydalanilgan holda kompyuterlarda chiqariladi. Luqmalar, fon va sinxron shovqinlar, ovoz effektlari, musiqalar – barchasi har xil yo'lakchalarda joylashgan va ovoz rejissyori tomonidan montaj kompyuterini ekranidagi tasvir bo'yicha oson qo'yib chiqiladi.

Ovoz qatori butun filmni yoki uni alohida bo'laklarini muhitiga salmoqli darajada ta'sir qilishi mumkin, va rejissyorlar hamda ovoz rejissyorlari undan to'liq darajada foydalanishadi. Oxirgi natijasida, hamma yo'lakchalar, luqmalar yo'lakchalaridan tashqari, bittaga tushiriladi (miksherlanadi). Filmni chet elga sotilishi va uni aktyorlar tomonidan boshqa tillarda ovozlashtirish imkoniyatini qoldirish uchun, luqmali (replika) yo'lakcha alohida qoldiriladi. Bunday ko'povozli aktyorlik dublyajida luqmalar faqat halaqit qiladi.

Tasvirni o'ziga kelsak, aytilgandek, unga kerakli maxsus effektlar kiritiladi va vazifalarga qarab, uni ranglari tuzatiladi. Barcha jarayonlar tugatilgandan so'ng tayyor raqamli film olinadi. Yuqori tiniqlikdagi film-rekorder yordamida film tasмага chop (bosma) etiladi. Tasмага shunday ovoz yo'lakchasi ham chop etiladi. Keyin sinov nusxalari ishlanadi, yana ranglar tuzatish va nihoyatda, etalon (asli) nusxasi chop etiladi. Undan yana nusxalar ishlanadi, va keyin ulardan namoyish etish (prokat) uchun adadi chop etiladi.

Nazorat savollari:

1. Rejissyor, operator va tasvirga olish guruhini direktorini lavozim majburiyatlarini ayting.
2. Kinematografda kinoprodyuser nima bilan shug'ullanadi?
3. Kino ishlab chiqarishi qaysi bosqichlardan iborat?
4. Tasvirga olish obyektlarini kim tanlaydi?
5. Ishlab chiqarish me'yori (norma) nima?

2. FILMNING XRONOMETRAJ JADVALI

2.1. Film xronometraji

Ssenariyni ekrandagi taxminiy davomiyligini baholashni oddiy uslubi bo'lib, ssenariyni chop etilgan bitta beti ekran vaqtini bir daqiqasiga teng degan taxmin bo'lmoqda, ammo faqat ssenariyni batafsil tahlili, xronometrajni haqiqiy qiymatini ko'rsatadi. Ssenariyni har bir sahnasini sekundomer bo'yicha o'ynatib chiqish, rejissyor ssenariysini xronometrajlashni eng muhim usuli bo'lmoqda. (4.1- jadval) Rejissyor, dramatik to'xtashlar (pauza)ni davomiyligini, mavzuni harakatchan rivojlanishini, avtomobillarni yurishlarini, manzarali kirish kadrlarni, otlardagi poygalar va h.k.lar davomiyligini qanchalik aniq hisoblasa, natija shuncha yaxshi bo'ladi.

Filmni ekrandagi taxminiy davomiyligini baholash – ishlab chiqarish jarayonini muhim bosqichi va u kelishuv boshlanadigan paytlardan biri bo'lishi mumkin. Badiiy filmni davomiyligini har doim ham oldindan aniqlab bo'lmaydi. Televideniya uchun yaratilayotgan filmlar, televizion setkasi (jadvali) dagi o'rniga aniq mos bo'lishi kerak, va demak – aniq xronometrajga ega bo'lishi kerak. Bu filmlar qat'iy kalendar-tasvirga olish rejasi bo'yicha yaratilishi va televizion ekranga, aniq, oldindan ajratilgan vaqtda chiqishi kerak. Filmni tasvirga olish uchun pullar, rejissyor ssenariysi, kalendar-sahnalashtirish rejasi tasdiqlangandan keyin va ular bo'yicha yakuniy smeta tuzilgandan so'ng kelib tushadi.

№	Plan. tasvirga olish usuli	Metraj	
1	2	3	
12	O'rta, C	3	Rustam v shlab chi uzish bos
13	Umum. S (yirikgacha navezd)	4	U dedi: k berib ko' lozim
4.1- jadval.			

Budjetni va kalendar - ishlab chiqarish rejasini tuzish bosqichini qismlarga batafsil katta e'tibor berib ko'rib chiqish lozim. Filmlar xronometrajining davomiyligi bo'yicha dunyo bo'ylab standartga aylanib qolgan o'rtacha normativi mavjud.

2.2. Ssenariyni personajlar va tasvirga olish joylari bo'yicha bo'lish

Tasvirga olishni boshlashdash oldin, ikkita bosh savollarga javob berish lozim: filmni yaratish uchun qancha vaqt kerak, va buni

sahnalashtirish qiymati? Boshqacha aytganda, kalendariy - ishlab chiqarish rejasi nima, va budget nima?

Aniqlanishicha, bu ikkala omil bir-biriga bog'liq holatda, va birini xohlagan o'zgartirilishi, ikkinchisiga ta'sir etadi. Demak, prodyuser yoki kartina direktori oldida turgan muammolarni hal etishga kirishganda, hammadan oidin, smetaga qanday yondoshish kerak va sahnalashtirish uchun qancha vaqt kerak bo'ladi. Aniq smetani tuzishni va film davomiyligini aniqlashni eng yaxshi uslubi shundan iboratki, ssenariyni aktyor (personaj)lar va tasvirga olish joylari bo'yicha adabiy yoki rejissyor ssenariysiga binoan bo'lish, agar u shu vaqtda tayyor bo'lgan bo'lsa.

Ssenariyni aktyor (personaj)lar va tasvirga olish joylari bo'yicha bo'lish – bu ssenariyni uni tashkil etuvchi qismlar va lavha(epizod)larga ajratish va har bir qismini, ishlab chiqarish nuqtai nazaridan sahnalashtirish uchun talablarni ko'rish maqsadida tahlil qilish. Shunday qilib, kadrni sodda yoki murakkab bo'lishini aniqlash mumkin. Aniq ma'lumki, kino olishda nisbatan murakkab kadr ko'proq vaqtni va mablag'larni talab qiladi. Eng sodda holda, elektr manb'asiga ulangan va tasvirga olish vaqtida harakatlanmaydigan, uzoq muddat yoritishsiz, statistlar va sahnalashtirish vositalarisiz va balki, ovoz yozishsiz kamera kerak. Tasvirga olish guruhi o'xshash kadrlarni ishlab chiqarish uchun eng kam sonli bo'lishi mumkin, va shuning uchun hammasidan ko'ra tejimli.

Shunday ko'rinishdagi kadrni, katta bo'lmagan sun'iy yoritishni qo'llab olishni oddiy misoli bu reklama roliklari uchun statik (harakatsiz) kadrlarni yoki har qanday janrlardagi filmlarga kiritiladigan manzarali s'emkalarini kadrlari.

Eng murakkab tasvirga olishda ulkan sahnalashtirish vositalari ishlatilishi mumkin. kamerani uzoq va murakkab, miqyosini (masshtablash) o'zgartirish, panoramalash, operator kranida tik ko'tarilish, har xil rakurslari bilan uyg'unlashgan holda kadr ichidagi harakatni tez rivojlanish harakatlari, ijrochilarni katta tarkibi va har xil maxsus effektlar bilan qo'llanilishi mumkin. Bunga o'xshash aniq misollarni «Vaterloo» yoki «Voyna i mir» kabi filmlardagi janglar lavhalarida, yoki xoreograf san'atini, ta'sirchan namoish tashkil etishda kaskadyorlarni murakkab qiliqlari bilan tenglashtirish mumkin bo'lgan «Vestsaydskaya istoriya» va «Xello, Dollli» kabi musiqiy filmlardagi raqsiar sahnalashtirilgan lavhalar bilan namoyon qilish mumkin.

Murakkab tasvirlar kompyuter orqali ham yaratilishi mumkin, qachonki murakkab sahnalashtirilgan kadrni alohida qismlari kompyuter dasturiga joylashtirililadi va keyinchalik, bir nechta alohida tasvirga

olingan ekspozitsiyalardan ma'lum davomiylikdagi ko'rinishni tuzish uchun, kadr ketidan kadr birga ulanganda. Tasvirga olish, qanday murakkablikga ega bo'lmasin, operator guruhi har bir kadr ustida to'liq kuchi bilan ishlashi kerakligi esida turishi lozim. Shunday qilib, yakunida aytish mumkin, rejissyor hayolini cheklovchi chegara bo'lib kadrlarni sahnalashtirishdagi murakkablik, budjetni oshib borayotgan hajmi bo'lmoqda.



4.1- rasm. Rollarga ijrochi tanlash, kasting jarayoni

Hujjatli film, odatda, oldindan kadrlashni, rollarni taqsimlanishini, badiiy eskizlarni, tabiatdagi joylarni aniq ko'rsatilishini, dekoratsiyalarni qurilishini yoki bosh planlashtirishni talab qilmaydi. Juda katta budjetli to'liqmetrajli badiiy film, ancha murakkabroq tuzumiga ega bo'ladi, chunki budjetni va kalendar-sahnalashtirish rejani o'zgartirilishi bir-biriga ta'sir qiladi, va bu jarayon, yuqorida ko'rsatilgan sxemadagidan uzinroq davrda davom etadi. Ta'minot yoki maxsus effektlarni yasash kompaniyalar xizmatlarini moliyalashtirish ham hisobga olinishi zarur, chunki ular o'z tashkilotlarini kalendar rejaları va tayyor mahsulotlarni topshirish muhlatlari bo'ladi. Ushbu murakkabliklarni tushunish uchun, tayyorlash davridagi ishlab chiqarish jarayonining alohida qismlarini ko'rib chiqish lozim.

Ssenariyni ishlab chiqish jarayonidagi birinchi qadam shundan iboratki, epizodlar va sahnalar sonini tahlil qilinishi lozim. Buning uchun, ssenariydan barcha tasvirga olish joylari ko'chirma qilinadi, har bir

ko'rinishni sahnalashtirish uchun qismlarni va talablarni batafsil aniqlash uchun, har bir obyektida olinadigan sahnalar ro'yxati tuziladi. Ssenariyni ishlab chiqishdagi keyingi qadam bu mazkur filmda s'yomkalarni taxminiy sonini hisoblab chiqish. Agar rejissyorni sahnalashtirish ssenariysi bor bo'lsa, sahnalar soni, ularni murakkabligi va uskunalarni o'rnatish uchun vaqt xarajatlarini, hamda kameralarni ko'chirishlar sonini, s'yomka vaqtida dekoratsiyalar va rekvizitni almashtirishni hisobga olib, tasvirga olish kunlarni sonini aniqlash qiyin emas.

Xuddi shunday, voqeani rivojlanishiga ta'sir qiladigan va ularni o'rnatishga va tasvirga olishga sarflanadigan vaqtni hisobga olib, asosiy kadrlar soni aniqlanishi kerak. Ushbu tahlildan har bir sahnani to'liq tasvirga olish uchun va bu sahnaga kiruvchi asosiy kadrlarni s'yomkasiga, hamda butunlay ishlab chiqarish uchun kerakli vaqt aniqlanadi. U har xil yordamchi ishlar va tabiatda to'g'ri keladigan ob-havoni kutish vaqti bilan qo'shilgan holda aniqlanadi.

«**Kadro-plan**» — bu tasvirga olish, sahnalashtirish va montaj birligi bo'lib, alohida olingan sahnani qanday qilib: bitta yoki bir nechta kadro-planlar bilan, harakatlimi yoki statik (harakatsiz) va h.k.lar, tasvirga olish bo'yicha rejissyorni va sahnalashtiruvchi-operatorni imtiyoz (ihtiyori). Masalan, ikki shaxs o'rtasidagi dialogni kinos'yomkasida, rejissyor, balki, uchta kadro-planda to'xtaydi: *A* shaxsni yirik plani, *V* shaxsni yirik plani va ikkala shaxs bor, umumiy plan. Sahnalashtiruvchi ssenariy ushbu kadrlarni ketma-ketligini montajda ko'rsatadi. Lavha ikki shaxsni umumiy plandan boshlanadi, keyin navbati bilan *V* shaxsni yelkasi ustidan olingan *A* shaxsni yirik plani va *A* shaxsni yelkasi ustidan olingan *V* shaxsni yirik plani, keyin *A* shaxsga qaytiladi, keyin *V* shaxsga, va keyin yana ikki shaxsni umumiy plani keladi.

Shunday, rejissyor ssenariysida oltita kadr va atigi uchta tasvirga olish kadro-plan rejalashtiriladi. Rejissyor yoki montajyor planlar sonini, navbat almashish tartibini o'zgartirishi mumkinligini esda tutish zarur, lekin oldindan tuziladigan kadrlash rejasi ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish uchun baribir zarur.

2.3. Rejissyor ssenariysidagi maxsus talablar

Rejissyor ssenariysidagi bu bo'lim ovozza, yoritishga yoki kaskadyorlar uchun maxsus effektlarga yoki ishida o'zicha qiyinchiliklar bor, xohlagan boshqa mutaxassislarni tegishli uskunalarni ishlatganda masalan, o'rgatuvchilarda hayvonlar bilan ishlaganda, texnik talablarni o'z ichiga oladi. Shu yerga, keyinchalik ko'rib qo'shimcha ishlashdan o'tishi lozim bo'lgan tasvirga olishga xarajatlar kiritiladi (hozir buni

kompyuterlar bajarmoqda). Shunidek, ssenariyda, xavfsizlik texnikasini ta'minlash bilan bog'liq yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar ko'rsatilgan bo'lishi va tegishli mutaxassislarga to'lovlarni ko'zda tutishi kerak. Har qanday harakat bilan bog'liq lavhani tasvirga olishda bo'ladigan tavakkalik (xavf-xatar) darajasini aniqlash kerak. Agar, xavf-xatarli vaziyat bo'lsa, u tasvirga olish maydonchasida ishlar to'g'ri tashkil etilishi va barcha ehtiyot choralari syomkalar boshlanishidan oldin albatta oldindan ko'rilgan bo'lishi kerak.

Bu qisqa eslatmalar rejissyor ssenariysi betlarida yuqorida keltirilgan edi. Har bir tasvirga olinadigan kadr, har bir lavha har tomonlama barcha jihatlarida ko'rilgan bo'lishi kerak. (4.2- jadval)

Ishlab chiqarish jarayonidagi keyingi qadam – bu har bir lavhani tasvirga olish uchun kerak bo'ladigan barchalarni kiritilishi lozim bo'lgan. rubrikalar ro'yxatini tuzish. Bu yerga barcha ijrochilar va tasvirga olish guruhini tarkibi kiradi. Kerakli uskunalar, rekvizitni ro'yxatini tuzish lozim, maxsus effektlar bo'yicha eslatmalarni, har bir s'yomkani ishlab chiqarish uchun muhim bo'lgan, barcha jihatlar bo'yicha ma'lumotlarni berish.

№	План, способ съемки	Мет. рам.		Ш.учи. мультика	Примечания
1	2	3	4	5	6
12	Ср., С	3	Надзиратель тюрьмы с непроницаемо равнодушным лицом копается в корзине с провинцией, принесенной миссис Адамс.		Камера с ОПФ, рельсы, тележка, спайдер
13	Общ. С (наезд на Кр.)	4	— ДА, ДА, — повторила с заметным акцентом по-русски миссис Адамс. — ЛЕНА ПРИСЛАЛА ТЕЛЕГРАММУ... — НЕ ПОНИМАЮ, — растерянно ответил Чичерин. — ЛЕНА? КАКУЮ ТЕЛЕГРАММУ? — он сидел в арестантской одежде за столиком у тюремной решетки, тянувшейся от пола до потолка, в комнате для свиданий...		Надзиратели — 2 Корзина с шампанским «Вдова Клико». Фрукты, Бенгальские огни Тюремные кружки — 2 шт.


4.2- jadval. Rejissyor ssenariysidan ko'rinish

Ssenariyda yozilgan yoritishni hisobga olish, va tegishli rubrikaga tasvirga olishni qachon boshlanishi va qachon tugatilishi lozim bo'lgan yaqlar kiritilishi kerak. Dekoratsiyalarni o'rnatish, keyinchalik kerak bo'lishi mumkin.

Zamonaviy kameralar, magnit yozuvlar va yangi texnologiyalar bilan tasvirga olishda, dekoratsiyalar qurilishini talab qiluvchi cheklovlar yo'q.

va bunday zamonlar allaqachon o'tib ketdi. Lekin bu studiyadagi ishlarda hech qanday afzalliklar yo'q degani emas. Qandaydir holatlarda dekoratsiyalar qurilib, pavilyonda o'ziga xos s'yomkalarni o'tkazish foydaliroq. (4.2- rasm) Bunday holatda arxeologik qazilmalarni va daraxtlar chakalakzori orasidagi katta bo'lmagan qo'yxona dekoratsiyalarini o'rnatish mumkin.

Dekoratsiyalar qurilishi zarurligi bo'yicha misol - «**Terminator 2**» filmini tasvirga olish – uch qavatli bino osmonga otilib ketishi lozim edi. Film uchun, kalendar-sahnalashtirish rejasida ko'rsatilgan vaqtda, faqat bitta to'g'ri keladigan bino topilgan va u ikki qavatli bo'lgan. Dekoratsiyalar yordamida uchinchi qavatni qurishga qaror qilindi, va so'ngra tasvirga olishda, uni portlatib yuborishdi.



4.2- rasm. Pavilyonda dekoratsiya qurilishi

Tabiatda tasvirga olishda hisobga olinadigan maxsus va nooddiy talablardan bittasi – ob-havoni ma'lum holati. Modomiki, ssenariyda yomg'irli kun yozilgan bo'lsa, ob-havoni kutish vaqti kalendar-sahnalashtirish rejasiga tasvirga olishni majburiy shart sifatida kiritilish kerak. Yomg'irli kunni, yomg'irni oldingi planda yaratayotgan yomg'irlashtirish mashinasi yordamida ko'rsatish mumkin, garchi bunda yomg'irli havoni to'liq samarasiga erishilmasa ham. Shunday mashinani borligi halaqit qilmaydi, ayniqsa tasvirga olish pavilyon ichida yoki tabiiy interyerda amalga oshirilsa.

Rejissyor V.Kliv tomonidan «Dvornik» filmini tasvirga olishda, ko'chada doim qor yog'ib turishi lozim edi. Odatda, Angliyada qor bo'lmaydi, bo'lsa ham, tez erib ketadi. Ssenariydagi naturada qor qoplama bo'lishi to'g'risidagi eslatmalarga amal qilish uchun, s'yomkalar, yomg'irlash mashinasi yordamida berilgan, «qor orqali» amalga oshirilgan, kameralar esa, fon sifatida uzunfokusli optika yordamida tasvirga olinayotgan derazalardan uzoqda joylashtirilgan. «Qor yog'ishi» butun tasvirga olish jarayoni mobaynisida davom etgan.

Kamerani ishlatilishida qanday qiyinchiliklar paydo bo'ladi? Hech bir tasvirga olish, harakatdan murakkabroq narsani talab etmaydi, shuning uchun, asosiy uskunalar buning uchun kerak bo'lgan barchasini ta'minlashi kerak.

Modomiki, tasvirga olish kunduzgi vaqtda, oddiy yorug' kun davomida olinayotgan bo'lsa, barcha ishlarni asosiy tasvirga olish guruhi bajarishi lozim va shuning uchun, ish vaqtidan tashqari ishlar yoki qo'shimcha ishchilar uchun to'lovlar qilinmaydi. Sahnalashtiruvchi – rassomni xohishiga ko'ra avtomobillar rusumiga va asosiy personajlarni libosiga alohida talablar bo'lishi mumkin.

Masalan, globus, qo'rg'oshin quticha va – voqealar rivojlanadigan, kerakli bezatilgan tabiatni bir joyi zaruriy rekvizit bo'lmoqda. Ammo, har bitta s'yomkani farqlamoq lozim va rejissyor ssenariysida oldindan yozilmagan qo'shimcha tasvirga olish ehtimolini taxmin qilinishi kerak. Rejissyorni sahnalashtirish ssenariysi tayyor bo'lmaguncha, ishni oldinga amaliy yurishishi mumkin emasligi endi tushunarli bo'lsa kerak. Kartina direktori, tasvirga olish uchun unga nima kerak bo'lishini aniq bilishi shart.

Hujjatli filmda, kartina direktori ssenariyni aktyorlar va joylar bo'yicha va barcha tushuntirishlarni kadrlash suratlari ketidan bo'ladigan holda bo'linishini ta'minlashi lozim. Mazkur ishni maqsadi, har bir kadmi suratga olish uchun kerakli bo'lgan barchasini hisobga olish uchun, ishlab chiqarish talablarini tahlil qilish. Tahlil qilinadigan omillar, repetitsiya va tasvirga olish jarayonlaridagi xizmat ko'rsatish tizimini o'z ichiga oladi.

Buning uchun, bog'lanib turish zarur bo'ladigan shaxslarni ruyxati bo'lishi kerak, har bir ish joyidagi texnika xavfsizligi bo'yicha muammolarni ko'rib chiqish, tasvirga olish joyiga yetkazish usullarini va transportda kirib borish yo'llarini aniqlash, tezkor aloqani nazarda tutmoq, ob-havo taxminini va tasvirga olishni tashkil etish bilan bog'liq ma'lumotlar olinishi kerak.

Rejissyor va bosh operator tomonidan yaqinda tasvirga olinadigan joylarni oldindan ko'rilishi, vaqtni va natijasida, pulni, tejash bo'yicha bosh usullaridan biri bo'lmoqda, chunki har bir joyda va har bir kadrda nimalar kerak bo'lishi bo'yicha ushbu mutaxassislarni tushuntirishlari va izohlari, ko'p narsalarni oldindan nazarda tutish imkonini beradi. Shunday uslubda yig'ilgan barcha ma'lumotlar – tegishli ro'yxatlarga kiritilishi va kerakli shaxslarga tarqatilishi lozim.

Bu nafaqat kalendar-sahnaga olish rejasini tayyorlashga, balki har kunli, barcha kerakli sahnalashtirish vositalarini, hatto aktyor xodimlarni s'yomkaga chaqirish bo'yicha har kungi habarlashlarni va kerakli transportga buyurtmalarni tayyorlash imkonini beradi.

2.4. Maxsus uskunalar ijarasi

Operatorlik va yordamchi texnikalar:


Operator aravachasi – eng keng tarqalganlari: «Espase» (Italiya) va uni o'zgartirilganlari (modifikatsiya), «Goblin» (Rossiya) – o'zgartirilgani bitta. Aravacha to'plami yig'ilgan aravachani o'zidan va relslar, mahkamlash anjomlari - takelaj (tortqichlar, qoziqlar va h.k.) va elektr yurgazuvchidan iborat. Kompyuter boshqaruvlik aravachalar bor, o'ta jihozlanganlari bor, lekin hozir ular ko'rilmaydi.



4.3- rasm. Tasvirga olish rels-telejkasi

Bilish shart, agar sizga ko'p burilishlardan yurishga to'g'ri kelsa - «Goblin»ni olmang, u burilishlar bo'yicha juda yomon yuradi (silkinadi va sakraydi). Ravon harakatni faqat «Espase»da olish mumkin. Relsli to'liq aylanmasini diametri 6 metr, oltita burilish seksiyasi. Relsli panoramalarni tahlash uchun, vaqt kerakligini esda tutish kerak, ayniqsa bu tabiatda tasvirga olishga tegishli. (4.3- rasm)

Operator kranlarini taxminan kran-mil va operator milni yuqori qismidagi maydonchasi-da o'tiradiganlarga bo'lish mumkin. Kran-millar xiima-xil bo'ladi – 1,5 dan 30 metrgacha. Umumiy tamoili – mil harakatlarini boshqarish qo'l bilan amalga oshiriladi, kamera va kamerani kallakchasini boshqarish – masofali, pultdan keltiruvchilar yordamida. Kamera



Tasvirga olish krani

kallakchalari 2-pozitsiyali va 3-pozitsiyali («ishchi» tekisliklar soni bo'yicha) bo'ladi. Kran-milni 3 kishi boshqaradi. Bu ish uzoq bo'ladi, shuning uchun ortish-tushirish, o'rnatish-yig'ishga kam bo'lmagan vaqt talab etiladi.

Operator o'tiradigan operatorlik kranlar, qoida bo'yicha, («Super Espase», «Cine Gib») operator aravachalari asosida qurilgan. Bugungi kunda, eng katta kranlardan biri – milini chiqish uzunligi 30 metr bo'lgan Minsk «Superkran»i, ijaraga olinishi mumkin.

Stedikam – harakatlanish vaqtida tasvirga olish uchun. (4.4- rasm) Bevosita sahnalashtiruvchi operatorga yoki maxsus tayyorlangan operator, «stedikamchi»ga kiydiriladi, ijaraga olinadi. Stedikamni qo'llash zarurati loyihani tayyorlash ishlari bosqichida sahnalashtiruvchi-operator va rejissyor tomonidan aniqlanadi. Stedikamni har qanday ishlatish holati oqlangan bo'lishi kerak. Stedikam yordamida tasvirga olish san'atiga sanoqlilar egaligidan tashqari, bu hali ham yetarlicha uzoq jarayon, va qimmat.



4.4- rasm. Stedicam

Maxsus texnika – alohida turdagi tasvirga olishlar uchun, maxsus buyurtma qilinadigan moslamalar. Ijara haqi har xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Yoritish uskunalari:


Yoritish uskunalari (chiroq). Asosiy universal tasniflash – yorug‘lik harorati bo‘yicha «oq» va «sariq» nurni farqlashadi. Yoritish asboblari chiqaradigan eng keng tarqalgan firmalar - «Desisti» (Italiya) va «ARRI» (Germaniya). Yorug‘lik tavsiflaridan biri – yorug‘lik harorati. Kelvin (K)larda o‘lchanadi. Uni maxsus asbob – kolometr bilan o‘lchash mumkin.

- «Oq nur»li – chiqishida 5500 K haroratli nur oqimini beruvchi yoritish asboblari. Taxminan shunday haroratga quyosh nuri ega. Bunday asboblarni nomi, ishlatiladigan lampalarni nomiga o‘xshash - HMI. HMI yoritish asboblari «sariq» lardan ancha qimmat.

- «Sariq» nurli - chiqishida 3200 K haroratli nur oqimini beruvchi yoritish asboblari. Taxminan shunday haroratga maishiy qizdirish lampalarni nuri ega.

Aynan shunday lampalar ularda ishlatiladi. Oddiy, qimmat emas, pand bermaydigan yoritish uskunasi. Aynan shunday lampalar ularda ishlatiladi. Amalda to‘xtovsiz ishlaydigan yoritish uskunasi. (4.5- rasm)

Nur (yorug‘lik)-kinoni asosi. Chiroqda tejashga qattiq harakat qilmang, va bu darhol tasvirda ko‘rinadi. Chiroq mo‘jizalar yaratadi – mayib majruh odamni chiroyliga aylintiradi, va teskarisi. Operatorni san‘ati aynan chiroq bilan «tasvirlash» san‘atida.



4.5- rasm. Yoritish proyektorlari

Grip – «mahkamlagich, mahkamlash» so‘zidan kelib chiqqan. Shunga ko‘ra, asosiy ma‘no – nomida. Bundan tashqari, tarixan vujudga keldiki, grip-odamlar, chiroq bilan samarali va qulay ishlash uchun effektli chiroq

filtrlari va boshqa «narsalar» bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Grip-uskuna to'plami iborat.

Nur filtrlari to'plami rangli haroratni va nur oqimini va kuchini o'zgartirishga imkon yaratuvchi har xil kompensatsiya filtrlari, effektlı (rangli) chiroq filtrlari, va «frost» deb nomlanadigan, nur oqimini stol ustiga qo'yiladigan lampaga kapron yopilganga o'xshab nur oqimini darrov ancha «yumshatib» va soyalarni kamroq zich qiladigan yoyib beradigan maxsus filtrlar.

Mahkamlovchi shtativlar (sistendlar), shunindek – teyplar (maxsus issiqlikka bardosh skotch-tasma)dan va qisqichlardan boshlab va har xil ekstender, kallakchalar kabi va h.k. tayyor narsalar bilan tugatgan holda boshqa mahkamlovchi inventar va moslamalar – ro'yxat katta. Bularga frost ramalari ham kiradi.

Nur oqimini maydonini yoki tavsifini o'zgartiradigan moslamalar – «flag»lar, to'rlar va «frost»lar (1, 0,5 yoki 0,25 diafragmani oluvchi), «kuk»lar – teshikchalar bor fanercha. Ijarasi smenali.

Elektroenergiya bilan ta'minlash – juda mas'uliyatli payt. Hammasidan yengilli – chiroqda muammolarsiz 100-200 kVt.gacha elektrenergiyasini onson olinadigan pavilyonda. Yomonrog'i – jihozlanmagan xonada tasvirga olishda - maishiy tarmoqdan kamdan-kam 15-20 kVt.dan ortiq olish mumkin. Tabiatda – umuman qiyin, lekin bu holatda generatorlar yordamga keladi (tabiiyki, tekinga emas.). Kichik generatolar, ko'chiriladigan, quvvati 5-15 kVt, o'rtacha generatorlar quvvati 40-60 kVt, qoida bo'yicha tirkamalar asosida. Katta generatorlar – bu kuzovida 100 va undan ortiq kVt quvvatini ishonchli beruvchi oddiy me'yoriy dizel-generator o'rnatilgan ZIL turidagi avtomobil. Bu orzudagi lekin eng qimmat variant. Ularni ijaraga olinadi.

Yorug'likka (nurga) ta'sirchanlik, ishlatiladigan va boshqa materiallar:

Kinotasma - kinoni, musiqiy va reklama kliplarini ishlab chiqarishda ishlatiladigan asosiy nurga ta'sirchan material. Tasvirni yuqori sifati bilan tavsiflanadi. Hozirgi paytda, amalda raqibiari yo'q, garchi HD tasmaji sifatga juda yaqinlashib kelmoqda. Kinotasmalarni ishlab chiqarishda jahondagi asosiy yetakchilar - «Kodak» (AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya), AGFA (Germaniya) va «Fudji» (Yaponiya) kompaniyalari.

Tasmani bilish kerak bo'lgan tavsiflari – turi, formati (o'lchami), nurga ta'sirchanligi, nur bo'yicha muvozanatlanganligi.


Tasma turi – negativ va aylantiriladigan (pozitiv), kontratiplarni tayyorlash uchun maxsus tasmalar va h.k. (4.6- rasm)

Format (o'lchami) – eng tarqalgan formatlar – 16 va 35 mm (tasmani eni);

Sezuvchanlik «chustvitelnost» – tasmani nurga qabul qilish bo'yicha sezgirligini tavsiflaydi. Sezuvchanlik qancha yuqori bo'lsa, tasma shuncha nurga sezgirliroq bo'ladi, va shunga ko'ra, uni me'yoriy ishlatish uchun kamroq yorug'lik kerak bo'ladi. ISO – 50, 100, 250, 400 ISO birliklarida o'lchanadi.

Nur bo'yicha muvozanatlik – tasmalar 5500 K yoki 3200 K yorug'lik harorati bo'yicha muvozanatlanishi mumkin. «Oq» nurga muvozanatlangan tasmada «T» belgisi bo'ladi, va 5500 K yorug'lik haroratidagi nurni oq deb qabul qiladi, 3200 Kni – sariq deb.

«Sariq» nurga muvozanatlangan tasma 3200 K yorug'lik haroratidagi nurni oq deb qabul qiladi, 5500 Kni – ko'k deb. 35 mm.li barcha tasmalar 305 va 122 metrli



4.6- rasm. Tasma

o'ramlarda chiqariladi, va bu tasmalarga, tegishliligi bo'yicha 10 va 5 daqiqali tasvirni me'yoriy tezlikda (soniyada 24 kadr) olishga imkoniyat beradi. 16 mm.li barcha tasmalar 122 metrli o'ramlarda chiqariladi, va bu 10 daqiqali tasvirga to'g'ri keladi.

35 mm.li negatív kintotasmani 305 metrli o'ramini taxminiy narxi – 600 AQSh dollari atrofida, 16 mm.ligini 122 metri - 140 AQSh dollari atrofida.

Muhim: tasma, harorat holati (rejim)ga, muayyan namlikga va h.k. rioya etilayotgan maxsus xonalarda saqlanishi kerak, shuning uchun faqat rasmiy dilerlardan, vakolatxonalardan yoki sertifikatlangan laboratoriyalardan xarid qilinishi lozim. Noto'g'ri saqlanayotgan tasma o'zini tavsiflarini yo'qotadi, birinchi navbatda yorug'likka sezuvchanligi kamayadi, buning ustiga sezilarli darajada vial (xiralik) paydo bo'ladi. Professional formatdagi videokassetalar (Betacam SP, SX, Digital, Digital S, DV, DV-Cam va h.k.)

Muhim: yangi videokassetalarni yopishib qolishini oldini olish uchun ishlatish oldidan «aylantirib o'rash» tavsiya etiladi. Bu -- uchrab turadigan hol!

Nazorat savollari:

1. Film xronometraji to'g'risida gapirib bering.
2. Rejissyorni (sahnalashtirish) ssenariysini ishlab chiqarish jarayoni nimadan boshlanadi ?
3. Rejissyor ssenariysida maxsus talablar.
4. Tasvirga olish uchun kerak bo'ladigan barchasini kim va qanday ta'minlaydi?
5. «Stedikam» nima?

3. Hujjatli filmlarni yaratish ketma-ketligi

3.1. Film g'oyasi

Asosiy ma'no shundaki, g'oya bo'lmasa, film ham bo'lmaydi. G'oya ko'p manbalardan paydo bo'lishi mumkin, lekin, asosan prodyuser, rejissyor yoki muallif ota-onasi bo'lmoqda. Ko'pincha, prodyuser o'zi boshlang'ich g'oyani taklif etadi. Ammo, odatda u o'zi ishongan va ular uning uchun obro'li bo'lgan, va o'z navbatida o'zi ham ular uchun obro'li odam bo'lgan mualliflar yoki rejissyorlarga murojaat qiladi.

Shunday qilib, shu yo'l bilan ko'pchilik muallif va rejissyorlar kinoga kirib keladi. Prodyuser bu bosqichda loyihani ishlab chiqishga qo'shilmaydi, lekin tasvirga olish bosqichida jalb qilinadi va guruh bilan va xususan, kartina direktori bilan birgalikda ishlab, barcha qarorlarni qabul qilishda katta ta'siri bo'ladi

Loyihani amalga oshirishdagi har bir keyingi qadam filmni asosiy konsepsiyasini aniqlashtirishi va butun loyihani yakuniy rivojlanishini belgilashi lozim. Bu esa, loyiha faqat ijodiy xodimlar tomonidan ishlab chiqilishi kerak emasligini bildiradi. Loyihani qiymatini aniqlash muhim, hech bo'lmaganda brinchi taxminda, va shunga ko'ra, oldingi moliyaviy smeta tuzilishi kerak.

3.2. Hujjatli film ssenariysi

Hujjatli va badiiy film orasidagi farqi aniq. Shunga qaramasdan, bu ikki ko'rinishdagi filmlar birgalikda dramatik va hujjatli filmlarni sintezi shaklida mavjud bo'lishi mumkin, agar uni ham va bunisini ham asosida amaldagi bor voqealar bo'lsa.

Birinchi holatda, voqealar sodir bo'layotganda tasvirga olinadi, (5.1-rasm) ikkinchisida – voqealar tiklanib, inssenirovka (uyushtirilib) qilinadi. Ikkala holatda ham, ssenariy asosiga bor voqealar olinadi. Badiiy film yoki boshqa dramatik asar – bu birinchi navbatda, voqea tarixini tasviri, keyin esa mualliflarni hayoli.

Hujjatli film har xil variantlarda mavjud, lekin mumtoz shaklida u, haqiqatdan amalda nima bo'layotganini o'z vaqtida kamera orqali belgilab qo'yish baxtiga erishib tasvirlash uchun, mo'ljallangan. Tasvirga olish jarayonida shunday bo'ladiki,



5.1- rasm

amalda ishlab chiqarish muhlatlari surilib ketadi, ayniqsa, estalik voqealarni va boshqa, keng va chuqurlashtirilgan holda tasvirianishni talab qiladigan voqealarni tasvirga olishda. Bunday hol, qoida bo'yicha, siyosiy mazmundagi loyihalarda bo'ladi, va bu hujjatli film yaratuvchilari uchun va demak kartina direktori uchun, ayniqsa, ishlab chiqarishni so'ngi bosqichlarida, muammo bo'ladi. Ko'pincha, tayyor bo'lgan mahsulotni topshirish muhlatlariga yaqin qolganda, tasvirga olish guruhini qo'shimcha xodimlar bilan to'ldirish va boshqa ko'zda tutilmagan o'zgarishlar bo'ladi.

Shuning uchun, oldindan qo'shimcha harakatlanishni barcha imkoniyatlarini aniqlash, tahririyatli muammolar paydo bo'lish ehtimolini va demak, batafsil qo'shimcha muzokaralar, hamda qo'shimcha yozma shartnoma va kelishuvlar ehtiyojini yo'q qilish, ikki karra muhimroq.

Hujjatli ishlab chiqarishda ko'plab janrlar mavjud, har bir hujjatli film yaratish bo'yicha o'zini stilistikasi va ijodiy uslubga ega, hamda o'zining narxi va kalendar-sahnalashtirish rejasiga ega. Eng eski mavjud bo'lgan uslublardan Flaetrini «Nanuk s Severa» va «Chelovek iz Arana» filmlari va Grirsonni filmlari bilan namoyish qilish mumkin bo'lgan. «odatdagi kamera» bo'lmoqda. Ushbu filmlarni ishlab chiqarilishini boshqarishda o'zini xususiyatlari bor edi. Keyinroq, yashirin kamera bilan tasvirga olinganligi uchun, qat'iy boshqarishni talab etmaydigan «Semeystvo»ga o'xshash televizion hujjatli filmlar paydo bo'ldi.



5.2- rasm

Hujjatli filmlarni

ko'pchiligi, kinoga olish uslubi bo'yicha va ishlatiladigan uskunalar, yoritish, tasvirga olish kunlarni soni, kinotasmani cheklangan hajmi (limiti) bo'yicha farq qiladi. Tasvirga olish guruhi, qoida bo'yicha, eng kam bo'ladi, lekin shunday bo'lishi mumkinki, u xolisona sabablarga ko'ra kattalashadi, ayniqsa, tasvirga olgan material ko'payib ketsa va tasvirga olingan materialni ajratish va yozib chiqish, hamda montaj uchun qo'shimcha vaqt kerak bo'lsa. Shuning uchun, bular hammasi hujjatli filmni kalendar-sahnalashtirish rejasini tuzishda va smeta o'lchamini aniqlashda hisobga olinadi.

«Jonli tabiat» to'g'risidagi animalistik hujjatli filmlar (5.2- rasm) – ehtimol, ishlab chiqarishni, o'ziga xos muammolariga ega, o'ziga xos, faqat o'z ishiga fidoyi odamlar band bo'lgan, eng ommabop va universal turi. Bu tasvirga olish joylarni qidirish, tabiiy vaziyatda tasvirga olishiz kerak bo'lgan hayvonlarni izlashga vaqt xarajatlari, mutaxassislar bilan maslahatlar, ekspeditsiya sharoitlarida chetlab o'tish imkoni bo'lmaydigan odamlarni ovqati va och qolgan hayvonlarni oziqlantirish uchun xarajatlar, tasvirga olish uchun kerakli atrofni o'raydigan fonni yaratish bilan bog'liq katta hajmdagi ish.



Shu barcha masalalar kartina direktori tomonidan hal

etilishi lozim. Masalan, «Sinyaya voda — belaya smert» (5.3- rasm) filmni prodyusserlari va tasvirga olish guruhi, ularni bo'lajak qahramoni – oq akula yashayotgan suv havzasini topish uchun, yer sharini yarmini tom ma'noda aylanib chiqishgan. Ular moliyaviy inqiroz chetida turishgan edi. Va ularni «kinoyulduzi» kutulmaganda o'zi namoyon bo'magunga qadar, tasvirga olish guruhidan hech kim ushbu vaziyatdan chiqish yo'lini topa olmagani. Lekin, bunday turdagi s'yomkalari uchun tegishli tarzda atrof-muhitni «tashkillashtirish» va nafaqat xavfli bo'lgan, ammo ko'p vaqtni oladigan, hayvonni yovvoyi tabiatda ushlashga urinishlarda, tejash imkoni bor.

Hujjatli kinoda oddiy uslub, kadr ortidan sharhlash – «kadr ortidagi ovozi» – nafaqat «Jonli tabiat» filmlarida, balki hujjatli ishlab chiqarishni boshqa janrlarida ham qo'llaniladi. Bu ayniqsa, tasviriy qatorni namoyish qilish qiyin bo'lgan dasturlar uchun foydali. Buning natijasida, faqat tasvir

orqali bajarilishi mumkin bo'lmagan qo'shimcha tushuntirishlar talab etiladi. Bunda, ishlab chiqarishni xususiyati shundaki, tasvirga olishdan so'ng, tasvirga olishni imkoni yo'q, noyob obyektlar to'g'risida ta'surot beruvchi suhandon matnini yozish foydaliroq.

Ehtimol, ishlab chiqarishni eng ketma-ketligi va oldindan etish mumkin bo'lgan turlaridan biri, «industrial» deb nomlanayotgan hujjatli film bo'lmoqda. Bunday film, odatda, o'zini biznesini oldinga surish maqsadida u yoki boshqa kompaniya tomonidan buyurtma qilinadi.

Bu janrni ikki xil ko'rinishi mavjud: ishlab chiqarishni iqtisodiyotini ko'rsatish yoki ishlab chiqarishni texnik salohiyatini tashviqot qilish. va naqd bo'lgan tasviriy material yoki tomoshabinga yetkazilishi lozim bo'lgan ma'lumotga bog'liq holda, keyinchalik ko'rinishi sag'al ozgina o'zgartiriladigan, ssenariy yaratiladi.

Bu filmlarda muallif izohi, tasvirdagi lavhalarni tasviriy qatorda bo'lmagan va suhandon tomonidan o'qiladigan «kadr ortidagi» matn bilan taqdim etiladiganlari bilan o'zaro bog'liqligini tushuntiradi. Hujjatli filmni bu ikkala janri rejissyor va kartina direktoriga tasvirga olish mazmunini va filmni ishlab chiqarish kalendar rejasini nazorat ostida ushlab imkonini beradi. Rejissyor har doim bo'lajak filmni mazmunini belgilaydi, ammo oddiy (o'rgangan) kamera bilan tasvirga olishda yoki «jonli tabiat» to'g'risidagi hujjatli filmlarda, mazmuni ko'pincha amaldagi materialdan tanlab olishga bog'liq bo'ladi.

Rejissyor, o'zini shaxsiy g'oyalarini va hayotiy muammolarga o'z munosabatini bayon etib, mualliflik filmni tasvirga olganda, kartina direktoriga bu holda ham, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishga qo'shimcha ma'suliyat yuklatiladi.

Hujjatli filmni, bir muncha eskirib qolgan eng arzon shakli, televideniyaning moliyaviy cheklovlari tufayli rivoj topdi — bu «Televideniya suhandoni» yoki «Gapirayotgan boshlovchi». (5.4-rasm) Bu filmlarni kompozitsiyasi, shunday filmni mazmunini o'zicha tashkil etuvchi intervyularni yaxlit qatoridan iborat. Ishlab chiqarishni bunday shakli nega nisbatan



arzonligini tushunish mumkin: asosan, ishlab chiqarish xarajatlari pardoziy-pastijyor maoshi va kichik tasvirga olish guruhiga ketadigan mablag'laridan iborat.

Hatto, agar hujjatli filmda qandaydir tarixiy voqealar to'g'risida gapirilayotgan bo'lsa, yengil yo'li mavjud – ushbu tarixiy voqealarni guvohlarini topish va ular bilan bir qator intervyularni tasvirga olish. Bunday turdagi filmlarni tasvirga olish yo tabiatda, yo tasvirga olinayotgan ishtirokchilarni shaxsiy uylarida bo'ladi va amalda, har bir bunday s'yomka o'zicha, salkam tugatilgan lavhani tashkil etadi. Uskunani o'rnatishga sarflangan vaqt. odatda har bir olinayotgan intervyu uchun bir soatni tashkil etadi, albatta, agar qandaydir ko'zda tutilmagan vaziyatlar paydo bo'lmasa. Bunga yana s'yomkani o'zi uchun ikki soat qo'shish kerak. Agar siz ishini ertalab boshlagan bo'lsangiz, endi choshgohda bo'sh bo'lasiz.

Shuning uchun, agar siz kelajakda yarim soatlik hujjatli filmda ishlatiladigan, har birini davomiyligi besh daqiqa bo'lgan intervyudan har kuni ikkitasini tasvirga olayotgan bo'lsangiz, unda barcha tasvirga olishga uch kun atrofida yoki yarim soatli filmni asosiy qismini tugatish uchun sag'al qo'proq vaqt talab etiladi.

Hujjatli filmlarni ishlab chiqarishda tasvirga olish guruhini ta'minlash xarajatlari budjetni bosh bandlaridan biri bo'lganligi uchun, qayd etish mumkinki, «*Televideniya suhandoni*» yoki «*Gapirayotgan bosh*» xilidagi hujjatli film teledasturni tuzishda, salohiyati bo'yicha ancha arzon shakli bo'lmoqda.

Hujjatli filmni xislati ishlab chiqarish uchun batafsil ishlangan ssenariyni rad etadi. Bu shundan kelib chiqadiki, amalda, o'sha paytda nima bo'lishini, siz uni ko'rish baxtiga ega bo'lganizda va shunda sizning kamerangiz ishlaydigan bo'lsa oldindan bilish mumkin emas.

Natijasida, Angliyada ko'pchilik hujjatli filmlar, mavzusi keltirilgan va tasvirga olishni amalga oshirish bo'yicha asosiy takliflar keltirilgan ssenariy buyurtmasi asosida olinadi. Ishlab chiqarish idorasi tomonidan, ishlab chiqarishni asosiy ko'rsatkichlarini belgilovchi batafsil hujjat tayyorlanadi. Taqdim etilgan ssenariy buyurtmasida hujjatli filmni janri va tasvirga olish uslubi belgilangan bo'lishi kerak. Dastlabki ssenariy taklifida tasvirga olishdagi barcha variantlar qo'shib olinishi kerak. Bu kartina direktori, tasvirga olish boshlanishidan oldin kalendar-sahnalashtirish rejasi va taxminiy budjeti bo'yicha aniq g'oyalarga ega bo'lishi uchun zarur. O'zbekistonda, hujjatli film faqat adabiy ssenariysi mavjud bo'lganda ishlab chiqarishga kiritiladi.

3.3. Buyuk Britaniyada ssenariy buyurtmasini tayyorlash

Hujjatli filmni ishlab chiqarishni o'ylab chiqilgan iqtisodiy baholashga ta'sir qiladigan barcha omillarni anglash uchun, qanday qilib ssenariy buyurtmasi aniq postanovkada ifodalanishi mumkinligini to'g'ri tushunish lozim. Britaniyada film ishlab chiqarish tizimi yuqori aniqlik bilan amalga oshiriladi. (5.5- rasm)



5.5- rasm. Tarixiy faktlarga asoslangan hujjatli filmni tasvirga olish (London)

Ssenariy taklifini asoslanishi hujjat ko'rinishida bajarilgan bo'lib, bo'lajak filmni mazmuniga mos bo'lishi kerak. Unda filmni nomi, filmni mavzusi, ssenariy arizasini bergan sanasi, ya'ni, kim tomonidan berilishi va ularning manzili. Bu shuning uchun kerakki, chunki televizion kompaniyalar yuzlab bunday ssenariy takliflarini oladilar. Keyingi betida, ssenariy taklifidagi kerakli hujjatlarni tez topish uchun, tegishli indeks bo'lishi kerak. Keyingi betlarda ssenariy arizasini asosiy mazmuni bayon etilishi kerak, uni mavzusini, badiiy g'oyasini, loyihani amalga oshirish uslublarini, rezyume yoki xomaki ssenariy bo'lishi mumkin bo'lgan dastur tuzilmasini sxemasi, filmni taxminiy budjeti (budjetni tuzish bosqichlari

keyinchalik batafsilroq bayon etiladi), va nihoyat, mazkur ssenariy arizasi bo'yicha har qanday qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Filmning davomiyligini belgilash lozim. Amalda, hammadan oldin, bu buyurtmachiga bog'liq. Dastur, odatda, reklama kiritilishi uchun 30 daqiqadan kam davom etadi. Dasturni davomiyligi uzluksiz namoyish etilish talabiga ham bog'liq.

Har xil mamlakatlarda bu talablar bir xil emasligi hisobga olinishi kerak. Balki, keyinchalik siz bilan tuzilgan kontrakt, filmni 30 daqiqa yoki 26 daqiqa va 20 soniya, bir soatli filmni 52 daqiqa 40 soniya davom etishini yoki bu davomiylikdan bir muncha farq qilishini aniq belgilaydi.


Ko'p seriyali filmlar uchun har bir alohida seriyasiga qo'shimcha nima kiritishini va nima oldingi seriyasidan takrorligini alohida betlarida ko'rsatish talab qilinadi.

Ssenariy arizasi, loyiha qanday amalga oshirilishi lozimligini tushunish uchun, moddiy-texnik vositalarga tegishli har qanday ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

3.4. Hujjatli filmlar byudjetini rejalashtirish

Buyuk Britaniyada hujjatli filmlarni ishlab chiqarish uchun budjetni tuzish jarayoni, mohiyati bo'yicha badiiy filmlarni byudjetini tuzishdagi opersiyalarni o'z ichiga oladi. Odatda barcha homiylar, hamma televizion kompaniyalar hujjatlarni o'zlarining shakllariga egaligiga qaramasdan, hujjatlarni xuddi o'sha shakllari ishlatilishi mumkin. Bu ikkala budjetlar orasidagi asosiy farqi yakuniy kalkulyatsiyani o'lchamidan iborat va shuning uchun u qanday olinganligini tushunish muhim.

Budjetni o'lchamiga ta'sir qiluvchi birinchi omil – u tufayli shu yoki boshqa film ishlab chiqiladigan kelishuv yuzaga keladi. Kasaba uyushmalar va Ishbilarmonlar Assotsiatsiyasi mustaqil kino ishlab chiqarishi bo'yicha kelishuvni imzolashdi. Bu kelishuvni qismi badiiy filmlarni tasvirga olish guruhlarini to'lov miqdori (stavka)larni qamrab olgan, va hujjatli filmlarni ishlab chiqish uchun alohida stavkalar miqdori bor. Bu kelishuv,



tasvirga olish guruhlar ishlaydigan, hamda ishlab chiqarish boshqariladigan muhlatlarni va shartlarni belgilaydi.

Muhlatlar byudjetga ahamiyatli bo'lgani uchun va ayniqsa, ular o'z ichiga ish soatlari, me'yordan ortiq ishlarni stavkalari, xizmat safari shartlari, yashash joylarini sifati, sog'liqni saqlash va texnika xavfsizligi, hamda ishchi brigadalarni moliyalashtirishga tegishli boshqa ko'psonli rubrikalari bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olgani uchun. Kelishuv nusxalari amaldagi mehnatga to'lash stavkalari bilan tadbirkorlar Assotsiatsiyasi va kasaba uyushmalar ihtiyorida bor. Ish haqini to'lashni amalga oshirilishi bo'yicha, asosiy kelishuv har xil stavkalarni belgilashini, lekin bu stavkalar, inflyatsiyaga monand ravishda har 6 oyda yangilanib borishini hisobga olish lozim.

Chunonki, bayon etilgan stavkalar eng kam ish haqi bilan kelishtirilgan bo'lsa, bu mutaxassislar uchun joriydagi stavkalar odatda, kelishuvda ko'rsatilgandan yuqori bo'ladi, va shuning uchun budjetda ko'rsatigan ish haqi, nihoyasida hisoblanganda har bir mutaxassisga alohida yondoshishga bog'liq bo'ladi. Bu xarajatlarni kalkulyatsiyalashni yagona usuli, xodimlar bilan, har birini joriy stavkasini aniqlash uchun, oldindan muzokaralar o'tkazish. Bunga o'xshash muzokaralar, ishlab chiqarishda ishtiroq etayotgan barcha odamlar bilan o'tkazilishi lozim. (5.6- rasm)

Eng yaqqol misol sifatida badiiy filmda asosiy kinoyulduzlar guruhi bilan o'tkaziladigan muzokaralar xizmat qiladi, lekin bunday hol hujjatli filmda ham bo'lishi mumkin, taniqli ijrochi proporsional baland to'lovni, yetarlicha asoslangan holda so'raganda. Lekin hujjatli kinomahsulotni budjetini tuzganda, budjetni xarajatlar qismida yuqori chegarasi rubrikasi mavjud emas. Har biri bilan alohida yoki agentlari bilan muzokaralar o'tkazilgandan so'ng keyingi muhim qadam bo'lishi kerak – yozma kelishuvni imzolash.

Ishlab chiqarish chiqimlarini, uskunalarni va kerak bo'lgan boshqa xizmat ko'rsatish vositalarni ijarasini kalkulyatsiyasi, ushbu xizmatlarni ta'minlovchi kompaniyalari bilan tarif stavkalarini muhokamasidan boshlanadi. Xizmatlar narxi ko'rsatilgan katalog (ro'yxat)lar har xil bo'ladi.

3.5. Buyuk Britaniyada hujjatli film byudjetini namunaviy loyihasi

5.1- jadval.

	<i>Ushbu byudjet studiyada 9 haftalik videotasvirga olishga asoslangan</i>	<i>Yig'indi (funt sterlingda)</i>
A	Ssenariy arizasi va ssenariy	700
B	Prodyuserga to'lov 30 hafta 460 dan	13 800
	Rejissyorga to'lov	14 000
	Muallifga to'lov	18 500
	ORALIQ SUMMASI	47 000
V	Ish haqi:	
	Sahna qurish brigadasi 900 x 30 hafta	27 000
	Tasvirga olish g'uruhi 2600 x 9 hafta	23 400
	Montaj guruhi 700 x 25 hafta	17 500
	Qo'shimcha 850 x 10 hafta	8 500
G	Badiiy bo'lim	7 500
D	Aktorlar; rollarni ijrochilari 600 x 6 x 2	7 200
Ye	Musiqqa; dirijer, musiqachilar	3 500
J	Liboslar va pariklar	3 400
Z	Har xil ishlab chiqarish zahiralari	1 200
I	Videotasmalar assortimenti 1:6 koeffitsiyenti bilan	2 000
	Laboratoriya xarajatlari	11 000
K	Studiya	8 000
	Montaj 500 x 24 hafta	12 000
	Avtonom (alohida) x 2 hafta	12 000
L	Tezkor tarzda (rejimda)	
M	Uskunalar 1700 x 9 hafta	15 300
	Ulanadigan elektr quvvati	8 000
N	Ekspeditsiyalarda transport: tabiatda studiyada	7 500 1 500
O	Mexmonxona: Tasvirga olish joyida yashash xarajatlari	11 000
P	Sug'urtalash	4 000
R	Kasbiy tasniflash standartiga binoan ijtimoiy ta'minot bo'yicha bo'nak to'lash	23 000

S	Reklama va zararlar to'lovi	1 000
T	Aralash xarajatlar	1 400
U	Dekoratsiyalar. Loyihalash:	
	Qurilish va dekoratsiyalarni o'rnatish	3 000
	Rekvizit/ Jihozlash (Obstanovka)	2 300
F	Guruhni tasvirga olish joyida ta'minlash	500
	ORALIQ SUMMASI	217 500
X	Yuridik xarajatlar	1 500
S	Ustama xarajatlar	4 000
	ORALIQ SUMMASI	5 500
	HAMMASI	270 000
	DASTURNI O'RTACHA NARXI	45 000

Nazorat savollari:

1. Film g'oyasini kim ishlab chiqadi?
2. Hujjatli kino janrlarini ayting.
3. «Gapirayotgan bosh» nima?
4. Hujjatli filmni davomiyligi qanday aniqlanadi?
5. Hujjatli film budjetini rejalashtirish to'g'risida gapirib bering.

4. BADIY FILMLARNI YARATISH KETMA-KETLIGI

*“Yaxshi filmni yaratish uchun siz uch narsaga muhtajsiz, bu – ssenariy, ssenariy va ssenariy!”
Gollivuddagi maqol.*

4.1. To'liq metrajli badiiy filmning ssenariysi

Bir kuni, mashhur amerika kinorejissyori **Djon Ford** filmi tabiatda suratga olayotganda, u bilan gaplashish uchun, tasvirga olish joyiga direksiyadan ikkita ijrochi prodysuserlar keldi. (6.1- rasm)

Suhbat vaqtida ular, tasvirga olish grafikga nisbatan uchkunlik kechikish bilan borayotganini va Ford vujudga kelgan vaziyatni to'g'rilash uchun nima qilishini direksiya bilmoqchiligini tushuntirishdi. Ford oldiga yordamchisini chaqirib, ssenariy nusxasini olib kelishni iltimos qildi. «Uchkunlik kechikishmi?» - so'radi Ford va ijrochi prodysuserlar javoban barobariga bosh liqillatishdi. Ford ssenariyni to'qqizta betini sanab, yirtib olib ijrochi prodysuserlarga: «To'g'ri, biz oldin grafikdan orqada edik»

deb, izohlab topshirdi. O'shanda, ijrochi prodyusserlar o'z idoralariga qaytishga va Fordga tinch ishlashiga yo'l qo'yishga majbur bo'lishgan.

Voqeani davomi birmuncha vaqtdan keyin sodir bo'ldi. Gollivuddagi ba'zi ssenariychilar Fordni ssenariyga bo'lgan beandisha munosabatidan g'azablangan, va o'sha paytdagi mualliflar gildiyasini Prezidenti Djozef Mankevich Fordga 9 ta toza varaq yuborib, oldingi rejissyor ssenariysini tiklashni talab qildi.

Bunga Ford oldingi ssenariyni muhimligiga qaramasdan, u faqat loyihani belgilashi va loyihada bo'lishi kerakga yaqinlashishi uchun, loyiha ishlab chiqarish vaqtida to'g'rilanadi, o'zgartiriladi va taqrizlanadi.

Lekin aniq ssenariy bo'lmasa, film ham bo'lmaydi. Achinarli, lekin tajribasiz rejissyor va prodyusserlar bu haqiqatga ko'pincha yuqoridan qarashi, va u, ishga jalb qilingan texnik personal tomonidan to'liq baholanmayotgani bu fakt.

Buni hammasini tushunish kartina direktori uchun o'ta muhimli, chunki u keyingi rejalashtirish uchun ma'lumotlarni ssenariydan oladi, va bu rejalashtirish rejissyor yordamida qilinishi kerak, chunki faqat rejissyor, ssenariydan nima qolishini va yakuniy natijada ekranda gavdalanishini biladi. Kartina direktori rejissyor ssenariysini ishlab chiqish bosqichida taklif etilishi va sahnalashtirish ssenariysi tugatilishi bilan, ishlab chiqarishda albatta ishtirok etishi kerak.



6.1- rasm. Kinorejissyor Djon Ford Koppola tasvirga olish jarayonida

Shuning uchun, asli adabiy ssenariy va rejissyorlik sahnalashtirish ssenariy orasidagi farqni tushunish muhim. Asli ssenariy, hammasidan

oldin, prodyusserlar va moliyachilar dastlab muhokama qilishi va baholashi mumkin bo'lgan adabiy variant sifatida mavjud bo'ladi.

Rejissyorlik ssenariysi tasvirga olish guruhiga qo'llanma bo'lib, texnik hujjat sifatida xizmat qiladi, shuning uchun u diqqat bilan lavhalar va sahnalar bo'yicha yozilgan bo'lishi kerak. Bo'lish bo'yicha aniqlik keyinchalik paydo bo'lishi ham, bo'lib turadi. Bu kartina direktoriga sahnalashtirish ssenariysini yozilish jarayonini diqqat bilan kuzatish va asosiy lavhalar va sahnalarga kabi, ikkinchi darajalilarga ham kerak bo'ladigan mablag'larni va qator texnik tafsilotlarini aniqlash imkonini beradi.

Endigina kirishgan ssenariychilarda muayyan intilish bor – adabiy ssenariylarni har bir sahnani butun tafsilotlari bilan yozish. Bu umuman kerak emas va kuchni bekor ishlatilishini namoyon qiladi. Ssenariyni o'qiydigan odam, buni qanday tasvirga olish bo'yicha yo'riqnomani emas, mazmunini o'qishni xohlaydi. Agar mualliflar o'zini shaxsiy ssenariy ishini rejissyorlashtirishga umidlangan bo'lsa, ularga, bundan ortiq, bu qanday tasvirga olinishi va sahnalashtirilishi bo'yicha batafsil yozma ko'rsatmalar kerak bo'lmaydi. Agar, ularni ssenariysi sahnalashtirishi uchun mustaqil rejissyorga berilsa, u holda hech qanday rejissyor, hech qayerda, o'zini filmi qanday qilib olishini oldindan gapirmaydi. ”

Shuning uchun, sahnalashtirish rejissyorlik ssenariyni film ustidagi ijodiy ishni oxirgi bosqichi deb hisoblab bo'lmaydi. Tasvirga olish jarayonida u aniqlashtirib va o'zgartirilib boradi. Har bir rejissyor uzining shaxsiy usuli va ish uslubiga ega va ko'pincha, harakatlarni eng ko'p miqdorda jamlash uchun ssenariyni qisqartiradi. Filmni montajida ham, butunlay film uchun zarar bo'lmagan holda alohida sahnalar va alohida kadrlar shunday qisqartiriladi.

Boshqa usul sifatida, qisqartirishlarsiz uzun ko'rinish (plan)lar bilan tasvirga olish bo'lmoqda.

Montaj ulanishlarsiz, uzun xaraktdagi ko'rinish (plan)lar bilan **Alfred Xichkokni** «Verevka»si, bunday filmni mumtoz misli bo'lmoqda.

Ishlab chiqarish hazinasida – umumiy planlarni s'yomkasidagi keng ko'rish burchagidan yirik planlarni olishdagi tor burchagigacha tasvirga olish uslublarini keng doirasi mavjud.

Venger Miklos Djansko — uzun planli panoramalash va yirik planlarga yetib kelish uslubini, an'anaviy umumiy va yirik planlardan iborat «kesilma»lar yig'masiga nisbatan ko'proq ishlatadigan boshqa rejissyor. Uning ijodiy usuli bir kadr davomida, tasvirga olinayotgan

personajga nisbatan yaqin yoki uzoqda keng satxda harakatlanish kuchli taassurotini yaratadi.

E'tiborni shunga qaratish kerakki, rejissyor ssenariysini muayyan qismi bir xil dekoratsiyalarida va xuddi usha tasvirga olish smenalarida olinishi mumkin. Bu tez-tez uchrab turadi va bunday misollarni ko'pchilik filmlarda ko'rish mumkin. Bunday ma'lumot ssenariyni tafsilotlarni hisobga olib personajlar va sahnalar bo'yicha bo'lib chiqishga birinchi qadam bo'ladi. Bunday holatda, har bir sahnani, har xil usullarda tartib raqamlari bilan belgilash lozim.

Ko'pchilik holatlarda, belgilash bir joyda boshlanib, ssenariyni bir qismidan o'tadi va aniq belgilangan joyda tugaydigan uslub ishlatiladi. Muqobil uslub, har bir aniq sahnani tasvirga olish planini tartib raqami bilan belgilash va tasvirga olish planini tartib raqamini sahna tartib raqamidan keyin joylashtirishdan iborat. Ushbu uslubni afzalligi shundaki, u kerakli sahnani qidirishni yengilashtiradi, hatto u ssenariyni o'rtasida bo'lsa ham. Qaysi uslub bilan foydalanish izdan qat'iy nazar, unga butun ishlab chiqarish davomida rioya qilinishi shart.

Birlamchi ma'lumotlar bilan ta'minlashdan tashqari, sahnalashtirish ssenariysi bosqichma-bosqich tasvirga olish jadvalini tuzish uchun ham zarur. Rejissyor ssenariysida tasvirga olish joylari, jalb etilgan aktyor xodimlar va texnikalar hisobga olinadi. (6.2- rasm)



6.2- rasm. Ssenariy ustidagi bahs

Rejissyor ssenariysi, kartina direktorlariga ishlab chiqarishni belgilangan tartibda tashkil etish uchun, amaliy ma'lumotlarni taqdim etadi, bu esa, o'z navbatida, faqat rejissyor tomonidan o'zini sahnalashtirish ssenariysida belgilangan tafsilotlar asosida qilish mumkin.

Bunda, shunday bo'lishi mumkinki, yulduzlardan ayrimlari, har xil epizodlarda tasvirga tushishi mumkin, lekin bitta joyda kartina direktori rejissyorni birinchi assistenti bilan, rejissyor har bir konkret s'yomkadan nimani xohlayotganini mutlaqo aniq bilishlari kerak. bu shu bilan muhimroqki, chunki bu yerda vaqt bo'yicha va aniq sahnani unda qanday tarkiblarni ishlatilayotganiga bog'liq bo'lgan tayyorlash murakkabligi bo'yicha farqlash bor.

Agar adabiy ssenariy ishlab chiqarish loyihasi sifatida mavjud bo'lsa, unda sahnalashtirish ssenariysi kompleks reja uchun batafsillashtirilgan asos sifatida mavjud, va bu rejaga xarajatlar hajmini hisob-kitobi va kalkulyatsiya bog'liq. Bunday turdagi xarajatlarni bo'laklari ko'p grafalar (ustun, katak) bo'yicha hisobga olinadi.

4.2. Badiiy film byudjetini rejalashtirish

Budjet filmlar ishlab chiqarish sohasida, har qanday loyihani hal qiluvchi hujjatlardan biri bo'lmoqda. Bu ayniqsa, xarajatlar ba'zida, chegaradan yuqori deb nomlanadigan, darajalarga yetadigan badiiy fillarni ishlab chiqarish sohasida sezilarli. Demak, bu xarajatlarda nima ustuvor ekanligini kerakli tarzda tushunib yetish lozim.

Umuman aytganda, boshlang'ich asosiy byudjetni tuzish kartina direktorini imtiyozi emas. Lekin kartina direktori vaqti-vaqti bilan kalkulyatsiya tuzishga va bo'lajak loyihani tayyorlanishini eng boshlang'ich bosqichlarida jalb etilmaydi deb bo'lmaydi.

Nima birinchi o'rinda: tovuq yoki tuxummi? – film konsepsiyasini aniqlashda odatda, yuzaga keladigan vaziyat: «nima birlamchi – moliyalashtirish hajmimi yoki film konsepsiyasimi».


Film ssenariysi yoki ssenariy arizasi ijodkorlari tomonidan deyarli har doim, beriladigan birinchi savol – mazkur filmni ishlab chiqarilishi qancha (pul) turishi mumkin. Unga javob berish uchun, ssenariyni dastlab tegishli tarzda tahlil kilib chiqish lozim. Bu o'z navbatida qator savollarni tug'daradi: kim shaxsan loyihani moliyalashtirmoqchi, va kim byudjet hajmini belgilaydi (ayniqsa, pullar hali ajratilmagan bo'lsa).

Bu – tajribali prodyusser uchun ham, va o'zini birinchi to'liqmetrajli filmi ustida ishni boshlayotgan prodyusseri uchun ham. Masala qanday yechilishiga bog'lanmagan holda, kartina direktori tayyorlash davrini boshlang'ich bosqichida loyiha budjetini ko'rib chiqishi zarur bo'ladigan vaqt keladi.

Sahnalashtirishni butun davrida moliyalar ketidan kerakli nazorat saqlanishi lozim, ammo buni, kartina direktori xarajatlarni oldindan

belgilangan miqdoriy ko'rsatkichlar bilan solishtirishga qodir bo'lganda, amalga oshirish mumkin.

Budget loyihasini ko'rib chiqishdan oldin, to'liqmetrajli filmni ishlab chiqarish xarajatlari o'zi, nimadan iboratligini tushunish zarur.



MOTION PICTURE ASSOCIATION OF AMERICA

6.3- rasm

Buyuk britaniyada ishlab chiqarish hujjatini birlamchi standart sifatida, Milliy Moliyaviy Korporatsiyasi (NFFC) tomonidan Filmlar ishlab chiqaruvchilarni buxgalterlari va Moliyaviy Administratorlar Gildiyasi bilan hamkorlikda taklif etilgan, ancha oldingi to'liqmetrajli filmni namunaviy budget nusxasi qo'llanilmoqda – bu namuna Britaniyani to'liqmetrajli filmlarni ishlab chiqarish sanoatida ishlayotgan ko'pchilik mutaxassislar tomonidan ishlatilmoqda.

Amerika filmlar ishlab chiqaruvchi firmalar (6.3- rasm) Assotsiatsiyasi kabi kompaniyalar va ayrim televizion kompaniyalar dasturiy ta'minotni ko'pchilik yetkazuvchilardan olingan moliyaviy kompyuter dasturlariga o'xshash, o'zlarini shaklaridan foydalanadilar. Mohiyati bo'yicha, bu bitta mavzuni har xil ko'rinishlari, lekin asosiy tuzilishi, hamma hollarda bitta ushani o'zi.

Va yana bitta, tushunish lozim bo'lgan jihat: agar budget shaklida bayon etilgan ma'lumot to'g'ri bo'lsa, unda filmni o'lchamidan qat'iy nazar, ushbu sahnalashtirilgan asarni narxlar rubrikalarni barchasi belgilangan tarzda bajariladi va yopiladi. Shunday qilib, boshida rejalashtirilgan byudjetni bajarilishiga erishish mumkin.

Nazorat savollari:

1. Adabiy ssenariyni asl nusxasi va rejissyorlik sahnalashtirish ssenariysining farqini ayting.
2. Badiiy filmni moliyalari ustidan nazorat qachon amalga oshiriladi?
3. Yaxshi filmni yaratish uchun nima kerak?
4. Kartina direktori kalendar-sahnalashtirish rejasini tuzish va rejalashtirish uchun ma'lumotlarni qayerdan oladi?
5. Montaj vaqtida alohida sahnalar va plan (ko'rinish)lar qisqartirilishi mumkinmi?

Uchinchi bo'lim

LOYIHANING XARAJATLARI VA DAVRLAR RIVOJI

Loyihani qiymatini, moliyalashtirishning asosiy manbasini imkoniyatlardan kelib chiqqan holda va faraz qilingan bozorda yakuniy mahsulotga bo'ladigan talabga qarab hisoblab chiqiladi. Albatta, bu doim ham o'zini oqlayvermasligi mumkin, biroq bunday yo'l tutish barcha mamlakatlarda optimal variant hisoblanadi.

I. ISHLAB CHIQARISHDA XARAJATLARNI TA'MINLASH

I.1. Qiymatni aniqlash

Loyihani amalga oshirish uchun mablag'lar qayerdan kelishini budjetni o'lchami aniqlaydi. Lekin, faraz qilingan va salohiyatli bozorlar ham ushbu budjet chegaralarini belgilashi mumkin. Ikkita omil – budjet va bozor – o'zaro bog'langan, shunday ekan, bir-biriga o'zaro ta'sir qilish samarasini yaratadilar. Ishlarni ma'lum turlari, o'zaro kelishuv bo'yicha, ixtisoslashgan korxonalarni texnologik imkoniyatlar chegarasida, kamroq moliyaviy xarajatlar bilan bajarilishi mumkin.

Masalan, kambudjetli badiiy film, ixtisoslashgan studiyalar bilan shartnoma tuzmaganda, odatda bir yarim million funt sterlingdan boshlab turadi va aniq bo'lmagan narxgacha ko'tarilishi mumkin. «Terminator» yoki «Park Yurskogo perioda» (3.1-rasm) mashhur filmlarni narxi 200 million funt sterlingga yetgan. Bunga, tasvirga olingan materiallarga qo'shimcha ishlov berishga qodir kompyuterlarni yaratish xarajatlari kiritilgan.

Ushbu omil, tabiiyki, ko'rsatilgan filmlar narxini oshirgan. Filmni an'anaviy texnologiya bo'yicha yaratish qimmatga tushishi mumkin. Masalan, «Kleopatra» filmi –bu, eng qimmat filmlardan biri. Uning narxi haliyam ro'yxatni tepasida. Ammo, hattoki yig'indisi ixcham 1-1,5 million funt sterlingga teng o'rtacha budjet, odatda, televizion kompaniyalarni moliyaviy imkoniyatlari chegaralaridan tashqari bo'ladi, va demak prodyusser, to'liqmetrajli badiiy filmlarni moliyalashtirish imkoniyatiga ega kompaniyalarga murojaat qilishga majbur bo'ladi.

Lekin bu televizion kompaniyalar badiiy filmlarni sahnalashtirish loyihalarida qisman ishtirok etish bilan qiziqishmaydi degani emas, masalan «Chetire svadbi i odni poxoroni» va «Mujskoy striptiz» filmlarida bo'lgani kabi. Boshqa tomondan, 40.000dan 50.000gacha funt sterlingli ekran vaqtini hajmi 30 daqiqa bo'lgan hujjatli filmlar, kamdan-kam badiiy kinofilmlar studiyasi tomonidan moliyalashtiriladi, va odatda, yaxshi hujjatli seriya, narxi bo'yicha kamxarajat badiiy filmni budjetli darajasiga

yetishi mumkinligiga qaramasdan, kerak bo'lgan pullarni o'zining televideniye studiyalaridan olishadi.



3.1-rasm. “Park Yurskogo perioda” filmni tasvirga olish.

Shuning uchun, agar loyiha faqat hali topilishi lozim bo'lgan moliyalash manbalariga asoslangan bo'lsa, yoki budjet o'lchami, keyinchalik qo'shimcha ishlanishi yoki o'zgartirilishi mumkin bo'lgan loyihani aks ettirayotgan bo'lsa, unda ushbu omillardan har qaysisi sizning loyihangizni yakuniy o'lchamiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Shuning uchun, hammasidan oldin, bo'lajak sahnalashtirishni moliyaviy baholashning asosiy omilini aniqlash zarur. Bu – mahsulotni sotish taxminiy bozori. U ishlab chiqarishga ishlatilgan mablag'larni qaytarish va tayyor kartinani namoyishi (prokat)dan so'ng amaliy foyda keltirishini aniqlashga imkoniyat beradi. Amaliy budjetni hisob-kitobi aynan shunga bog'liq. Sotish bozori konyukturasini va moliyalashtirishni amaliy manbalarini aniqlangandan so'ng, loyihani rivojlantirishga kirishish mumkin. Va bu keyingi qadam bo'ladi.

1.2. Loyihaning rivojlanishi

Bu g'oya haqiqatga aylana boshlanayotgan va qisqa xulosa (rezyume) shaklida yoki ssenariy mazmunini qisqacha bayoni ko'rinishida mavjud bo'lgan bosqichi. Bu bosqichda moliyalashtirish manbalarini qidirish amalga oshiriladi. Agar g'oya omadli bo'lsa, sizga yaxshi prodysser tomonidan qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi.

Agar, sizni guruhingiz a'zolari juft «Oskar»larga ega bo'lsa, siz, ehtimol, kerakli mablag'larni topa olasiz va uni batafsil ishlab chiqilganini taqdim etmasdan to'liqmetrajli filmni ishlab chiqarishini boshlay olasiz.

Ammo, bu ishda omadingiz kelmasa, sizda to'liq ssenariy va loyiha budjetida muhtojlik bo'ladi. Agar, shu vaqtgacha kartina direktori tayinlangan bo'lsa, yaxshi bo'lardi.

Bu bosqichida loyihani ishlab chiqishga jalb etilgan kartina direktori, shtatda bo'lishi majburiy emas. Odatda, uni kontrakt bo'yicha muayyan vaqtga yollashadi. To'liqmetrajli filmni prodyusseri, birinchi qadamidan boshlab, muallifga ssenariy yozgani va kartina direktoriga budjetni va xarajatlar smetasini tuzgani uchun haq to'lashga, moliyaga muhtoj.

Ushbu vaqtgacha, sahnalashtiriladigan loyiha salohiyatli kafildorlarga topshirilishi mumkin bo'lgan bosqichga yetib borishi uchun, moliyalashtirish manbasi uzil-kesil aniqlangan bo'lishi kerak. Hujjatli kinoda, filmni mazmuni va janriga qarab, prodyusser to'liq yozilgan ssenariyni talab qilmaydi.

Lekin hujjatlarni kafil bo'lganlarga taqdim etish zarurati paydo bo'lsa, faqat hoya tavsifini o'zi yetarli emas. Bu holda, g'oya va uni amalga oshirishi qancha turishi ko'rsatilgan va budjet loyihasi kiritilgan hujjatlar jamlanmasi tayyorlanishi kerak. G'oyani, kafolat beruvchilarga berilishi mumkin bo'lgan bosqichgacha ishlab chiqib, ishni keyingi bosqichlariga o'tiladi.

1.3. Ishlab chiqarishni moliyalashtirish

Teledasturlarni mustaqil ishlab chiqaruvchisini eng qiyin ishi deb filmni sahnalashtirish uchun moliya qidirishni hisoblash mumkin. Masalan, Richard Attenborga, «Gandi» filmni ekranda ko'rsatish oldin 10 yil kerak bo'ldi, lekin bu kam uchraydigan hol.

Boshqa misol - «Stariy Gringo». Djeyn Fonda bu film bilan 8 yil shug'ullandi. Bu prodyusserlar o'z ishida rekordchi deb tanilgan. Filmni ekranga chiqishini kechikishni ko'pchilik har xil sabablár bor. Ba'zida- bu siyosat.

Oliver Stounni «VZVOD» filmi, oxir oqibat Britaniya kompaniyasi tomonidan moliyalashtirilgan, chunki amerikalik moliyachilaridan hech kim, amerikalik tomoshabinlar uchun og'riq bo'lgan bu mavzu bilan bog'lanishni xohlamagan.

Ba'zida - bu rollarni taqsimlash. Shunday, masalan, «Unesennie vetrom» filmi uchun bosh rolga to'g'ri keladigan ijrochini uzoq muddat topisha olmagan. Devid O. Selznik aktyor Klark Geyblni olish uchun MGM bilan tezkor kelishuv tuzishga majbur bo'lgan, shu bilan birga, bu Skarlett rolini qoyilmaqom qilib ijro etgan Viven Lini topishidan oldin bo'lgan.


Baʼzida – bu mazmuni. Agar moliyachilar, film yetarli muvaffaqiyatga ega boʻlmasligini tushunib qolishsa, ular pullarni loyihadan chiqarib olishni boshlashadi, va eng tang paytda boʻnak (avns)ni qaytarilishini talab qilishlari mumkin. bu prodyusser barchasini yangitdan boshlashi zarurligini anglatadi.

Aktyorlarni rolini toʻgʻri taqsimlash muhim. Sigurni Uiver, masalan, ommada «Chujoy» seriyasi bilan fikran bogʻlanadi, xuddi shunday Silvester Stallone — «Rokki» filmi bilan bogʻlangandek.

Filmni hajmiga qarab, hujjatli film direktori toʻliq ish haftasi band boʻlmaydi, agar bu filmlarni katta seriyasi yoki katta xronometrajli film boʻlmasa. Badiiy va undan koʻproq seriyali filmda toʻliq bandlik boʻlishi mumkin. Hujjatli kartina direktorini, zarurat boʻyicha, budjetni keyingi ishlab chiqarishga tayyorlash uchn vaqti-vaqti bilan yollash mumkin.

Loyihani amalga oshirishda qanday toʻsiqlar chiqishi, uzoq vaqt mobaynida, gʻoya oʻzini material mujassamlantirganda maʼlum boʻladi. Bu boshlangʻich davri davomiyli va baʼzida boshqarilib boʻlmaydigan.

Kafolatchilar, ular qanday boʻlmasin, gʻoya ular uchun nisbatan shaffof va tushunarli boʻladigan batafsil ishlab chiqarilgan kontrakt va sizni izohlaringiz (eksplikatsiya)siz, naqd pulni berishmaydi. Bu esa, odatda, uzoq davom etadigan muzokaralarni bildiradi. Bu muhokamalar, balki, koʻp odamlarni jalb etar: moliyachilarni, kinoyulduzlarni, mualliflarni, rejissyorlarni va prodyusserlarni, «Gandi» filmi butun ishlab chiqarish davrida aralashib kelgan Hindiston hukumatiga oʻxshash tashqi tashkilotlarni.



3.2-rasm. Kinoteatr.

Kelishilayotgan taraflar muayyan bitimga kelishishi zarurligidan tashqari, buning barchasi, ishlab chiqarish boshlanishidan oldin, tegishli bayonga shakllantirilishi lozim.

Kartina direktori barcha muzokaralarga jalb qilinmasligi bo'lishi mumkin, lekin bunda kelishilgan o'rinlar to'g'risida u bilishi muhim, va bundan yaxshirog'i – qo'lida kelishuvni yozma ko'rinishi bo'lishi.

Qachondir Semyuel Goldvin aytgan og'zaki kontrakt qog'ozga yozilganiga arzimaydi degan va bu bilan hamma kartina direktorlari uchun har tomonlama haqiqatni ifoda qildi.

Agar kafolatlovchi so'zlarida ishlab chiqarishni moliyalashtirishga rozi bo'lgan bo'lsa, bunga standart yozma bildirish xatisiz, kontrakt uzil-kesil imzolanmaguncha, va sizning bo'lajak filmingizdan birinchi kadr ekranda ko'rsatilmaguncha, to'liq ishonish mumkin emas. (3.2-rasm) Agar, hattoki televizion kompaniya filmni o'zi moliyalashtirishga rozi bo'lgan bo'lsa va u tomonidan albatta uni tasvirga olishi aniq bo'lsa ham, kontrakt imzolanishi majburiy.

Siz qattiq tushunishingiz va har doim esda tutishingiz kerakki, agar moliyachilar bir narsani, uni yaratilish oldidan xarid qiladigan bo'lsa, ular oxirgi natijada va'da berilayotganini olishiga mutlaqo ishonishi lozim.

Ular doim rioya qiladigan qoida shundan iboratki, pullar ishlab chiqarishni rejalashtirilgan bosqichlari bajarilishiga qarab, qismlab berib boriladi. Odatda, bu kontrakt imzolanishida - summani uchdan biri, uchdan bir qismi – asosiy s'yomkalar boshlanganda, va yakunlovchi qismi – keyingi ishlab chiqarishda (postproizvodstvo).

Ba'zida to'lovlar tayyor mahsulotni topshirish vaqtida amalga oshiriladi.

Prodyusser va kartina direktorini vazifalardan biri naqd pullarni kelib tushish rejasini tuzish. Katta sahnalashtirishlarga, balki bu maqsadlarga buxgalterni taklif etilishi mumkin.

Bilmoq lozimki, to'liq metrajli filmlarni ishlab chiqarish uchun, odatda ixtisoslangan ishlarni bajaradigan mas'uliyati cheklangan kompaniyalar tuziladi yoki televizion kompaniyalar bu ishlarni bajarishni mas'uliyati cheklangan boshqa mustaqil kompaniyalarga topshiradi, agar hattoki bu kompaniyalar hujjatli (yuridik) himoyalaniish nuqtai nazaridan past darajada bo'lsa ham.

Kafolatchilar, kompaniya uzil-kesil shakllantirilmagan bo'lsa ham, birinchi imkoniyatda bankda maxsus hisob raqamini ochish uchun, ularni pullari to'g'ri ishlatilayotganiga ishonch hosil qilishlari kerak.

Va nihoyatda, ishlab chiqarishni moliyalashtirish kuni keladi, pullar sizning firmagizni hisob raqamiga tushiriladi, va shu paytdan boshlab filmni amalda ishlab chiqarilishini boshlasa bo'ladi. Mana shu dastlab

ishlab chiqarish (predproizvodstvo) bosqichi yoki tayyorgarlik davri bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Gollivudni eng katta xarajatli filmlarni ayting.
2. Bo'lajak filmni moliyaviy baholashdagi bosh omil.
3. Badiiy film bo'yicha ish boshlanishida prodyuserni birinchi bo'ladigan xarajatlarini ayting.
4. Qanday sabablar bo'yicha filmni chiqishi kechiktirilishi mumkin?
5. Kontrakt og'zaki yoki yozma bo'lishi kerakmi?

2. REJALASHTIRISHNING BOSH HUJJATI VA TASVIRGA OLISH JADVALINI TUZISH

2.1. Asosiy (bosh) rejalashtirish

Ko'rinishlar bo'yicha yozib chiqilgan ssenariy, ishlarni keyinchalik davom ettirishda kerak bo'ladigan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Oldin aytilganidek, barcha ma'lumotlar tuzilmalaridan bittasi asosiy (bosh) rejalashtirish bo'lgan kalendar-sahnalashtirish rejasida mujassamlanadi.

Mohiyati bo'yicha, bu Buyuk Britaniyada bo'laklarga ajratadigan, har biri uchun kerak bo'ladigan sahnalashtirish vositalarni xususiyatlari bo'yicha har xil ko'rinishlarni solishtiradigan, bir-biri bilan kesishgan grafik. Ammo, grafikni tuzish uchun birlamchi ma'lumotlarni olish kerak.

Birinchi qadam ko'rinishlarni tasniflash va s'yomkalar navbati jadvalini tuzish bo'lmoqda. Birinchi ro'yxat jadvalga kiritilgan har bir ko'rinishni tasvirga olish ketma-ketligini o'z ichiga oladi. Keyingi ikkita ramz(simvol)lar (ye) – tabiatni yoki (i) interyerni va (d) – kunni yoki (p) – tunni bildiradi.

Ba'zi kartina direktorlari e'tiborini ssenariyda ko'rsatilgan kunduzgi vaqtga qaratadi, chunki bu s'yomkalar ketma-ketligini ish kunini boshlanishidan uni oxirigacha yozib chiqishga yordam beradi. Keyin, ko'rinishni nomi yoki s'yomka joyi, asosiy qahramonlar, ikkinchi darajali qahramonlar, maxsus effektlar va rekvizit ko'rsatiladi.

Maxsus effektlar bo'limiga miltiqdan o'q otishlar, yirik planda olinayotgan jarohatlarni paydo bo'lish effektlari, qon, portlashlar, tuman, shamol berish va yong'irlash mashinalari va olinishi kerak bo'lgan xohlagan effektlar kiritiladi.«Zvezdnie voyni» filmidagi lazerli elektron zambaraklar bilan o'qqa tutish kabi maxsus effektlar, s'yomkalardan keyin maxsus laboratoriyalarda qo'shimcha ishlanadi.

Rekvizit, smena davomida ijrochilar tomonidan ishlatiladigan barcha narsalarni o'z ichiga oladi: (2.1- jadval) avtomobildan oziq-ovqatlar, chamadonlar, ro'znomalar, televizorlar, musiqiy asboblarga, ziyofatlarni tayyorlash (masalan «Drakula» filmi uchun) bizni ssenariyda – qo'rg'oshinli boks, krisstalli globus va arxeologik qazilmalarni o'tkazish uchun uskunalarini.

2.1- jadval.

№	Tasvirga olish joyi	Bosh qahramon	Ikkinchi darajali qahramon	Maxsus effekt	Rekvizit
1	Shimoliy Devon	Richard Melani			Richardni avtomobili
2	Shimoliy Devon	Richard Melani			Richardni avtomobili
3	Arxeologik maydon	Richard Melani	Djeni Devid		Richardni avtomobili
4	Arxeologik maydon	Richard Melani	Djeni Devid 2 arxeolog		Maydon uskunasi
5	Arxeologik maydon	Richard Melani	Djordjiya Arxeolog		
6	Ko'prik ostida maydon oldida	Melani			Medvejonok Teddi. Kitob, Ko'zgu. Lab pomadasi
7	Maydon oldidagi dalalar	Melani Merlin			Billur shar
8	Maydon oldidagi daraxtli tepalik	Melani Merlin			Billur shar Qo'rg'oshinli quticha Tirnoqlar uchun arracha
9	Institutga kirish	Richard Melani	Djenni Oxrannik		Richardni avtomobili
10	Qo'riqlash xizmati	Richard Melani	Djenni Oxrannik		Melani sumkasi

11	Kris ofisi	Melani Richard Kris	Endryu Djenni		Qo'rg'oshinli quticha
12	Kris ofisi	Richard Melani Kris	Endryu Professor S.		Telefon
13	Kris ofisi	Kris Melani Richard	Djenni Endryu Professor S Texnik Oxrannik		Telefon
14	Arxeologik maydon	Richard Melani	Djeni Devid 2 arxeolog		Maydon uskunasi Qo'rg'oshinli quticha
15	Institutga kirish	Richard Melani	Djeni 2 qo'riqchi		Richardni avtomobili
16	Qorovulni joyi	Richard	Djeni		Melani sumkasi
17	Interyer yo'lak	Richard	Djeni		Gul tuvak

Kalendar – sahnalashtirish rejasi endi bo'lajak s'yomkalar joyida o'tkaziladigan ishlarni ketma-ketligi, kadro-planlarni tasvirga olish navbatlari, guruhlarga ajratilgan kadro-planlar kiritilgan qo'shimcha jadval bilan to'ldirilishi kerak.

Birinchi sxemada nafaqat, birga olinadigan 2 va 6,9,13 va 16 sahnalar bo'ladi, shuningdek, ssenariyda keyinroq joylashgan ba'zi ko'rinishlar, chunki bu kadro-planlar asosiy sahnalar olinadigan o'sha joylarni o'zida olinadi. 107 ko'rinish 1 ko'rinish ketidan bo'ladi, va 108 ko'rinish 6 va 3 ko'rinishlar orasida guruhga ajratiladi, chunki 108 ko'rinish 6 ko'rinishga o'xshash va demak ularni birga tasvirga olish mumkin, chunki ular amalda bir xil sahnalashtirish vositalarni o'z ichiga olgan.

Ishlarni o'tkazish bo'yicha barcha grafik loyihalari, ishchi hujjatlarga aylanishidan oldin, idora (ofis)ni tegishli mutaxassislari bilan kelishilgan bo'lishi kerak.

2.2. To'liq metrajli badiiy filmni tasvirga olish grafiginu tuzish

Vaqt – pul. (maqol)

Rejissyor ssenariysini qahramonlar va s'yomka joylari bo'yicha bo'lib chiqish orqali, kerakli ma'lumotlarni olib, bosh rejalashtirishni va ishlarni tezkor grafikinu tayyorlash mumkin.

Grafik (jadval) – bu barcha ishlar tugatilishiga qadar, har bir ish kuni davomida nima bajarilishi kerakligini, batafsil aks ettirilgan hujjat. Grafikdagi eng muhim sana. Bu kontraktida ko'rsatilgan tayyor mahsulotni buyurtmachiga topshirish sanasi.

- Tayyor mahsulotni topshirish sanasi – asosiy sana.

- Asosiy qoida (ko'rsatkich barmoq qoidasi): tasvirga olish (s'yomka)ni har bir davriga ikkita tayyorlash davri va uchta montaj-ovozlashtirish (tonirovochniy) davrlar to'g'ri keladi.

- Shunday qilib, agar film 1 yanvarda topshirilishi kerak bo'lsa, lekin tasvirga olish davri to'rt hafta davom etsa, unda demak, montaj davri oxirgi holatda 1 oktabrda boshlanishi kerak. Tasvirga olish 1 sentabrdan kechikmasdan, tayyorlash davri – ushbu sanadan ikki oy oldin boshlanishi kerak. Agar, qanchadir qo'shimcha vaqt bo'lsa, uni tayyorlash davriga ishlatish yaxshiroq. Lekin, hech qanday holatda, filmni topshirishni oxirgi sanasini ko'chirilishi mumkin emas.

“

2.3. To'liq metrajli filmlarni kalendar-sahnalashtirish rejasi

Butun film uchun, tasvirga olish davrida har bir tasvirga olish maydonchasida bo'layotganlarni aks ettirilishi lozim bo'lgan kalendar-sahnalashtirish rejasini tuzganda, butun guruhga ushbu ma'lumotlarni taqdim etish uchun, oldinda turgan ishlar mazmunining qisqacha bayoni bilan ushbu rejaning nusxasi, olinishi kerak.

Ishga diqqat bilan tayyorlanish uchun, har bir ishtirokchi har kuni nima qilishi lozimligini bilishi kerak. Har qanday ish kuni uchun batafsil ma'lumotlar, s'yomkaga bir kun qolganda va oldingi ish kuni tugamasdan oldin jo'natilishi lozim bo'lgan, aktyorni s'yomkaga chaqirish kundaliq bildirishnoma ko'rinishida rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

Tasvirga olish guruhi va ijrochilarga, ular uchun muhim bo'lmagan batafsil ma'lumotlarga kirib bormasdan va aksincha, s'yomkada ular nima qilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni so'rab olish mumkinligi ancha yaxshi.

Bu birinchi navbatda, ishlab chiqarishni boshlanishida uchrashishgan shtatdan tashqari texniklar g'uruhlariga taaluqli. Ularga, qoida bo'yicha, asosan doimiy ish kunli shtatdagi xodimlar band bo'lgan sanoat sohalarida shakllangan ishchi munosabatlarni o'rnatish kutiladi. Shuning uchun,

ularni ishiga yetarlicha samarada yordam beradigan ma'lumotlarga beparvo bo'lmasdan, ushbu materiallarga bo'lgan ularni qiziqishini rag'batlantirish kerak.

Kinofilmlarni tasvirga olayotganlarni hammasiga ma'lum, tasvirga olish maydonchasida ish ssenariyda yozilgan ketma-ketligida olib borilmaydi. chunki buni ko'pincha bir qator sabablarga ko'ra amalga oshirib bo'lmaydi. Ishlab chiqilgan kalendar-sahnalashtirish grafigi orqali tasvirga olishni unumliroq navbatini aniqlash juda muhim.

Har kungi ketma-ketligi va navbati eng maqbul bo'lishi kerak. Kompyuter dasturlari yordamida bunga tez va oson erishish mumkin. Bunday dasturlar dasturiy ta'minot bilan shug'ullanadigan, kinobiznesiga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan, har xil kompaniyalar tomonidan yetkazib beriladi va mashhur savdo ma'lumot beradigan kitob (spravochnik)larda reklama qilinadi.

Kalendar-sahnalashtirish rejani dasturiy planlashtirishni amaliy ustuvorligi shundan iboratki, yagona: «Agar bunday qilsa, unda nima bo'ladi?» savolni berib, har xil variantlarni ko'rib chiqish mumkin. Dasturlar juda tez kalendar-sahnalashtirish rejasini va budjet loyihagini tuzishdagi har xil variantlarni samaradorligini ko'rsatadi.

Oddiy kalendar-sahnalashtirish rejasini boshida (betni tepasida) film tasvirga olinayotgan kompaniya nomi joylashtiriladi: shunday qilib bu reja kimga tegishligi belgilanadi. Undan keyin, filmni, balki o'zgartirilmaydigan ishchi (shartli) nomi, grafikdagi alohida ko'rinishlarni chegaralovchi kalendar reja loyihagini raqami, hujjatni chiqarilgan sanasi va rejissyor ssenariysi raqami joylashtiriladi.

Kalendar-sahnalashtirish rejasini sarvarag'i ketidan sarlavhalar chizig'i keladi: SANA, rejissyor ssenariysini ko'rsatilgan qismini tasvirga olish sanasini bildiradi; SAHNANI TARTIBIY RAQAMI (SC. №), qo'shimcha o'z ichiga sahnalashtirish ssenariysidagi kadrlarni tartibiy raqamlarini oladi; ESLATMA (D/N), bu sahna olinadigan vaqt (kunduzi yoki kechasi); SAHNA, ssenariydagi ko'rinishlarini tasvirga olish elementlarga bo'ladi; ROLLARNI TAQSIMLASH, qahramonlarni kim qaysi sahnalarda band tamoyili bo'yicha tuzilgan ro'yhati; va maxsus talablar (SP.REQS) – bu mazkur sahnani olinishi mumkin bo'lmaydigan, har qanday muhim qismlarga o'ziga xos eslatma. Ba'zida, bu sarlavha (rubrika) ikkita paragrafga bo'lingan bo'ladi, ulardan biri MAXSUS TALABLARNI tasvirleydi, boshqasi – ZARUR BO'LADIGAN VOSITALAR. Birinchisiga, odatda, texnik xodimlar shamol va tutun mashinalari, operator aravachasi va relslar, reostat qurilmalari, tashqi ovoz

karnaylari yoki boshqa o'ziga xos texnik qurilmalar kerakligini aniqlash uchun murojaat qiladilar

Boshqa maxsus talablar, odatda tasvirga olishda ishlatiladigan rekvizitga tegishli, qandaydir ovqat. chamadonlar, qurollar va ssenariyda yozilgan boshqa narsalar, shu jumladan, maslan billur shar. Bu yerga grimga bo'lgan har qanday maxsus talablar joylashtirilishi mumkin: detektiv yoki sarguzasht filmi uchun «qon», pichoqlar yoki o'qdan olingan yasama jarohatlar va boshqa o'xshash tafsilotlar. Lekin bu yerga faqat mazkur sahnada mavjud bo'lgan maxsus talablar kiritiladi. Boshqa alohida maxsus talablar, xususan, ijrochilar tarkibiga taaluqli bo'lganlari, s'yomkaga chaqirish xabarnomaga kiritiladi.

Grafikni ortiqcha ko'p sonli tafsilotlar bilan to'ldirib tashlamaslik uchun, barcha ma'lumotlar va s'yomkani o'tkazish uchun zurrur bo'lgani orasida muvozanat bo'lishi kerak.

Tayyorlash davri quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- rejissyorni tanlash,
- "yulduzlar"ni tanlash (kasting),
- boshqaruv mutaxassislarini (ijodiy va ma'muriy) jalb qilish va tasvirga olish guruhiga a'zolar olish,
- tasvirga olish rejasini, grafikni (kalendar-sahnalashtirish plani) ishlab chiqish,
- ishlab chiqarishni smetasini tuzish,
- sahnaga olish obyektlarini tanlash.

Studiya tomonidan yollangan rejissyor ssenariy bilan tanishadi va ssenariy bo'yicha o'z ko'rishini va g'oyasini studiya bilan muvofiq lashtiradi. Agar hammasi studiyani qanoatlantirsa, rejissyor ishlab chiqarishni bosh ijrochi shaxsi bo'lib qoladi va tayyor natija – film uchun javob beradi.

Rejissyor tasvirga olish guruhi a'zolarini o'zining konsepsiyasi bilan tanishtiradi, unga kerak bo'lganini qanday tasvirga tushirmoqchiligini tushintiradi. Uning ko'rsatmasi bo'yicha kadrlashtiruvchi – rassom kadrlashtirishni (storyboard) amalga oshiradi. U surat ko'rinishida bo'lishi mumkin, yoki maxsus kompyuter dasturlari yordamida tuzilib, 3D animatsiya filmini qo'rinishida bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, rejissyor har bir sahna, har bir plan qanday tasvirga olinishi batafsil yozilgan rejissyor ssenariysini yaratadi. Storyboard va rejissyor ssenariysi, mutaxassislarga rejissyor kadr dan nimani olmoqchiligini tushunishda yordam beradi.

Rejissyorni yechimi asosida, har bir mutaxassis rejissyorni o'ylab qo'ygan fikrini amalga oshirish yechimini o'ylab chiqadi. Boshqa so'zlar bilan: mutaxassislarni har biri rejissyura bilan shug'ullanadi. o'z sohasida va o'zini vositalaridan foydalanib, operator chiroq bilan, joylashishi, kamerani harakati, rassom sahna tasvirga olinadigan jihozlarni tashqi ko'rinishi, liboslar va grim bo'yicha rassom - personajlarni tashqi ko'rinishi bilan.

Ovoz rejissyori, kerak bo'lgan muhitni yanada ko'proq kuchaytirish uchun sahna ovozini shakllantirishni o'ylab chiqadi. Agar rejissyor bu yerda musiqani ishlatishni rejalashtirayotgan bo'lsa, bastakor, sahnani tavsifidan kelib chiqib, partiturani o'ylab chiqadi.

Nazorat savollari:

1. Asosiy (bosh) rejalashtirishni birinchi qadami nimadan iborat.
2. Kelajakdagi badiiy filmning rekviziti nimadan iborat?
3. Kalendar-sahnalashtirish rejasi o'z ichiga nimalarni oladi?
4. Kino s'yomkalarini sermahsul navbatini kompyuter dasturlari yordamida rejalashtirish mumkinmi?

3. TELEVISION HUJJATLI VA BADIY FILMLARNING BYUDJETI

3.1. Filmning smetasi va byudjeti

Yaratilayotgan filmning smetasini (Yevropa yoki Amerika davlatlari filmlari byudjeti) tuzishdan avval quyidagilarni hisobga olish kerak:

1. Tuzilayotgan smetaga, har qanday filmning tasdiqlangan (rejissyorlik) ssenariysi asosida zarur bo'lgan **barcha** xarajatlar (hozirgi va kelajakda kutilayotgan) kiritilishi lozim.

2. 1-p. kelib chiqqan holda tuzilayotgan smetaning real ko'rinishini faqatgina kino ishlab chiqarilishidagi professional mutaxassis bajara olishi mumkin.

3. Smeta film yaratilish jarayonidagi asosiy ishtirokchilar va barcha manfaatdor shaxslar tomonidan kelishilgan hamda imzolangan bo'lishi kerak.

4. Smetaning (budjetning) barcha qismlari asoslangan va hujjat shaklida rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim.

5. Jismoniy va yuridik shaxslarning barcha shartnomalari hamda kelishuvlari, smetaning tasdiqlanishidan oldin rasmiylashtirilgan bo'lishi shart.

6. "Namunali (shablon) smeta" tushunchasi bo'lgani bilan, har bir film uchun alohida o'zining smetasi tuzilishi kerak.

7. Smeta – bu maxfiy bo'lgan ichki foydalanish uchun mo'ljallangan hujjat. Turli kinostudiyalarda va har xil yillarda tuzilgan smetalarni tenglashtirish noto'g'ridir, shuningdek, boshqa davlatlar bilan ham tenglashtirib bo'lmaydi.

8. 6-p.da keltirilgan iboraga qaramay smetaning asosiy tuzilish prinsiplari bir-biriga juda o'xshash.

3.2. Hujjatli filmlar xarajatining asosiy bo'limlari

I- Bo'lim. Ssenariy xarajatlari

1. Adabiy ssenariy va diktor teksti.
2. Diktor tekstining tarjimasi.
3. Maslahatchi.
4. Diktor tekstini o'qish.

II- Bo'lim. Oylik maosh va ustama

1. Oylik maosh va ustama.
2. Ustama (20% - 30%)

III- Bo'lim. Moddiy xarajatlar

1. Videokassetalar.
2. DVD disklar.
3. Boshqalar.

IV- Bo'lim. Sexlarning xizmatlari

1. Ovoz texnikasi xizmati.
2. Montaj xizmati.
3. Tasvirga olish texnikasi xizmati.
4. Maxsus yoritish xizmati.

V- Bo'lim. Tashqi korxanalarning xizmatlari

1. Transport xarajatlari.

VI- Bo'lim. Xizmat safari xarajatlari

1. Kunlik (sutochniy).
2. Turar joy.
3. Transportda yurish.

Jami xarajatlar:

Fond jamg'armasi (30%):

Jami smeta qiymati:

3.3. Badiiy filmlar smetasi xarajatining asosiy qismi

I- Bo'lim. Ssenariy xarajatlari

1. Adabiy ssenariy.

2. Bastakor xizmati.
3. Qo'shiqga musiqa bastalash.
4. Yozilgan sherlar uchun.
5. Oranjirovka uchun.
6. Qo'shiqchilar uchun.
7. Ssenariy tarjimasini.

Nachisleniya: (20% - 30%)

II- Bo'lim. Oylik maosh va ustama

1. Shtatdagi xodimlar maoshi.
2. Shtatdan tashqari xodimlar maoshi.
3. Bosh rol aktyorlari ish haqqi.
4. Ikkinchi darajali aktyorlar ish haqqi.
5. Epizodik rollar va massovka uchun ish haqqi.
6. Postanovkachi tasvirga olish va dublyaj guruhi ish haqqi.
7. Ovoz berish jarayonidagi aktyorlar ish haqqi.

Nachisleniya:

III- Bo'lim. Moddiy xarajatlar

1. Videokasseta.
2. DVD disk.
3. Boshqalar

IV- Bo'lim. Sexlarning xizmatlari

1. Ovoz yozish texnikasi.
2. Tasvirga olish texnikasi.
3. Maxsus yoritish xizmati.

V- Bo'lim. Tashqi korxonalarining xizmatlari

1. Transport.
2. Fotoxizmat.
3. Tasvirga olish joylari ijarasi. (8.1- rasm)
4. Ovoz yozish zali.
5. Maxsus avtomat mashinalarni ijaraga olish.
6. Kostyumlarni ijaraga yoki sotib olish.
7. Rekvizit.
8. Mobil aloqa xizmati.
9. Kserokopiya.
10. Mebel ijaraga yoki sotib olish.
11. Kanselyariy mollari.
12. Dekoratsiya.
13. Grim uchun materiallar.
14. Xo'jalik mollari.

15. Tasvirga olish texnikasi arendasi.
16. Maxsus avtotransport.
17. Medikamentlar.
18. Go'zallik saloni va sartaoshxona.


VI- Bo'lim. Sahnaviy materiallar xarajati

1. Operator uchun materiallar.
2. Rassom uchun materiallar.
3. Liboschi uchun materiallar.
4. Naturada qo'shimcha dekoratsiya qurish.
5. Ishlatilib ketadigan rekvizitlar.

VII- Bo'lim. Ekspeditsiya xarajatlari

1. Tasvirga olish guruhining yashash joyi.
2. Transport xarajati.
3. Kunlik (sutochniy)

Jami xarajatlar: __



3 1- rasm. Ijaraga olingan tasvirga olish pavilioni

3.4. Tasvirga olish guruhi tarkibi (Buyuk Britaniya misolida)

3.1- jadval.

Administratsiya	
Prodyuser	Ikkinchi prodyuser
Ishlab chiqarish boshlig'i	Kartina direktori
Ishlab chiqarish koordinatori ¹	Xisobchi
Prodyuser assistenti	Reklama rejissyori
Arxiv izlovchi	
Yuqoridagilarning yordamchi sekretarlari	
Tayyorgarlik (pre-prodakshn) davri	
Postanovkachi rassom	rassomlar
Asosiy ijrochilar	Ikkinchi darajali rollar ijrochilari
Natura tanlashda assistent	
Kostyumlar bo'yicha rassom	Modeler
Rejissyor-aktyorlar tanlashda	
Dizayner-kostyum va dekoratsiya bo'yicha	Ishlar bajarilishi bo'yicha administrator
Butaforiya va rekvizit	Oboychi-drapirovkachi
Dekoratsiya qurilishi bo'yicha konstruktor	
Ishlarni taqsimlash rahbari	Ishchilar
Injener-loyihalashtiruvchi	Duradgor
Malyar-rassom	Suvoqchi
Speseffektlar bo'yicha rahbar	Speseffektlar bo'yicha texnik
Speseffektlarni maketlash, programmalashtirish bo'yicha	Maketlar quruvchisi
Dekoratsiya quruvchilari	Fon yaratish bo'yicha
Injener-elektrik	Sim ulovchi
O't o'chiruvchi-navbatchi	
Turli qurilish ishlarini loyihalashtiruvchi mutaxassis	Qurilish ishlarini montajchilari
Tasvirga olish davri	
Aktyorlar — EQUITY (aktyorlar birlashmasi a'zosi «EKVITI»)	
Massovka ijrochilari, stislar (profsoyuz FAA/BECTU)	
Kaskadyorlar guruhi — «EKVITI» a'zosi	
Rejissyor	1- rejissyor assistenti

¹ — Prodyuser assistenti

2- rejissyor assistenti
Ssenarist-raskadrovkachi
Yoritish chiroq utasi - operator
Operator assistenti - fokusda

Sahna ishchilari rahbari
Ovoz rejissyori

Naturada menedjer
Reklama fotografi

Maxsus yoritish rahbari
AEU

Elektriklar — AEU profsoyuz
Grimer-pastijer
Spetsseffektlar rahbari va
spetsseffektlarni boshqaruvchi
xodimlar

3- rejissyor assistenti
Videotexnik
Kinooperator
Rejissyor yordamchisi
«xlopushkada»
Operatorlik telejkasi ishchisi
Mikrofon operatori
Tex. personal – ovoz bo'yicha

Filmning reklamasi bo'yicha
jurnalist
(Bosh elektrik) — profsoyuz

Chiroq ustalari
Parikmaxer va kostyumer
Spets. personal (pirotexnik,
butaforchi -- qurol yaroq bo'yicha
mutaxassis va boshqalar)

Tasvirga olish guruhini moddiy taminlash
(shartnoma asosida)

Shef-povar

Oshxona xizmatchilari

Transport haydovchilari

Tasvirga olish guruhiga qo'shimcha ta'minot

Tasvirga olish apparatlari mexaniklari, ovoz yozish texnikasi
mexaniklari va zarur maxsus ishchi guruh

Montaj, ovoz yozish, tonirovka davri

Montaj rejissyori

Montajchi

1- assistent montaj bo'yicha

2- assistent montaj bo'yicha

Qayta yozish montajchisi

Qayta yozish montajchisi assistenti

Qayta yozish ovoz rejissyori

1- assistent ovoz bo'yicha

2- assistent ovoz bo'yicha

Operator ovoz yozish bo'yicha

Ovoz yozish bo'yicha xodimlar

Kinomexanik

Musiqa redaktori

Musiqachilar --- profsoyuz MU

Plyonka obrabotkasi, pechat

Laboratoriya texnik xodimlari, kinokompaniyaga aloqador bo'lmagan
maxsus xodimlar. (buyurtma)

Nazorat savollari:

1. Smetani tuzishda nimalarni xisobga olish kerak?
2. Hujjatli filmlardagi asosiy xarajatlarni aniqlang?
3. Original musiqa qaysi yo'nalishda (hujjatli, badiiy) ishlatiladi?
4. Diktor teksti qanday filmlarda ishlatiladi?
5. Hujjatli yoki badiiy film yaratilishida mebel sotib olish mumkinmi?
6. Ustama xarajat deganda nimani tushunasiz?


4. ISHLAB CHIQRISHNING TAYYORGARLIK DAVRI

4.1. Byudjet va kalendar rejani tuzish

Kartina direktori uchun byudjet va kalendar rejani tuzish ishlab chiqarishdan oldin bajarilib muhim vazifa hisoblanadi. Shuning uchun ham ishlab chiqarishdagi barcha jarayonlar hisobga olinib, kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan taxminiy xarajatlarni ham o'ylab qo'yish kerak bo'ladi. Ba'zi hollarda kartina direktori kalendar rejani yoki budjetni filmning ishlab chiqarish muddati boshlanishidan bir kun oldin tuzishi ham uchrab turadi. Chunki ishlab chiqarish boshlangunicha ko'pgina narsalar mavhum holatda bo'ladi yoki tuzilayotgan rejalarda turli o'zgarishlar ro'y berib turadi. Shuni unutmaslik kerakki ishlarni rejalashtirish ketma-ketligida birinchi o'rinda bajarilishi kerak bo'lgan, ustunlik qiladigan ish yo'q, ya'ni bu degani barcha ish birday muhimdir. (4.1-rasm)

Byudjetni tuzish bilan birga kalendar reja ham tuziladi. Shu paytdan boshlab film ishlab chiqarish jarayonining asosiy bosqichi bo'lgan – butun

ijodkor va ishchi xodimlar tarkiblari, guruhlarini tashkil etish jarayoni boshlanadi. Bunda tasvirga olish va yordimchi guruhlar ham tuzila boshlaydi. Bu jarayonga mas'uliyat bilan jiddiy yondoshish zarur. Chunki taklif qilinayotgan ijodkor shaxslar, maxsus texnik



mutaxassislar, kinoyuiduzlar film ishlab chiqarilishidagi moliyaviy xarajatlariga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Ayniqsa, mashxur

kinoyulduzlarning nafaqat ish haqqi, balki qancha muddatga ishga biriktirilganligi muhim omilga aylanadi.

4.2. Rollarni taqsimlash, guruhlarini tuzish, tasvirga olish joylarini aniqlash

Ishlarni amalga oshiruvchi ijrochilarni tanlash rejissyor va prodyusser tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, aktyorlar ansamblini tuzilishida prodyusser yordami bilan rejissyor asosiy hal etuvchi shaxs hisoblanadi. Ushbu guruh tarkibiga barchani jumladan, bosh ro'i ijrochilari, ikkinchi darajali rollar ijrochilaridan tortib to kaskadyorlar, dublyorlargacha biriktiriladi. Dublyorlar bilan shartnomalarni imzolashdan oldin, ularni aynan qaysi kinoyulduzlarni o'rni alishtira olishi mumkinligini aniqlab olinishi zarur.

Film yaratilishida ishlaydigan guruhlar tarkibi, ishga jalb qilinayotgan xodimlarning qay ko'rinishda taklif etilayotganligi, ular bilan qanaqa turdagi shartnomalar tuzilayotganligiga bog'liq. Odatda badiiy film yaratilishida tasvirga olish guruhi kamida yigirma odamdan iborat bo'ladi. Hujjatli filmlar yaratilishida esa kichikroq guruhdan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, hujjatli filmda tasvirga olish guruhi tarkibi rejissyor, film direktori, operator, operator assistenti, prodyusser assistenti, ovoz operatori, maxsus yorituvchi, elektrik, grimyorlardan iborat bo'ladi.

Filmning tasvirga olish uchun tuzilgan guruh ro'yxati «Kino va televideniya prodyuserlari birlashmasi (PACT)» va «Kelishuvlar birlashmasi (TU)» bilan tenglasha oladi. Ushbu ro'yxatdagi ko'pchilik «Kinematograflar va teatr xodimlari birlashmasi (BECTU)» a'zolari bo'lishi mumkin.



4.2-rasm. Tasvirga olish joylari.

Bu shundan dalolatki, xodimlarning ayrimlari o'zining ishidan tashqari qo'shimcha ishga, ma'suliyatga ega. Shunga asosan har bir guruh

birlashmalarni qiziqtirish uchun o'zining profsoyuz rahbarini tayinlashga harakat qilishadi.

Tasvirga olish joylarini tanlashda birinchi navbatda film rassomi mas'uldir. Albatta u rejissyor yaratgan konsepsiyaga asosan joylar izlaydi, topadi, tanlaydi va taklif etadi. Bu jarayonni rassom lokeyshn-menedjeri bilan hamkorlikda amalga oshirishi ham mumkin. Ayrim hollarda birgina lokeyshn-menedjerining o'zi ushbu vazifa bilan band bo'ladi. Agar rassom ushbu tanlangan joyni ma'qul ko'rsa, bundan rejissyor va operatorni ham xabardor qiladi, ularga joyni ko'rsatadi. Tanlanayotgan barcha joylar avvalombor ko'rinishi jihatidan, xarakteridan, atmosferasining tasvirga olinadigan sahna talabiga mos kelishi bilan o'lchanadi. Biroq tasvirga olish joylarini tanlanishida texnologik nuqtai nazardan ham inobatga olish zarur. (4.2-rasm) Masalan, elektr ta'minoti bor yoki yo'qligi, transport vositalarini yura olishi va boshqalar.

Tasvirga olish joylarini tanlashda iqlim sharoitlariga ham e'tibor beriladi. Iqlim sharoitini inobatga olish dastavval ssenariy bo'yicha o'rganiladi. Bu asosan bosh rassom va bosh operator birgaligida kelishilib so'ng voqea xarakteriga mos joy va iqlim muhiti tanlanadi. Tanlangan joyning geografik kordinati, shamol esish yo'nalishi, quyosh chiqish va botish tomonlari o'rganiladi. Tasvirga olish joylarini tanlanishida fasl alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, bahorda tanlangan joy kuzga kelib to'g'ri kelmay qolishi mumkin. Shuning uchun film voqeasi qaysi faslda bolib o'tganligini inobatga olish zarur.

Nazorat savollari:

1. Budjetni tuzilish jarayoni bilan bir qatorda yana nima tuziladi?
2. Badiiy film yaratilishida ijrochilarini kim tanlaydi?
3. Hujjatli film yaratilishidagi guruh vakillari kimlar?
4. Tasvirga olish joylari qanday tanlanadi?
5. Kaskadyorlar qaysi davrdan boshlab ishga biriktiriladi?

5. FILM YARATISHDA TASVIRGA OLISH DAVRI

5.1. Tasvirga olish guruhining bajargan ishlari to'g'risidagi hisobotlar
Tasvirga olish davrida – tayyorgarlik davrida qilingan barcha ishlar yuzaga chiqq boshlaydi. Agar puxta tayyorgarlik qilingan bo'lsa, demak tasvirga olish ishlari oson kechishini taminlaydi aks holda esa aksincha ishni orqaga suradi. Film direktori ushbu davrga nazar solib tayyorgarlik davriga baho bera oladi.

Aksariyat holatlarda rejalashtirish yoki rejadagi ishlar o'zgaruvchan, ya'ni holatga qarab moslashtirsa bo'ladigan bo'lishi zarur. Chunki film yaratilishida shunday kutilmagan holatlar bo'ladiki, bunday daqiqalarda zararsiz va katta o'zgarishlarsiz ishni davom ettirib ketishga to'g'ri keladi. Tasvirga olish ishlarini vaqt nuqtai nazaridan aniq o'lchanib taqsimlangani har taraflama yaxshi natijalar beradi. Buni ham daromadlar, ham ish sifati misolida ko'rish mumkin.



5.1-rasm. Film tasvirga olish.

Tasvirga olish jarayonida rejadan chetga chiqish yoki reja bo'yicha ulgurmaslik (kechikish) salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ishlarni rejadagidek amalga oshirilishini nazorat qilish, barcha xodimlarni mas'uliyat bilan o'z ishiga yondoshishi, bir so'z bilan aytganda yuqori dissiplina zarur bo'ladi. Bu yerda administrativ guruh xodimlari, ijrochi prodyusser, rejissyorlar nihoyatda ziyrak va aktiv bo'lishlari shart. Shundagina film ishlab chiqarilishining barcha davrlari, jarayonlarida budjetning taqsimlanishi reja asosida aniq va to'g'ri amalga oshadi.

Filmning ishlab chiqarilishini nazorat qilishning eng qulay yo'li – bu turli eslatmalarni, kommentariylarni tuzib borishdir. Yirik tasvirga olish ishlarida jarayonni har bir detaligacha belgilab yozib borish foydadan holi emas. Shunday holatlar bo'ladiki, uni hal etish yoki aniqlik kiritishda mana shu dnevnikga aylangan eslatmalar daftari yordamga keladi. Yuzaga kelgan tortishuvlarni, tushunmovchiliklarni bartaraf etadi. Joiz bo'lsa bu kabi eslatmalar natijada yuridik hujjatga aylanib, sud tergov jarayonlariga yordam berishi mumkin. Bunday eslatmalarni qayd qilib borish film ishlab chiqarish jarayonidagi barcha xodimlarga tegishli.

Tasvirga olish jarayonida hech bir ish shu ishga taaluqdi xodim tomonidan rozilik bermaguncha bajarilishi mumkin emas. Masalan, aktyor

misolida olib qaraydigan bo'lsak, chet elga safarga borgan aktyor tasvirga olishdan ortib qolgan vaqtini o'z boshimchalik bilan, mas'ul xodimlarni ogohlantirmasdan guruhdan ajralishi mumkin emas. Tasvirga olish joyini tark etadigan, ma'lum vaqtga biron joyga borib keladigan xodim yozma ravishda mas'ul xodimni habardor qilishi zarur.

Amaliyotda shunday holatlar uchraganki, aytaylik ma'lum bir xodim bir necha kunga javob oldi "otpusk", biroq mas'ul xodim buni qayd qilib qo'ymadi, natijada xodimga ushbu ishlamagan kunlariga ham ish haqqi yozildi. Boshqa holatda esa yozma ravishda javob olmay tasvirga olish maydonini tark etgan xodim kutilmaganda baxtsiz xodisaga tushib qoladi, natijada tasvirga olish guruhiga mas'ul xodim bunga javob berishga to'g'ri keladi.

Tasvirga olish maydoniga yoki studiyaga, ushbu jarayonga taalluqli bo'lmagan xodimlar tashrif buyursa ularni albatta qayd qilib qo'yish lozim. Masalan, bugun "Mister X" kompaniyaga tashrif buyurdi, demak uning tashrifi qaysi paytdan boshlab qancha vaqt davomida bo'lganligi yozma ravishda zarur hujjat asosida qayd qilingan bo'lishi kerak. Bunday hujjat va undagi qayd etilgan axborot kelajakda turli xil vaziyatlarda o'z foydasini beradi. Borinki bu straxovoy kompaniya, sog'liqni saqlash, texnika xavfsizligi va boshqa muassasa bo'lmasin barchasiga birday ushbu tuzilgan qaydnomaning foydasi tegadi. Shuning uchun tartib nazorati va ishlab chiqarishning barcha tarmoqlarida ish xisobotlari kunlik va xaftalik usulida qayd qilinib borilishi hamda mas'ul xodimga topshirilishi zarur.

5.2. Iyerarxiya

Tasvirga olish guruhi bir qarashda tizimsizdek ko'rinadi, biroq film ishlab chiqarish jarayonlarida xodimlar o'rtasida aniq chizilgan chegara iyerarxiya mavjud. (5.2-rasm) Film yaratilishidagi har bir ishni bajarishda xodim, asosiy vazifani aniqlab olish va majburiyatlarni taqsimlash kerak. Shundan so'ng ushbu majburiyatlar va vazifalar doirasida ishni tashkillashtirish, davom ettirish mumkin. Turli idoralar bo'limlari o'zining guruhlariga yo'l yo'riqlar bilan tushuntirish ishlarini olib boradi. Biroq ular tomonidan biror ish qilinishiga harakat qilish zarur bo'lsa o'sha idora tomonidan rasmiy jihatdan tegishli bo'limlar bilan kelishib olish kerak bo'ladi.



5.2-rasm.

Vaqtни tejjash maqsadida barcha ishlarni o'zim qilaman degan tushuncha noto'g'ri bo'ladi: masalan, tasvirga olish texnikalarini bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda uning "egasi" ishtirokisiz yanada ko'p vaqt ketib qolishi mumkin. Shuningdek,, maxsus texnikalarga shikast ham yetishi mumkin. Shuning uchun har bir ishni o'z mutaxassisi umumiy qoidalarga bo'ysungan holda bajargani ma'qul.

Rahbarlar kutilmagan, biroq bo'lishi mumkin bo'lgan ishlarga yoki xodisalarga doim tayyor turishi kerak, shuningdek, bunday holatlarni oldindan sezishi kerak. Masalan, transport vositalarini qachon yetib kelishida, obi-havoni o'zgarib qolishida, bayram yoki boshqa tadbirlar kunlariga to'g'ri kelishida va boshqa shu kabi holatlarda.

5.3. Ko'chish va safarga chiqish

Film ishlab chiqarilishida joydan joyga ko'chishlar xolati bo'ladi. Bu asosan naturada tasvirga olishda yoki boshqa shahar, qishloqlarga safarga borilganda ko'proq uchraydi. Agar ko'chish joyi yaqin masofani tashkil etsa faqatgina tasvirga olish joyini yangilanishi va unga moslashishi bilan bu jarayon hal etilishi mumkin. Biroq ko'chish joyi, ya'ni yangi tasvirga olish obyekti uzoq masofani tashkil etsa masalan, boshqa shaharni, qishloqni bunday holatda ko'chish jarayoni yaxlit holatda, maxsus transportlar vositasida amalga oshiriladi. (5.3-rasm)

Bu jarayonda maxsus transport vositalaridan foydalaniladi. Bunday transportlarga guruh yoki tasvirga olish komandalari bo'yicha taqsimlanishi kerak bo'ladi. Buni kino tilida "Dislokatsiya tartibi" deyiladi va hujjat shaklida yuritiladi.

Bunday hujjat asosan badiiy film yaratilishida qo'llaniladi. Mana shu tartibni (hujjatni) kartina direktori va administrativ guruh boshqaradi. Hujjatli film yaratilishida esa ko'chish jarayoni bo'yicha yo'riqnomalar umumiy grafikga kiritilgan bo'ladi.

Badiiy film yaratilishida dislokatsiya tartibi sxemasini Buyuk Britaniya film ishlab chiqarish studiyalari misolida ko'rib chiqishimiz mumkin. Ushbu hujjat sarlavhadan boshlanadi va tartib raqami qo'yilgan bo'ladi. Shuningdek, yaratilayotgan film nomi, kompaniya yoki studiya nomi va manzili ko'rsatiladi. Film rejissyori ism familiyasi, qo'shimcha axborot sifatida ko'chib borilayotgan yangi manzil ko'rsatiladi, hamda ushbu manzilga yetib borilgach dastavval nima ishlar qilinishi ham keltiriladi.



5.3-rasm. Safarga chiqish.

Film yaratilish jarayonida tasvirga olish joylarining ma'lum qismi studiya territoriyasidan tashqarida bo'ladi. Studiyadan tashqaridagi murakkabliklarni, qiyin sharoitlarni professional mutaxassislar yaxshi bilishadi. Bu borada jarayonni tashkil etadigan va boshqarayotgan menedjer, tasvirga olish joyi va ishchilarning yashash joyi egasi (rahbari) bilan tasvirga olish guruhi o'rtasida biror bir muammo yuzaga kelmasligiga kafolat bera olishi kerak. Ayniqsa tasvirga olish davri davomiyligi bir joyda uzoq vaqt davom etganda yaxshi menedjer va uning kafolati juda muhimdir. Agar ushbu menedjer (film direktori, rejissyor) kelajakda yana bu obyektan foydalanishni ko'zda tutsa, boshqa filmlarda ham ushbu joyda tasvirga olish mumkinligini his qilsa, demak, ushbu joyni

asrab avaylash kerak bo'ladi. Joy egasi va guruh o'rtasida o'zaro, iliq munosabatlar o'rnatish umumiy komfort holatini vujudga keltirishi tabiiy.

DISLOKATSIYA TARTIBI № 5

Film nomi: «SHERYURAK»

FAYERFAKS FILM, 40 Uorde Park, London № 4 3 Nt. Telefon: 081 234 5678

Rejissyor: Ismi: Sana:

O'rnashgan joyning tavsifi /izoh:

Mehmonxonadan — AOO ilova olingan (Direktorlarga tasvirga olish joylari, o'rnashgan joy bo'yicha)

20 mil yo'l yurish o'rta xisobda 30 daqiqani tashkil etadi.

Marhamat qilib, keraksiz diqqat e'tiborga tushmang (zona, raskopka) NE

Ishlab chiqarish maxsus avtomashinasi № 1 davlat raqami (G117 TNX)

Haydovchi: Ismi. Mehmonxonadan jo'nash 07.30 da.

Yo'lovchi 1 : Ismi. Yo'lovchi 2 : Ismi.

Yo'lovchi 3: Ismi. Yo'lovchi 4: Ismi.

Ishlab chiqarish maxsus avtomashinasi № 2 davlat raqami (G118 THX)

Haydovchi: Ismi. Mehmonxonadan jo'nash 08.00 da.

Yo'lovchi 1 : Ismi. Yo'lovchi 2 : Ismi.

Yo'lovchi 3: Ismi. Yo'lovchi 4: Ismi.

Mikroavtobus № 1 - davlat raqami F 24 6 REC - kamera, ovoz, tasvirga olish guruhi. Haydovchi: Ismi. Mehmonxonadan jo'nash 07.30 da.

Mikroavtobus № 2 - davlat raqami F 24 8 REC - grim, postanovkachilar.

Haydovchi: Ismi. Mehmonxonadan jo'nash 07.30 da.

Rol ijrochilari, kunning yarmisida yig'ilishadi:

Avtomashina № 1 — Postanovkachilar — davlat raqami (G117 TNX)

Haydovchi: Ismi. Mehmonxonadan jo'nash 12.30 da.

Yo'lovchi 1 : Ismi Yo'lovchi 2 : Ismi

Oziq ovqat yeguliklari va tualet sharoiti yangi joylashuv manzilida tashkillashtirilgan.

Artistlar kinoteatr yig'ilish zalida dam olishlari mumkin

Kontakt ma'lumotlar:

Tasvirga olish joyining kontakt ma'lumotlari:

Baxtsiz xodisalarda shifoxona:

Manzil: ... telefon nomer: ...

Militsiya: ... Elektr generatori ta'minoti (firma): ...

Manzil: ... telefon nomer: ...


Nazorat savollari:

1. Tasvirga olishni rejalashtirish qanday bo'lishi kerak – o'zgaruvchan yoki o'zgarmas?
2. Guruh xodimlarining tasvirga olish paytida ish jarayonidan ruhsatsiz chetlashishi mumkinmi?
3. Ish jarayonidan chetlashish qay usulda mumkin?
4. Tasvirga olish paytida jarayonni yozma ravishda qayd qilish kerakmi?
5. Maxsus texnikalarni egasiz tashish mumkinmi?
6. Predislokatsiya nima va uning tartibi nimadan iborat?

6. FILMNI MONTAJ QILISH DAVRI

6.1. Montajning mohiyati

Film ishlab chiqarilishida tasvirga olish davri tugashi bilan yirik murakkab palla ortda qolganday bo'ladi, biroq bo'shshishga hali erta. Chunki yuqorida aytib o'tilganidek rejissyor, muxarrir, montajchilar, ovoz



6.1- rasm. Maxsus effect yaratish generatori

rejissyorlari oldida hali ish jarayoni o'z bosimini yo'qotgani yo'q. Agar bugungi kunda yaratilayotgan filmlarga nazar tashlasak, ularda aynan tasvirga olishdan keyingi montaj davrining uzoq vaqt davom etayotganligini, postprodaksh oldida o'ta murakkab vazifalar turganligini ko'rishimiz mumkin.

Masalan, rejissyor J.Kameronning "Avatar" filmi olib qarasaq, uning tayyorgarlik va montaj davrlari uzoq vaqt davom etganligini kuzatamiz. Tasvirga olish jarayonidan bo'shagan xodimlar hatto ayrim ijodkorlar ham boshqa filmning ishlab chiqarish jarayoniga o'tishi mumkin. Biroq film direktori va rejissyor filmning montaj – ovoz yozish davri bilan band bo'lib, filmning natijasini, ya'ni tugallangan shaklini ko'rish hamda uni omadli tarzda topshirish oliy maqsadiga aylanadi.

Montaj davrida film qayta tug'iladi degan ibora mavjud. Haqiqatdan ham filmning oxirgi tugallangan varianti aynan shu montaj stoli ustida

paydo bo'ladi. (6.1- rasm) Paydo bo'lgan film endilikda yakuniy tomosha qilishga yoki efirga uzatishga mos holatiga keltirilishi lozim bo'ladi. Shundan so'ngina mahsulotni topshirish ishlari bajariladi.


6.2. Montaj jarayoni

Filmni tasvirga olish ishlari tugashi bilan, tasvirga olingan material montajga topshiriladi. Bunda ssenariy bo'yicha filmning syujetini yasash va rivojlantirish boshlanadi – bu montajning boshlanish jarayoni xisoblanadi.

Filmning montaji tasvirga olingan kunning ertasiga boshlanishi ham mumkin. Buning uchun tasvirga olingan material bo'lsa bas. Masalan, televizion ko'rsatuvlar asosan shu tariqa tayyorlanadi. Albatta bu yerda video mahsulot va plenka mahsulotini birday taqqoslash mumkin emas. Aslida video mahsulotini bugunning o'zida, hattoki tasvirga olish jarayonidayoq montaj qilib borish mumkin. Demak, parallel tarzda tasvirga olish va montaj jarayonlarini tashkil etsa bo'ladi. Biroq film direktori bu jarayonlarni birday boshqara olishi lozim, bu qo'shimcha mas'uliyat bo'lib ayrim holatda qo'shimcha xodimlarni jalb qilinishiga to'g'ri keladi. Masalan, teleseriallarni ishlab chiqarishda montaj jarayoniga alohida boshqa rejissyor yollanishi mumkin. Buning uchun film direktori tayyorgarlik davridayoq montaj studiyasining xizmatini, ish jadvalini shunga moslab tuzib olgan bo'lishi kerak.

Montaj jarayonida montajchi rejissyorning asosiy vazifasi yuklatilgan ishlarni o'zining guruhi xodimlariga to'g'ri taqsimlash va ularni nazorat qilishdan iborat. Montajdagi umumiy ish rivoji rejadagi ketma-ketlik bo'yicha umumli ravishda o'z muddatida tugallanishi lozim.

Montaj jarayoni – bu faqat tasvirga olingan materiallarni tanlash, vaqt davomiyligini aniqlash, joylashtirish, saqlash emas. (6.2- rasm)



6.2- rasm. Analog va raqamli montaj jarayonlari

Birinchiidan, montaj – bu ijodiy jarayon bo‘lib montajchidan ma‘lum iqtidorni va bilimni talab etadi. Ikkinchiidan, montajchi filmning yakuniy shaklini yaratish uchun uning tarkibiy qismiga kiruvchi bo‘laklarini, ko‘rinishlarini, joylarini bilishi zarur. Bu holat ayniqsa kompyuter grafikasi ko‘p qo‘llaniladigan murakkab sahnali filmlarda yanada seziladi.

Filmda musiqa, murakkab ovoz-shovqin bezagi, maxsus optik effektlar ishlatilib, ular film yoki teleko‘rsatuvning montaji tugagunga qadar tayyorlab qo‘yilgan bo‘lishi shart. Masalan, ovozni qayta yozish uchun ba‘zi bir texnik moslamalarni tanlab olish kerak. Buning uchun ishlab chiqarishdagi mavjud bo‘lgan bor ma‘lumotni to‘plashi, ishning umumiy hajmini, film qanaqa formatda tasvirga olinganligini, ovoz yozishda soniyasiga 24 yoki 25 kadr bo‘lishini mutaxassis to‘liq bilishi lozim. Bu holat videomontaj jarayoniga ham tegishli bo‘lib, undagi qayta yozish usullari haqidagi ma‘lumotlar ish jarayoni boshlangunicha tayyorlangan bo‘lishi kerak.

Aynan mana shu davrda an‘anaviy film yaratish bilan videomahsulot o‘rtasida asosiy farq gavdalanadi. Bunda masalan, kinoplyonka xarajatlarini misol qilish mumkin. Videofilmning montaji ikki bosqichdan iborat: “chernovoy lineyniy” (xomaki liniyali, ishlovlari tugallanmagan) va keyinchalik “chistovoy lineyniy” (yakuniy, barcha ishlovlari tugallanadigan) ovoz yozish bilan. Film direktori bu ishlarning sarfxarajatlarini aniqlashi lozim va shunga qarab ish rejasini tuzish kerak bo‘ladi. Chunki yakuniy (chistovoy) montaj shu darajada qimmat turishi mumkinki, uning bir soat ish vaqtiga xomaki (chernovoy) montajning bir kunlik ish vaqtiga sarflanadigan mablag‘ni to‘lash to‘g‘ri keladi. Xomaki (chernovoy) videomontaj komplektining bir kuni esa xaftalik kinomontaj ijarasiga to‘g‘ri keladi. (6.3- rasm)



6.3- rasm. Zamonaviy raqamli montaj usuli

Videomontaj uchun qo'shimcha xarajatlar odatda, kinoplyonka uchun ketadigan qo'shimcha xarajatlardan ko'proqni tashkil etadi. Shuning uchun videomontaj jarayoniga tayyorgarlik, uning nazorati va vaqt masalasi mukammal tarzda ishlab chiqilgan bo'lishi shart. Demak, agar montaj jarayonining boshidan boshlab xomaki (chernovoy) montajsiz faqat yakuniy (chistovoy) montajning o'zi bilan jarayon kechadigan bo'lsa, uning sarf xarajati yuqori bo'ladi. Shunday ekan tejamkorlik maqsadida montaj jarayonini ikki bosqichga bo'lib bajarilgani ma'qul.

Montaj ishlab chiqarish jarayonidagi amaliy faktlar shuni ko'rsatadiki, yakuniy (chistovoy) montajga sarflangan bir soat ish vaqti xomaki (chernovoy) montajga sarflangan ish vaqtidan unumli kechadi, ya'ni ko'proq foydali ishlar qilingan bo'ladi. Buning sababi ish soatining yuqori narxlanishida bo'lib, xodimlar har qaysi yo'l bilan bo'lsa ham vaqtni tejashga harakat qilishadi. Montajchi va rejissyor o'zlarida rejissyorlik ssenariysining nusxasiga ega bo'lishlari lozim. Ushbu ssenariydagi barcha qaydlar, belgilar, ilovalar tasvirga olingan material bilan mos kelishi montajni tezkor va aniq bo'lishiga yordam beradi. Hujjatli film montajida bu holatni "rasshifrovka" deyilib, intervyu, sharhlash va boshqa sinxron tasvirga olingan materiallarda aks etadi.

6.3. Ovoz yozish

Odatda film ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan ko'pgina mamlakatlar tasvirga olish paytining o'zidayoq ovoz yozishadi. Shunga qaramay ayrim mamlakatlar, masalan, Italiya, Rossiya va boshqa, ovozni qayta maxsus ton-studiyalarda yozishga moslashgan. Bunday studiyalarda aktyorlar dialoglari, shovqinlar, musiqa va effektlar yoziladi. (6.4- rasm) Tasvirga olish paytida yozilgan ovozlari esa xom-ashyo, shablon sifatida ishlatiladi. Yana shunday holatlar borki sinxron yozilayotgan monologlar va dialoglar, kuy va qo'shiqlar yoki turli xil tillardan dublyaj qilishlar ovoz berish usulida ton-studiyalarda yoziladi. Bunday holatda montaj "list"lari zarur bo'ladi. Agar dialog ovozi qayta yozilmasada miksher usulida boshqa ovoz effektlari, shovqinlar va musiqalar yozilishi mumkin. Bu kabi ovoz yozish va sozlash ishlarini faqat maxsus ovoz yozish texnikalari bilan jihozlangan, maxsus jihozlangan xonalariga ega bo'lgan studiyada bajarish mumkin.

Ovoz yozish studiyasini va undagi kerak bo'ladigan texnikalarni oldindan kuni va vaqti aniqlangan holda ish jadvaliga kiritilgan bo'lishi shart. Aks holda boshqa ishlar bilan to'g'ri kelib qolishi oqibatida ijara

to'lovi havoga ketadi. Biroq oldindan ijarani aniqlashtirib qo'yilmasa ham u boshqalar tomonidan band bo'lib qolishi mumkin.




6.4- rasm. Ovoz yozish

bosqichlaridan biri bu musiqa bilan gaplarni va shovqinlarni birlashtirishdir.

Musiqa – har qanday filmning muhim komponenti hisoblanadi. Ayniqsa kichik budjetli filmlarda bu yanada seziladi. (6.5- rasm)

Musiqaning ahamiyatiga ortiqcha baho berish noo'rin. U Mosartning "Elvire Maligan" klassik partiturasimi yoki film uchun maxsus yozilgan kompozitsiyami baribir uning muhimligi yo'qolmaydi. Siz yoqtirgan biror kuyni eshitganingizda shu kuy yangragan konkret bir film esingizga tushadi, shuning o'zi yetarli. Haqiqatdan ham omadli yozilgan kuy qalblarda uzoq vaqt yashaydi. Filmda musiqa nima uchun hukmronlik qiladi, bunga javoban shunday deyish mumkin: avvalom bor musiqa borliqdagi eng birinchi paydo bo'lgan, hissiyotga chaqiradigan san'atdir. Shuningdek, musiqa ko'ngilni rom qiluvchi ta'sir kuchiga egadir. Endi aynan filmda musiqa tasvir bilan uyg'unlashar ekan uning emotsional



6.5- rasm. Musiqa yozish

ta'sir kuchi yanada ortishi va reallashishi mumkin. Bu holatni tasvirga taqqoslab ko'radigan bo'lsak, o'z navbatida tasvir ham musiqa bilan uyg'unlashib tasvirning ta'sirchanligini ortishiga yordam beradi. Bu jarayonda tasvir bilan

musiqaning bir-biriga mos kelishi, uyg'unlasha olishi muhim jihat bo'lib ko'p vaqtni talab etadi.

6.4. Musiqa yozish

Musiqa yozish jarayoni bilan ovoz rejissyori va film direktori shug'ullanadi. Aytaylik, filmda maxsus yozilgan musiqa yangrashi kerak. Bunday holatda ovoz yozish ish smenasi bir yoki undan ortiq bo'lishi mumkin. Ovoz yozishda qaysi xodimlar zarurligi, qanday ovoz yozish texnikalari kerakligi va qayerda yoki qaysi joyda ushbu ovozni yozishni ovoz rejissyori tanlaydi. Bunda film direktori joy masalasini, texnika va xodimlarni yetkazib berishni taminlaydi, tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi. Shunday ekan filmning direktori u yoki bu musiqachilarga nisbatan spetsifik talablarini bilishi hamda ularni bajarishga direktorning vaqti yetarli bo'lishi kerak. Masalan, aktyorlarga nisbatan yuqori mavqega ega musiqachilarni topish va jalb qilish doim ham qo'l kelavermaydi.

Musiqa yozish jarayonida mablag'ni tejab qolishni yana bir yo'li shundan iboratki, musiqachilar bilan kelishuv jarayonida litsenziyalarga va avtorlik huquqiga alohida to'lov emas, balki shu bir martalik to'lovni ichida hisoblanadigan tartibda kelishish kerak.

Chunki musiqa-chilar yaratgan kompozitsiyaning gonorar to'lovi mavjud bo'lib, mahsulotning har bir foydalanilishiga qo'shimcha to'lov qilish ko'zda tutilgan bo'ladi. (6.6- rasm)



6.6- rasm

Orkestr jo'rligida musiqa yozish

Agar musiqa tayyor holatda sotib olingan bo'lsa masalan, "tokchadan" deganday, bunday holatda uchta ish bajarilishi kerak.

Birinchisi: ushbu sotib olingan musiqani kimdir, bu odatda rejissyor yoki kompozitor bo'ladi, eshitib ko'rib tanlash kerak.

Ikkinchisi: ofis ushbu musiqani filmda ishlatilishi uchun zarur bo'lgan meyoriy hujjatlarni tayyorlash bilan shug'ullanishi lozim.

Bunda film direktori avtorlik huquqini himoya qilish jamiyati bilan (MCPS) aloqaga kirishib musiqani ishlatishga ruhsat olishi kerak bo'ladi. Shuningdek, huquqlar jamiyati (PRS) bilan film prokatida avtorlik huquqiga ega bo'lishni kelishib olish zarur. Uchinchisi: tanlangan musiqani moslashtirishga va montaj qilishga qo'shimcha vaqt ajratilishi kerak. Bu jarayonda musiqa ovoz magnit lentasiga yoki videolentaga qayta yoziladi. Yozilgan musiqa montajchi uchun filmning umumiy montaj jarayoni bilan mos kelib tushunarli bo'lishi kerak.

6.5. Maxsus effektlar yaratish

Film yaratishda maxsus effektlarning ishlatilishi kino davrining ilk yillariga borib taqaladi. Albatta u paytlarda tasvirdagi biron bir effektini yaratish bugungiday qulay va oson bo'lmagan, (6.7- rasm) shunday bo'lsada kino pionerlari o'zlarining vizual obrazlarini yaratishga turli usullar bilan harakat qilishgan. Texnologik rivojlanish oqibatida maxsus effektlarni yaratish ham rivojlanib, tabiiylik jihati o'sib, qulayligi ortib keldi. Bugungi kunda maxsus effektlarning asosiy bosqichi, tugallovchi fazasi maxsus kompyuterlarda bajariladi.



6.7- rasm. Maketlar yordamida effektlar yaratish

Maxsus effektlarni filmning ssenariy tayyorlash davridan boshlab xisobga olinadi. Tayyorgarlik davrida ularni yaratish uchun tayyorgarlik

ko'riladi. Bu jarayonda kichik va katta maketlar, obyektlarni yoki buyumlarni maxsus qurilishi, moslanib yasalishi, fonlarni tayyorlanishi, tasvirga olish uchun maxsus texnikalar yaratilib tayyorgarlik qilinadi.

Tasvirga olish davrida maxsus effektlarni yaratish uchun barcha guruh xodimlari ishtirok etishadi masalan, grimchi, dekorator, liboschi, pirotexnik, fonchi, yoritish chiroq ustasi xullas barcha birday xizmat qiladi, biroq ko'proq vazifa maxsus effektlar ustida ishlaydigan guruhga tushadi. Bugungi kunda postprodakshn usulida effektlarni yaratishda maxsus professional guruhlar mavjud.

Maxsus effektlar oddiy ko'rinishdan boshlab o'ta murakkablashgan effektlargacha bo'lishi mumkin. Masalan, "Yulduzlar jangi", "Yursk davrining bog'i", "Titanik", "Avatar" va boshqa filmlarni olib qaraydigan bo'lsak ulardagi maxsus effektlarni tayyorlash va moslashtirishga tasvirga olishdan ham ko'p vaqt ketganligini kuzatamiz. Umuman olganda maxsus effektlarni yaratish doim ko'p vaqtni talab etgan. Bugungi komyuterlar davrida ham vaqt masalasi o'z kuchini yo'qotganicha yo'q, biroq mablag' sarf-xarajat masalasida sezilarli progresni ko'rishimiz mumkin. (6.8- rasm)



6.8- rasm. Maketli va animatsion maxsus effektlar

Maxsus effektlarni yaratish prodysser va film direktorining oldida turgan dolzarb va murakkab vazifadir. Film direktori yaratilayotgan filmga maxsus effektlarni ishlatilishida ular qaysi usullar yordamida bajarilishini, buning uchun nimalar va kimlar kerak bo'lishini to'la tasavvuriga ega bo'lishi lozim. Barcha maxsus effektlar umumiy ishlab chiqarish ish rejasiga kiritilishi, aniq rejalashtirilishi kerak. Uning sarf-xarajatlari aniqlanib arzon va sifatli natijaga erishish yo'llari ko'rib chiqilishi lozim.


Hujjatli filmlar tayyorlanishida maxsus effektlar asosan arxivlardan olinadi yoki oddiy ko'rinishdagi effektlarga buyurtma beriladi.

6.6. Filmni nusxalash

Film nusxalarining pechati – bu oxirgi bosqichiardan biri hisoblanadi. Nusxalashdan so'ng mahsulotni topshirish va prokat yoki efir jarayoni boshlanadi. Administrativ bo'lim filmning yakuniy natijasi sifatli bo'lishini albatta xohlashadi. Biroq buning uchun ham ma'lum tayyorgarlik qilinishi kerak bo'ladi. Bu ish ovozni qayta yozish va dublyajdagi holatga o'xshab ketadi. (6.9- rasm)

Laboratoriya o'zida, filmning etalon kopiyasi pechati uchun filmning butun tasvirga olingan materialining tayyor birga-bir montaj qilingan asl negativiga ega bo'lishi kerak. Shuningdek., bir lentaga tayyor montaj qilib yozilgan musiqiy fonogramma, gaplar va shovqinlar, maxsus effektlar bo'lishi zarur.

Prodyuser, rejissyor, rejissyor-montajchi va laboratoriyaning yorug'lik sozlovchisi bosh operator bilan birgalikda oraliq kopyalarni tekshiruv ko'rigidan o'tkazishi lozim. Nusxalash jarayonida birinchi navbatda tasvirning optik rang va yorug'lik



6.9- rasm

darajasi sozlanadi. Bunda bosh operator va yorug'lik sozlovchidan boshlab bosh rejissyor, bosh rassom va hatto montajchi ham ishtirok etishi mumkin. Filmning birinchi nusxasi tayyor bo'lgach xulosaviy ko'rigidan o'tkazish uchun texnik tekshiruv bo'limlari (OTK) rahbarlari taklif etiladi. Rahbarlar tomonidan qilingan qaydlar kelishilgan tarzda inobatga olinadi va yakuniy nusxaga kiritiladi. Filmning yakuniy nusxasi o'zida tasvir va ovoz yo'lakchasini birgina kinolentani o'zida mujassam etadi. Ushbu ishlardan so'ng oxirgi muhim jarayon boshlanadi, bu loyihani moliyalashtiruvchiga tayyor mahsulot taqdimoti jarayonidir.

Buyurtmachining talabiga ko'ra mahsulot, ya'ni film qanday formatda topshirilishi kerakligi shartnoma bo'yicha aniqlanadi va o'sha formatda mahsulot tayyorlanadi. Masalan, telekanal uchun mahsulot kinolentada emas, balki videolentada taqdim etiladi. Zamonaviy laboratoriyalar bugungi kunda kino mahsulotlarini turli format va

ko'rinishda (nositel) tayyorlab berish imkoniga ega. Buning uchun film direktori oldindan film mahsulotining yakuniy holati qanday ko'rinishda bo'lishini aniqlab kelishib olgan bo'lishi kerak. Biroq bu mahsulotning barcha nusxalari faqat bir ko'rinishda bo'lishi kerak degani emas.

Nazorat savollari:

1. Filmning xomaki (chernovoy) montaji qachon boshlanadi?
2. Montaj – bu texnik jarayonmi yoki ijodiy?
3. Ovoz bilan ishlashdagi jarayonlarni tushuntirib bering
4. Musiqa yozish jarayoni qanday kechadi?
5. Laboratoriya jarayonlarini aniqlang?

7. FILMNI TOPSHIRISH VA IJODIY GURUHNING BAJARGAN ISHLARI TO'G'RISIDA HISOBOTLAR TAYYORLASH

7.1. Filmni topshirish jarayoni

Mahsulotni topshirish shundan dalolat beradiki demak, montajchi guruh o'z ishini yakunlashibdi, biroq prodyusser va direksiyaning ishi hali davom etadi. Buyurtmachiga mahsulot kopyasini topshirish bilan film ustidagi ishlar yakunlanmaydi. Bu davrda filmning direktori tayyor bo'lgan mahsulotni topshirish bilan shug'ullansa, prodyusser esa ushbu mahsulotni reklama qilish va kino bozoriga olib chiqish bilan band bo'ladi.

Montaj listlari – topshirilayotgan filmning pasporti hisoblanib, film kopyasi bilan birga topshiriladi. Tayyor filmning ilk nusxasi ikki nusxadan kam bo'lmasligi lozim. Montaj listlarida filmning umumiy vaqt davomiyligi, kadrlar soni va nommeri, musiqalar nomlari va so'zlari, ijrochi aktyorlar nomlari va qaysi rolda ijro etganligi, dialoglar va umumiy mazmun bayon etilgan bo'ladi.

Montaj listlarini film direktori nazoratidan o'tkazib imzo chekishi kerak, aks holda filmni topshirishni iloji bo'lmaydi. Filmning tugallangan dastlabki nusxasini TNB – texnik nazorati bo'limiga topshiriladi. TNBning maxsus muhandislari filmning texnik sifatini aniqlab baholaydi va talabga javob bermaydigan qismlarini maxsus blankda qayd qilinib qayta ko'rib chiqishga yuboriladi.

Uyushtirilgan komissiya a'zolari asosan kinoshunos olimlar, tanqidchilar, malakali rejissyorlar, dramaturglar, operatorlar va prodyusserlardan tashkil topadi. Ushbu komissiya ko'rigi uchun oldindan ko'rig kuni aniqlanadi va komissiya a'zolariga taklif xati yuboriladi.

7.2. Filmni reklama qilish va sotish

Filmni reklama qilish va kino bozoriga olib chiqish film ishlab chiqarishning butun davrlari mobaynida davom etadi. Film direktori buning uchun barcha imkoniyatlarini ishga solib, jarayon bilan doimiy aloqada bo'ladi. Shtatdagi reklama bilan



shug'ulananayotgan xodimlar uchun filmning tasvirga olish jarayonlarida bo'lishga, undagi ijodkor va barcha xodimlar bilan aloqa o'rnatishga, suhbatlar qurishga yetarlicha imkoniyat yaratilgan bo'lishi kerak. (7.1-rasm) Bo'lajak film haqida tomoshabinlarga kerakli ma'lumotlarni yetkazish, ya'ni reklama qilish uchun bu juda muhim. Bu jarayonda film direktori reklamachilarga qo'ldan kelganicha sharoitlarni yaratib berishi lozim. Prodyusser va distribyutor ham o'z navbatida film ijodkorlari bilan mustahkam aloqalar o'rnatishga va filmning reklamasi uchun bor mahoratini, kuchini ishga solishi filmning muvaffaqiyati uchun muhim sifat hisoblanadi.

7.3. Filmni ekranda namoyish etish (prokat)

Filmni prokat qilish yoki ekranda namoyish qilish – film ishlab chiqarish jarayonining kulminatsiyasi deb hisoblash mumkin.

Prodyusser biror bir filmni ishlab chiqarar ekan, u filmning xaridori yoki tomoshabini borligiga to'la ishonch hosil qilgan bo'lishi kerak. Shundagina uning sarflangan mablag'i foyda olib keladi, aks holda prodyusserning barcha harakatlari va sarflangan mablag'i zoye ketishi mumkin.

Filmning birinchi namoyishi odatda "Kinochilar uyi" yoki taqdimot o'tqaziladigan kino teatrida bo'lib o'tadi. (7.2- rasm) Ushbu ilk film namoyishi filmning barcha ijodkorlarining sahnaga chiqib tanishtirilishi bilan boshlanadi.

Prodyusser uchun bunday tashhiz filmning ssenariysi ustida ishlash jarayonida xulosa qilingan bo'lishi lozim va qolgan barcha jarayonlarda kutilayotgan yaxshi natijaga ishonch bilan munosabatda bo'lish kerak. Biroq prodyusserning bunday tashhiz xulosalari doim ham to'g'ri chiqavermasligi mumkin. Bu aslida murakkab oldindan 100% aytib

bo'lmaydigan holatdir. Shuning uchun prodyusser kino bozorida bugungi talabni yaxshi bilishi kerak. Asosiy tomoshabinlar kimlar, ular necha yoshda, filmni katta ekranda tomosha qilishadimi yoki teleekran orqalimi. Bu va boshqa savollarga prodyusserda javob bo'lgani yaxshi.



7.2- rasm. 3D film namoyishidagi tomoshabinlar

Nazorat savollari:

1. Filmni topshirish davrida prodyusser va film direktorining ishlari nimalardan iborat?
2. Filmni kino bozoriga olib chiqish qachondan boshlanadi?
3. Prodyusser loyihadan foyda kelishini qachon aniqlay olishi mumkin?
4. Film ishlab chiqarishning asosiy bosqichi qaysi?
5. Film ishlab chiqarilmasdan burun reklama zarurmi?

To'rtinchi bo'lim

RIVOJLANGAN DAVLATLARDA FILMLARNI ISHLAB CHIQRISH XUSUSIYATLARI


Menejment - ishlab chiqarish usullari, shakllari va boshqarish vositalari birligi hisoblanadi va ularni eng samarador ishlatishga imkon beradi. Bu ibora rivojlangan mamlakatlarda paydo bo'ldi va ushbu yo'nalish turli ko'rinishlarda hanuzgacha rivojlanib kelmoqda. Yurtimizdagi ayniqsa nodavlat telekanallar va kinostudiyalar prodyusserlik sohasining jahon tajribalariga tayangan.

1. BUYUK BRITANIYA, AMERIKA, ROSSIYA, XITOIY VA BOSHQA MAMLAKATLAR TAJRIBASI

1.1. "Masha va ayiq" – kinodagi samarador menejment

"Masha va Ayiq" dunyoda shuxrat qozongan rossiya multfilmi hisoblanadi. (11.1-rasm) "Kidz Global" kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra uni Indoneziyada 95%, Italiyada 88% bolalar biladi. "Netflix" servisi filmni "Rus fenomeni" deb ataydi. 2015 yilning fevralida "Masha va Ayiqning" yaratuvchisi

11.1-rasm. Masha va ayiq



«Animakkord» studiyasi Mayamidagi «Kidscreen» bolalar ko'ngil ochar televideniyesi sammitida eng yaxshi animatsion serial mukofotini oldi. 2015 yilda «Animakkord» litsenziyasi bo'yicha "Masha va Ayiq" brendi ostida tovarlarni sotishdan ishlab chiqaruvchilarni foydasi 225\$ millionni tashkil etdi. 2016 yilda kompaniyaning boshqaruvchi direktori Dmitriy Loveyko uni xorijdagi hamkorlar hisobiga 25%ga oshirishni rejalashtirmoqda. Qanday qilib uncha katta bo'lmagan kompaniya dunyoning eng yaxshi animatsion studiyalari o'ntaligiga kirdi va bozorlarni egallashni davom ettirmoqda?

Birdan otilib chiqish.

Kompaniyaning boshqaruvchi direktori Dmitriy Loveyko o'zi istamagan holda ommaviy shaxs bo'lib qoldi, multfilmning muvaffaqiyati bu kreativ guruhning xizmati ekanligini aytadi. «Animakkordda» 120 ta ishchi ishlaydi, ulardan 70 tasi multiplikatorlar hisoblanadi.

Yetti yil ichida "Masha va Ayiq" davlatdan tashqaridagi eng ma'lum va yorqin rossiya brendlaridan biri bo'lib qoldi, uni dunyoning yuzdan ortiq davlatlarida namoyish etishmoqda, multfilm 25 ta tillarga tarjima qilingan. O'yinchoq Mashani, masalan, yirik ispan El Corte Inglés gipermarketlar tarmog'ida uchratish mumkin, olti minutlik multfilmlarni nafaqat yevropa telekanallari bo'yicha, ularni hatto kinoteatrlarda namoyish etishmoqda. "Masha" Italiyadagi Rojdestvo ijarasi o'ntaligiga kirdi. Depot WPF brending agentligi boshqaruvchi hamkori aytadiki, "Tomoshabinlar yangi seriyalar, esdaliklarni sotib olish bilan katta mablag'larni sarflashmoqda va tadbirkorlarni litsenziyalarni sotib olishga ruhlantirmoqda. Serdaromad tijoratni qurish va multfilmlarni yaratish bu o'sha bitta narsa emas". Loveyko bekorga kamtarlik qilayapdi, kuchli brendni aynan u qurgan.

Nima uchun "Masha va Ayiq" turli madaniyatli davlatlarda muvaffaqiyat qozonmoqda? Birinchidan, syujet ham bolalarga, ham ota-onalarga tushunarli va yaqin, har bir epizod bu bolaning kattalar bilan o'zaro ta'sirlashi haqidagi hikoya hisoblanadi. "Masha va Ayiq" rus ertaklari qahramonlarining munosabatlarini davom ettiradi, bunda Mashaning o'ta sho'xligi zamonaviy bolalar bilan to'liq mos tushadi. Qahramonlar atigi ikkita va ular juda yorqin, bu brendning kuchli tomoni hisoblanadi. Bundan tashqari, qahramonlar qiziqarli qarama-qarshilikda bo'ladi. Butun e'tibor ularga qaratiladi.

Ikkinchidan, multfilm yetti minut davom etadi, bolalar charchamaydi. Ekran oldida o'n minutdan ortiq o'tirish ularga qiyin bo'ladi. "Alisa nima qilishni bilmaydi" multfilmi 26 minut davom etadi, prodyuserlar uni atayin qirqishadi va bo'laklab YouTubega joylashtirishadi.

Muvaffaqiyatning navbatdagi omili bu «Tom va Jerri» yoki «Senimi, shoshmay tur!» kabi "geglik", bu beo'xshov vaziyatlar, kulgili noz-qarashmalar va qiliqlar turkumi hisoblanadi.

Uzoq vaqtli muloqot qilishlarning yo'qligi Mashani istalgan yoshga to'g'ri keladigan va turli davlatlar yashovchilariga tushunarli qiladi. Muloqot qilishlarda tomoshabinlar uch yoshgacha, uchdan yetti yoshgacha, yettidan-to'qqiz yoshgacha aniq belgilanadi. Shuning uchun Luntik tor segmentda ishlaydi. Geglar barchaga qiziqarli, lekin ularni qilish qiyin, ritmi saqlash kerak, yuz ifodasi muhim va h.k.. Bundan tashqari, ko'pchilikka Alina Kukushkina ovoz bergan Mashaning ovozi yodda qoldi. Multfilm aynan unda bolani rivojlanishining oldingi bosqichidagi kuch-qudrati ajratib ko'rsatilganligi uchun bolalarga foydali

bo'ladi. Agar bu bosqich (o'z kuch-qudratini tasavvur qilish) bolaga qoniqish bilan o'tishga berilmasa, u holda katta hayotga o'z kuchsizligini surunkali sezishli umidsiz ruhiy siqilishli katta yoshga chiqadi.

“Masha va Ayiq” tarixi 1996 yilda boshlangan. Rassom, operator va rejissyor Oleg Kuzovkov Qrimda dam oldi va sohilda qizaloqni ko'rdi, mana uning eslashi: “Bola – oddiy qizil tanlilar sardori: kimdir, masalan, tovuq go'shti yeydi, u yaqin keldida so'ramasdan yedi. Ikki kundan keyin sohildagi odamlar undan qochib maxsus chegara ortiga suzib ketishdi, qumga ko'milib olishdi, o'zlarini o'lganga solishdi. Lekin u tiriklarni ko'tardi, qumga ko'milib olganlarni kovlab oldi, chegara ortiga suzib ketganlar o'zlari qaytishdi”. U multfilmning ssenariyasini yozdi. lekin loyihaga qayerdan pul topishni tasavvur qila olmadi, 90-nchi yillarda multiplikatsiyani na davlat, na xususiy shaxslar qo'llab-quvvatlamadi. Oradan o'n yil o'tgach hamkasbi Andrey Dobrunov (2014 yildan «Soyuzmultfilm» studiyasini boshqarmoqda) bilan Kuzovkov investorni topdi u tadbirkor Sergey Kuzmin bo'ldi.

Kim u va studiyadan boshqa nima bilan shug'ullanishini «Animakkordda» aytishmaydi. Hozirda Kuzminga «SPARK-Interfaks» asosga muvofiq kompaniyaning 80%i tegishli hisoblanadi. U bilan birga kompaniyaga Kuzminning Novosibirsk davlat universitetidagi kursdoshi Loveyko keldi. Oldin Loveyko Novosibirskdagi bir necha oziq-ovqat kompaniyalarida tijorat direktori, keyin esa Moskvadagi IShChB “Parvoz” aviakompaniyasida rivojlantirish bo'yicha direktor bo'lib ishlagan. U «Animakkorddagi» tijorat-jarayonlarini o'z o'rniga qo'ya boshladi.

“Masha va Ayiqning” birinchi ikkita seriyalari bir yilda tayyorlandi, ular 2009 yilning oxirida Rossiya telekanalida “Xayrli tun, kichkintoylar” dasturida paydo bo'ldi. Boshqa ommaviy rossiya multiseriallari «Luntik» (2006) va «Quvnoq sharchalar» (2004) premyeralari ham bu dasturda bo'lib o'tgan. «Animakkord» «Senimi, shoshmay turni» oldindan mo'ljallashgan. VGTRK “Mashani” efirga uzatishga tezda rozi bo'ldi. Loveykoning so'zlaricha, birinchi bir necha seriyalar dasturning reytingini bir yarim marttaga oshirgan. Rossiya ijtimoiy tarmoqlarida ota-onalar Masha bolalarni injiqlik qiliga o'rgatayotganligidan shikoyat qilishsada multfilmni millionlab bolalar ko'rishmoqda.

Eng ommaviy Rossiya multfilmalari.

11.1-jadval.

	YouTube		Yandex
	Tomosha -binlar, yosh	Kanal obunachilari, mln	Ko'rishlar soni, mlrd
<i>Masha va ayiq</i>			
<i>Fiksiklar</i>	3-9	1,6	2,1
<i>Лунтик</i>	2-5	1,4	3,8
<i>Quvnoq sharchalar</i>	3-12	1	1,6

2012 yilda "Katta kir yuvish" seriyasining rus tilidagi versiyasida reytingda yetakchilik qildi, o'n oy ichida uni 36,5 milliontadan ortiq ko'rishdi. Shundan buyon "Masha" qator rekordlarni o'rnatmoqda, 2015 yilda seriyalardan biridagi eng ommaviy rus tilidagi video bo'lishi bilan bir milliard ko'rishlarni to'pladi. 2012 yilda «Animakkord» yangi "Mashaning ertaklari" "yoqimli loyihani" chiqardi. Masha rus xalq ertaklarini so'zlab beradi. oradan ikki yil o'tib studiya o'ylab qolishdiki. 2008 yildan multfilmni ko'rishni boshlagan bolalar katta bo'lib qolishdi va endi ular qo'rqinchli narsalarni yaxshi kurishadi. Ular yana bitta spin-off – "Mashaning qo'rqitishlarini" yaratishdi.

Loveyko o'z kompaniyasini norasmiy ataydi. «Animakkord» bitta mavsumda hammasi bo'lib sakkizta seriyalarni (60 minut) yaratdi, unda telekanallari formati 26 (182 minut) seriyani tashkil etdi. "Birinchi yil biz ikkita seriya, ikkinchi yili to'rtta seriyai oldik, lekin ular shunday sifatda ediki, ularni birdan yaxshi ko'rib qolishdi, birinchi epizodlarni ishlab chiqarish kompaniyaga 3 million dollarga tushdi. Telekanallar sodiq tomoshabinlarni shakllantirishga yordam berdi, lekin «Animakkord» ularni hech qachon muhim ishlab topish manbai sifatida qaramadi. 2012 yildan multfilmning barcha seriyalarini YouTube rasmiy kanalida bepul ko'rish mumkin.

«Animakkord» birinchi navbatda litsenziyalar savdosidan ishlab topadi. Taxminan 60% daromadni bu yo'nalish, yana 40%ni kontentning o'zi (multfilmlarni ko'rsatishga huquqlarni sotish, reklama o'tkazmalari, shu jumladan YouTube'dagi reklama) keltiradi. Kompaniyaning 40% daromadi bunda endi xorijdan keladi, bu litsenziya egalari va turli

davlatlardagi YouTube-kanallardagi reklama o'tkazmalaridan iborat. Litsenziyalar turlari juda ko'p. "murakkab asarning qo'riqlanadigan takibiy qismlari" – personajlar, musiqa, lokatsiyalar va boshqalar mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatish uchun ishlatilishi mumkin. 2009 yildan litsenziyalarni butun dunyo bo'yicha 150 tadan ortiq kompaniyalar sotib oldi. Ular orasida Danone, Ferrero, Perfetti van Melle, Simba Dickie Group va Ravensburger o'yinchoqlar, Crayola kanslyariya tovarlari ishlab chiqaruvchilari va boshqalar bor. Hozircha "Masha va ayiqning" mablag'larining katta qismini Rossiyadagi litsenziatlar keltiradi, lekin kompaniyada hisoblashadiki, bu yil Italiya tenglashadigan foyda keltirishi mumkin. Studiya har bir litsenziyaning sotilishidan o'rtacha 10% o'lchamdagi royaltini oladi, lekin raqamlar segmentga bog'liq bo'ladi.

O'xshash tarzda, ham "Mashaning" Rossiyadan raqobatchilari, ham Disney va Marvel kabi gigantlar ishlab topadi. 2012 yilda «Animakkord» litsenziyalarni sotilishi hajmi bo'yicha "Quvnoq sharchalarga" yutqazdi. lekin 2014 yilga kelib "Masha" ularga yetib oldi. "Quvnoq sharchalar" brendi yaratuvchisi Ilya Popovning aytishicha, uning kompaniyasi daromadini Masha oladigan o'tkazmalarga tenglashtirsa bo'ladi. "Yil yilga to'g'ri kelmaydi, ayrim toifalarda biz yutmoqdamiz".

Brendni qo'llab-quvvatlash va nazorat qilish.

«Siz muxlislar va sodiq tomoshabinlar ommasini shakllantirishga ishlaysiz, mablag'ni esa tijoratdan olasiz, u esa bu guruhni o'z mahsulotlarini sotilishi uchun ishlatadi», - tushuntiradi Loveyko.

Multfilmning fanatlari uchun Facebookda (4,2 mln tashrif buyuruvchilar), «VKontakte» (331 650 tashrif buyuruvchilar), Instagram (48,9 mln tashrif buyuruvchilar) va «Odnoklassnikida» (219 490 tashrif buyuruvchilar) sahifalar mavjud. «V Kontakte»da rasmiy sahifadan tashqari, qidiruv 9000 norasmiylarni beradi. Kompaniyada har kuni ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar layk qo'yish va titkilashni yoqtiradigan beshta asl xabarlar – tabrikonmalar, maslahatlar va boshqa postlar paydo bo'lishini kuzatib boradi.

«Animakkord» multfilm brendi ostida mahsulotlarni chiqarilishi uchun hamkorlarni sinchiklab tekshiradi. "Sizning personajlaringizning dunyosi uzoq vaqt bo'lishi uchun siz mahsulotlarni ham nazorat qilishingiz kerak", - davom ettiradi Loveyko. Quvnoq "Masha va Ayiq" anchadan bo'yon multfilmning o'zi bilan chegaralanmaydi. 2012 yilda «Animakkord» hamkorlari bilan birga o'yinlar, jurnallar va kitoblar shug'ullanadi. 2012 yilda Masha haqidagi 335 ta turli kitoblar chiqdi. "Bu

rossiya bolalar kitoblari bozorining 3,5% dan 5%ni tashkil etadi. O'ta to'ldirib yuborish yaxshi emas", - deydi Loveyko.

Kompaniya qandaydir takliflardan, agar ular foyda keltirishi mumkin bo'lsada inkor qildi. Masalan, Loveyko "qo'g'irchoq-takrorlagichga" qarshi. "Insonlar har xil bo'lmag'ur narsalarni gapirishi, keyin esa buni Mashaning ovozi bilan Internetga joylashtirishi – bizga kerak emas". Yana bir ta'qiqlash bu past sifatli arzon tovarlar ishlab chiqaruvchilari bilan hamkorlik qilish hisoblanadi, masalan, futbolkalar, qisqa muddatli istiqbolda bunda ishlash mumkin, lekin yakunda ko'proq salbiy holatlar olinadi.

Loveyko yirik o'yinchilar bilan ishlashni afzal ko'radi. Ko'pchilik unga "Masha va Ayiq" belgisi ostida shokolad ishlab chiqarishni taklif etdi, menejer brendga Ferrero konserni qiziqish bildirishini kutdi. Italian shirinliklar ishlab chiqaruvchisi, agar brendning obro'si sifatsiz shirinliklar chiqarilishi bilan dog' tushganda edi, qiziqmas edi. 2014 yilda Ferrero Rossiyada 37 millionta Masha va Ayiq shakllarini batonchiklar va shokolad tuxumlarini sodi.

O'z qahramonlari va brendlarini himoyalash bilan «Animakkord» qaroqchilik va soxtalashtirish bilan kurashmoqda, 2014 yilda kompaniya yollagan huquqiy guruh 3000 mingta sud ishlarida qatnashdi. 2012 yilda DVD hali aktiv sotib olinayotgan, kompaniya multfilmli millionta disklarni sotgan paytda, «Animakkord» hisob-kitoblari bo'yicha qaroqchilar to'rt marta ko'p bo'lgan. Hozirgi kunda AliExpressda "Masha va Ayiq o'yinchoqlari" so'rovi bo'yicha 1000 tadan ortiq norasmiy tovarlar taklif etilmoqda.

Xorijga chiqish.

"Masha va Ayiq" g'arbda mashhur bo'lgan birinchi rossiya multfilm hisoblanadi. "Quvnoq sharchalar" ham xorijda rivojlanmoqda, lekin ular xitoylik tomoshabinlarga yoqib qoldi va bu kino bozoriga qaratildi. (11.2-rasm)



11.2- rasm. Kino bozoriga chiqish

Loveyko aytadiki, “Mashani” ko’rsatish haqida xorijiy telekanallar bilan kelishish unchalik qiyin bo’lmadi. Ular faqat ko’p material, bo’lmaganda 26 ta seriyalardan iborat bitta mavsum bo’lishi kutishdi. Birinchi bo’lib multfilmni fransuzlar Canal+ kanalida ko’rsatishdi, ular birinchi 13 ta seriyani olishga rozi bo’lishdi, lekin samara birdaniga paydo bo’lmadi.

2015 yilda italyan gazetasi La Stampa yozdiki, Italiyada “Masha va Ayiqni” “Peppi cho’chqacha”ga qaraganda ko’proq yaxshi ko’rishadi. Jurnalistlar taxmin qilishdiki, italyan bolalari cho’chqachaga qaraganda qizaloq bilan ko’proq umumiylikka ega. Bundan tashqari, rossiyalik otionalardan farqli ravishda italyanlar multfilmni yoqimli va ibratli qabul qilishdi. Multfilm aynan unda bolaning ilk rivojlanishi bosqichida kuchqudrati ajratib ko’rsatilishi bilan bolalarga foydali hisoblanadi. Rai YoYo italyan bolalar telekanali “Mashani” kuniga o’n marttadan ko’rsatadi va reyting tushib ketmaydi. “Biz Masha bilan barcha rekordlarni ortda qoldirdik. Bir vaqtda 800 000 ta tomoshabinlar! Hech bir multfilmni bunday ko’rishmaydi” – deydi kanal direktori Massimo Liofredi.

RAi italyan telekanalidan tashqari, serialni ko’rsatishga huquq amerikaning Cartoon Network, angliyaning Cartoonito, germaniyaning KiKa va Sony Music, fransiyaning France 5 va NBC Universal, ispaniyaning Panda va boshqa kanallarga tegishli. YouTubeda multfilmni 6 milliard marttadan ortiq ko’rishdi. U Nickelodeon va Disneydan raqobatchilarning ko’rsatkichlaridan o’zib ketdi. Bloomberg Businessweek multfilmning You Tubedaga oylik daromad keltirishini 1,5 million dollarga baholaydigan Social Blade tadqiqotchilari ma’lumotlarini keltirdi (hozirgi vaqtda bitta ko’rish 50 sent keltiradi, inqirozgacha 1 dollar keltirgan).

Xorijga chiqishda to’qnashiladigan muammolardan biri dublyaj hisoblanadi. Ingliz tiliga multfilmni komanda Los-Andjelesda tarjima qildi, tarjima qilishdan tashqari, bola uchun “ona tili” sifatida multfilmidagi yozuvlar ham almashtirildi. KiKa nemis kanali “Mashani” ko’rsatishga huquqni uning o’zi serialni tarjima qilish sharti bilan oldi. Loveyko dublyaj yomon chiqqan hisoblanadi va Sony Germaniyada DVDga huquqni so’raganida yangi tarjimaga turib oldi. «Animakkord» “Mashani” yana bir marta mustaqil dublyaj qildi.

Loveyko turli davlatlarning multfilmlarini moslashtirilishi nozikliklarini uzoq muhokama qilishi mumkin. Masalan, BAAdan hamkorlar seriyadan Roza Cho’chqacha qatnashadigan sahnalarni diniy mulohazalarga ko’ra qirqib tashlashni so’raganini yoki materikdagi xitoy

tili Tayvandagi xitoy tili bilan nimasi bilan farqlanishini muhokama etilishini aytadi. Avgustda Tayvanda birinchi mavsum tugadi va "Masha va Ayyiq" bayrami bo'lib o'tdi. Hozirgi kunda kompaniyada serialni Xitoyda ko'rsatilishini ishga tushirishni rejalashtirmoqda. "Kim xitoy ijtimoiy tarmoqlarida xitoylik bolalar savollariga javob beradi, unga Mashali tabriknomalarni yog'diradi? Bizning xitoylik hamkorlarimiz, shuning uchun juda atroflicha kelishish kerak" – deydi Loveyko. Turli davlatlarning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holatlar bo'lib turadi.

Xorijiy bozorlarga chiqishda eng muhimi uzoq vaqt qoladigan va brendga xuddi o'zinkidek munosabatda bo'ladigan hamkorni topish hisoblanadi. «Animakkordda» nafaqat Xitoy bo'yicha, balki Portugaliya, Fransiya va boshqa bozorlar bo'yicha ichki mutaxassislar yo'q, mahalliy vakillarga tayanishga to'g'ri keladi.

Loveyko aytadiki, rossiyalik animatorlar endi Yevropani qanday zabt etishni so'rashmoqda. "Yevropada tijorat Disney yoki Dreamworks kabi yirik tuzilmalar bilan ishlashga o'rgangan, u yerda qoidalar ko'p: yiliga ikki marta staylgaydlarni chiqarish, tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish va h.k.. DVD bilan kelish va ko'ring, qanday yaxshi multfilm deyish mumkin emas. Lekin biz bularning barchasini bilganmiz, hech kimga ayta olmaganmiz" – deydi u.

Saboqlardan biri shunday bo'lgan: birinchi taklif hech qachon yaxshi bo'lmaydi. Tez o'sadigan brendda boylik orttirishni istaydigan to'lqin bosilishini kutish kerak. Keyin jiddiy kompaniyalar keladi. "Masha" brendi ostidagi mahsulotlarni ishlab chiqarish huquqi uchun endi butun dunyodan kompaniyalar kurashadi, lekin Loveyko yaxshi tushunadi. Multfilmni yaxshi bilishadigan Indoneziyada o'yinchoqlarni sotish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchi bilan shartnoma kerak emas, talabni mavjud Rossiya va Germaniyadagi Loveyko ishonadigan ishlab chiqaruvchilar yopadi.

Ko'plab marketing kuchlarini «Animakkord» xorijiy bozorlarga – reklamaga va valyutada to'lovni ilgari surishga yo'naltiradi, kontentni esa rublda ishlab chiqaradi. Kompaniya asosiy daromadni ham rubllarda ishlab topadi, lekin tez orada vaziyat o'zgarishi mumkin.

Yaqin vaqtlarda AQShda aktiv ishlash turibdi. Moskvadagi ofisdan tashqari, «Animakkordda» Mayamida ofis mavjud bo'lib, u AQShda va Lotin Amerikasida multfilmni ilgari surishga yordam beradi. O'tgan yilning iyulida obro'li amerika jurnali Animation Magazine "Mashani" "Klassika bo'lib qolishi kerak bo'lgan Top-250 teleshoular reytingiga kiritdi. Avgustda Netflix onlayn-kinoteatr multfilmni o'z katalogiga oldi.

“Biz servisda butun dunyodan eng yaxshi dasturlarni saqlaymiz, bu bolalar dasturlariga ham tegishli va bizga Masha va Ayiq juda yoqadi” deyishadi” - “sirli ravishda” Netflix press-xizmatida. Reytingda o‘rni va Netflix qiziqishi serialning AQShdagi istiqboli borligini bildiradi.

2015 yilning sentabrida «Izvestiya» gazetasi moliyalashtirish yetishmovchiligi tufayli “Masha va Ayiq” yopilishni yozdi. Loveyko tezda sensatsiyani rad etdi. Lekin Loveykoning «VKontakte»dagi devori baribir jallodning devoriga aylanishga ulgurdi, muxlislar “Masha va Ayiqni” qaytarishni talab qilishdi. Multiserialning uchinchi mavsumi 2018 yilning o‘rtalarida paydo bo‘ishi kerak. “Ertak huzurida mehmonda” seriyalaridan biri hozirda YouTubeda bor, studiya keyingilarini har bir yarim ikki oyda chiqarishni rejalashtirmoqda. Xorijiy kanallar tayyor mavsumni kutishmoqda. Uzoq kutish rossiya multfilmiga qiziqishni faqat qizdiradi. “Masha va Ayiqning” muvaffaqiyati sababi, bu bir tomondan, Oleg Kuzovkovning iste’dodi, boshqa tomondan, Dmitriy Loveykoning samarali menejmenti hisoblanadi. Kontent nuqtai nazaridan bu yerda loyihaning sifati ishlab ketdi, u tijorat nuqtai nazaridan tavakkalchilik edi, multfilm juda katta ishlab chiqarish budjeti bilan yaratildi. Yakunda sifat mablag‘ni tejaydigan samara ishlab ketdi.

Yaqin analoglari — «Tom va Djerry» va «Senimi, shoshmay tur», bu format dastlab universal bo‘lgan. Lekin “Masha va Ayiqda” mazmun ko‘p va u animatsion. (!1.3- rasm) Natijalar ko‘rsatdiki, ko‘plab davlatlarda odamlar yumorni hatto tarjimasiz tushunadi, bu juda yaxshi ishlaydi. Studiya Mashani ochiq ko‘rinishda YouTubeda joylashtirganida, u DVDdan katta foyda oldi. Qandaydir toifalarda “Quvnoq sharchalarning”, qandaydir toifalarda “Mashaning” savdo hajmi katta bo‘ldi. “Mashadagi” yumor universalroq bo‘ldi. Mahsulotning yaratuvchilari o‘zlari “multfilmining” toifalari bilan cheklamadi. Ish boshidanoq jiddiy tijorat brendini shakllantirishda bordi.

Uzoq muddatli strategiya, maqsadli tomoshabinlar ommasini tahlil qilish, pozitsiyalash, kreativ va brend-buk bu yoqimtoy personajlarni pul ishlab topish mashinasiga aylantirish uchun ishonchli vositalar hisoblanadi. Bu iste‘molchi bilan iloji boricha ko‘p kontakt nuqtalarini qamrab olishga intiladigan toza marketing hisoblanadi. Va bu yerda biz hamma joylarda xorijiy brend-texnologiyalarni ustalik bilan qo‘llanilganini ko‘ramiz.

Rossiya bekgroundi, milliy kolorit, kiyimlar va butun dunyoga tushunarli bo‘lgan tarix. Bosh qahramonlarning hayoti bu ayol va erkak, ota-onalar va bolalar, kuchlilar va kuchsizlar orasidagi munosabatlar aksi

hisoblanadi. “Makkor janjalkash va ko‘ngilchan jinivoy” yutqazishsiz tarkibdan foydalanilgan, faqat universal vizual obrazlar va kodlar topilgan, personajlar yaxshi ko‘rishni uyg‘otadi. Agar bu yerga yagona syujetli liniya, yaxshi saundtrek va sifat bo‘yicha teng seriyalar qo‘shilsa, u holda biz butun dunyoga ko‘paytirish uchun yaraydigan juda yaxshi mahsulotni olamiz.



11.3- rasm. Qog‘irchoqli va animatsion usuldagi multfilmlar ustida ishlash

O‘zingiz o‘ylab ko‘ring: bu kattalar va bolalarga yoqadi, madaniyatga, an‘analarga va geografiyaga qat’iy bog‘langanlikka ega emas. Ommaviy tomoshabini detallarga sinchiklab e‘tiborini ajratmaydi, unga sifatli multfilmni umumiy his etish yetarli bo‘ladi. Bu sifat esa bu brendni boshqa multfilmlardan hayron qolarli farqlaydigan minglab mayda-chuydalardan tashkil topadi. Professional ko‘zga chizilgan qahramonlar gaydlaynlarga aniq mos kelishi va barcha seriyalarda o‘xshashligi ko‘rinadi. Masha, masalan, faqat va faqat shunday kuladi, boshqacha emas. Ayiqda tuyoqlarida qanchadir barmoqlari bor va tabassumi faqat ma‘lum rakurslarda yarqiraydi. Xarakterlardan har biri bo‘yicha butun konstitutsiya yozilgan, bu yerda barcha “mumkin – mumkin emaslar” hisobga olingan! Bu hunarning ichki qonunlari hisoblanadi, unga Disneyda ham rioya qilinadi va bizda mutlaqo inkor qilinadi. Bu yerdan keng ekranlarga tushadigan natijalardagi bunday katta farq kelib chiqadi.

1.2. Menejment va mavjud kino bozorini himoya qilish

“Tinch okeani chegarasi”, “Mustaqillik kuni”ning davomi, “Tranformerlar”ning to‘rtinchi qismi va “Aldov illyuzisi -2”larni nima birlashtiradi? Gollivud jahondagi eng qiyin va eng foydali kinohududga


kirish uchun ikkinchi rollarga xitoyliklarni oldi yoki voqealarni Xitoyga ko'chiradi. Layf so'zlaydiki, Dunyoviy imperiya bunday ijara maydonchasi bo'lib qoldi.

Birdaniga bir necha taxminlar guvohlik beradiki, 2017 yilga kelib dunyodagi eng yirik kino bozori Xitoy bo'lib qoladi. Aynan xitoy tomoshabini uchun Gollivud va butundunyo kino industriyasi mana yaqin yiliarda o'z kurashini boshlaydi. Faqat kutish qoldiki, AQShda birdaniga xitoy tilidagi blokbasterlarni ishlab chiqarishni boshlashini taxmin qilish qoldi.

Barchasi "Titanik" dan boshlandi.

1997 yilgacha Xitoy Gollivud uchinchi muhimlik darajasidagi obyekt bo'lgan. Mablag'larni u uncha katta bo'lmagan olib kelgan, xorijiy kinolarga kvota tufayli Xitoy kinoteatrlarigacha yiliga taxminan o'nlab filmlar yetib bordi.

Barchasi "Titanik" premyerasidan boshlandi. (11.4- rasm) Film xitoyda ishlab chiqarilmagan film uchun misli ko'rilmagan 43 million dollar ishlab topishi bilan ekranlar bo'ylab quyundek yopirildi. Amerika ijarasi Gollivudga 320 million aholi AQShda juda katta daromadni keltiradi. Xitoy kino ijarasi 1,3 milliard potensial tomoshabinlarga xizmat ko'rsatadi. Faqat aholidagi farqni hisobga olganda, agar bir necha murakkabliklar bo'lmaganida Gollivud Xitoyga har bir filmni berardi va pullarda cho'milar edi.



11.4- rasm. Titanik filmni tasvirga olish jarayoni

Birinchiidan; Xitoy hukumati yiliga davlatga atigi 34 ta xorijiy filmlarga ruhsat etadi. Bu joylar uchun gollivud studiyalari xitoylik tomoshabinga o'zlarining eng yuqori budjetli blokasterlarini ko'rsatishga urinish bilan har yili bir-birlari bilan beshafqat kurash olib boradi.

Ikkinchiidan; Amerika studiyalari Xitoydagi filmlardan butun dunyo bo'yicha ularga foydali va odatiy bo'lgan 40—50% o'rniga atigi 25% mablag'larni oladi.

Uchinchiidan; davlat xorijiy kino ijarasini unchalik yoqlamaydi va kinoteatrlar egalariga milliy filmlar ijarasiga imtiyozlarni taqdim etadi. Amerika blokasterlariga uzoq vaqt ajratish ba'zan unchalik foydali bo'lmaydi.

Bunga qo'shimcha ravishda xitoy hukumati har yili yozda 60 kunga xorijiy filmlar uchun ijarani yopadi. Bu davrda butun Xitoy kinoekranlari bo'ylab vatanparvarlik va tarixiy filmlar ketadi.

Bu choralar yordamida Xitoy istalgan xorijiy blokbasterni o'z ekranlariga chiqishini to'siqlar osha yugurishga aylantiradi. Tanlangan filmlar sirasiga kirish oson emas. Masalan, Xitoy juda ochiq filmlar yoki zo'rvonlikka to'la filmlarning ijarasini ta'qiqlaydi. Shunday tarzda bu yil oldingi kelishuvlarning boshlang'ich bosqichlarida Xitoyda mislsiz mablag'larni keltirish kutilgan "Dedpul" filmi tanlangan filmlar sirasiga kirmadi.

Gollivud — xushomadgo'y.

Televizion badiiy filmni ishlab chiqarish bosqichlari hujjatli filmni ishlab chiqarish bosqichlaridan bir qancha farqlanadi. Hujjatli film kabi o'yin filmi faqat adabiy ssenariya kinostudiyaning badiiy kengashi tomonidan qabul qilinganidan (tasdiqlanganidan) keyin ishlab chiqarishga tushirilishi mumkin. (12.2- rasm)



12.2- rasm. MTRKdagi tasvirga olish jarayonlaridan

Televizion badiiy filmni ishlab chiqarishning birinchi qismi – tayyorgarlikdan oldingi davr yoki rejissyorlik ishlab chiqarish davri hisoblanadi va u rejissyorlik ssenariyasini (sahnalashtirish ssenariyasini) tasdiqlanishi bilan tugashi kerak. Adabiy ssenariyaga asoslangan qo'yilishi

ssenariyasini yozilishida sahnalashtiruvchi kinorejissyor, sahnalashtiruvchi kinooperator, sahnalashtiruvchi rassom, muharrir, baʼzan adabiy ssenariya muallifi, kompozitor, ovoz operatori va suratga olish guruhi direktori qatnashadi.

Rejissyorlik ssenariyasi bu boʻlajak filmning hali qogʻozga tushirilgan va vaqt boʻyicha boʻlingan, filmning har bir sahnasi yoki kadrini planlarga, nomerlarga va joylarga boʻlingan hujjati.

Rejissyorning koʻrishi orqali suratga olish rejasi (umumiy, oʻrta, yirik) tuziladi va buning uchun zarur butun suratga olish texnikasi tanlanadi, koʻrsatilgan xronometraj hisoblanadi. Sergey Gerasimov aytganki, “Rejissyorlik ssenariyasi bu rejissyor tomonidan boʻlajak filmning adabiy asoslarini chuqurlashtirilishgan oʻrganilishining toʻgʻridan-toʻgʻri yakuni hisoblanadi.

Bu adabiy ssenariyani tahlil qilish va uning mavzusiga va materiallari obrazlariga bogʻliq boʻlgan barcha narsalarni oʻrganish natijasida rejissyorning ijodiy tasavvurida yaratiladigan filmning yozilishi hisoblanadi. Bu qoʻyilgan jamoani ijodiy va ishlab chiqarish ishining sinchiklab va oʻylab chiqilgan rejasi hisoblanadi”.

Rejissyorlik ssenariyasining taxminiy shaklini keltirish mumkin:

12.1-

jadval.

№ Kadrlar	Suratga olish rejalari va yoʻllari	Suratga olish obyekti	Metraj (xronometraj)	Kadr, matn, voqea tarkibi	Ovoz	Texnika
1	2	3	4	5	6	7

Rejissyorlik ssenariyasiga suratga olish guruhi direktori tomonidan har bir kadr uchun zarur boʻladigan qoʻshimcha rekvizit koʻrsatilgan ilova qilinadi (yoki rekvizit 7-punktga texnika boʻliniga kiritilishi mumkin).

Tayyor rejissyorlik ssenariyasi badiiy kengash muhokamasiga kiritiladi va qabul qilinganidan keyin tashkilot rahbari (studiya direktori) tomonidan tasdiqlanadi. Oʻyin filmi rejissyorlik ssenariyasi (qoʻyilish ssenariyasi) tasdiqlanishi bilan tayyorgarlikdan oldingi davr (rejissyorlik ssenariyasini ishlab chiqish davri) yakunlanadi va guruh tayyorgarlik davriga oʻtadi.

Tayyorgarlik davri.

O'yin yoki hujjatli filmni suratga olishdagi tayyorgarlik davrining asosiy vazifasi bu suratga olishni boshlashga yuz foizlik tayyorlik hisoblanadi. Suratga olish guruhining tarkibi to'liq jamlanishi, barcha suratga olish obyektlari ko'zdan kechirilgan va tanlangan bo'lishi, rekvizit va zarur texnika tayyorlangan bo'lishi, dekoratsiyalar (dekoratsiyalarni suratga olishni to'xtatmasdan suratga olish davrida ham qurish mumkin), kostyumlar, grim narsalari, zarurat bo'lganida pirotexnika va kaskadyorlar tayyorlangan bo'lishi va barcha transport masalalari, suratga olish guruhi aloqasi masalalari hal etilgan bo'lishi, butun aktyorlar tarkibi tanlangan bo'lishi kerak, shu jumladan, bosh rollar ijrochilari studiyaning badiiy kengashi tomonidan tadiqlangan bo'lishi, yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzilgan va imzolangan bo'lishi, butun suratga olish davriga barcha aktyorlarning bandligi grafigi tayyorlangan bo'lishi, barcha suratga olish ishlarining barcha momentlari muhokama etilgan va hal etilgan bo'lishi kerak (suratga olish vaqtida faqat qandaydir kutilmagan muammolar va vaziyatlar hal etilishi mumkin). Suratga olish guruhining asosiy tarkibiga o'yin va hujjatli filmni ishlab chiqarishning barcha davrlaridan eng qimmatli bu ko'p sonli insonlar va texnika, aktyorlar tarkibining bandligi tufayli suratga olish davrini qat'iy bilishi kerak va bu davr vaqtida turib qolish, uning cho'zilishi qimmatga tushadi. Shuning uchun ob-havo sharoitlarini ham hisobga olish, suratga olishni pavilyonda o'tkazilishi zahirasiga ega bo'lish kerak bo'ladi.

Tayyorgarlik davrida suratga olish guruhiga "Yaxshi tayyorlansang – suratga olish oson bo'ladi" shiori ostida ishlash kerak bo'ladi. Rejissyor va sahnalashtiruvchi operator kallasidagi kabi tayyorgarlik davrida bo'lajak filmning barcha kadrlari va sahnalari yaratilishi kerak, film kompozitori, bo'lajak filmning rejissyorlik ssenariysi bilan tanishganidan keyin film musiqasining davomiyligi ko'rsatilgan film bo'yicha tuzilgan shartnoma asosida va filmning sahnalashtiruvchi rejissyori va ovoz operatorining istaklariga (topshiriqlariga) muvofiq musiqiy qatorni yaratishga kirishishi mumkin. Albatta, haqiqiy musiqqa kompozitor montaj qilingan epizodlar va sahnalarni ko'rganidan keyin ham yaratilishi mumkin, lekin montaj qilish davrida musiqiy parchalarning yo'qligi yoki tayyor emasligi tufayli kompozitorning aybi bilan hech qanday kechikishlarni bo'lmasligiga intilish kerak.

Tayyorgarlik davrining ikkinchi yarmida suratga olish guruhining direktori asosiy tarkib - rejissyor, operator, ovoz operatori bilan birgalikda bo'lajak filmning suratga olish taqvimiy-sahnalashtirish rejasi va bosh

smetani tuzishga kirishadi. Bu u bo'yicha filmning absolyut barcha ishtirokchilari – rejissyordan haydovchigacha film bo'yicha oxirgi ish kunigacha ishlashga to'g'ri keladigan asosiy hujjatlar hisoblanadi.

Filmning tayyor taqvimiy-sahnalashtirish rejasi va bosh smetasi kinostudiyaning direktori tomonidan tasdiqlanadi va bu guruh tayyorgarlikni tugatgan va filmni bevosita suratga olishga kirishishiga tayyorligidan darak beradi.

2.3. Suratga olish davri

Bu davr butun guruh tayyorgarlik davrida qanday ishlaganligini ko'rsatadigan davr ham hisoblanadi. Va ayrim filmlar yaratuvchilarining fikricha, "film tug'iladigan" davrlardan biri hisoblanadi. Film kim uchun yaratilganligi – o'z tomoshabinga uchraguncha u uch marta tug'iladi deb hisoblash mumkin. Birinchi marta - muallifning kallasida g'oya yoki adabiy ssenariya, ikkinchi marta – filmni suratga olishda va uchinchi - oxirgi marta filmni montaj qilishda tug'iladi.

O'yinli kinodagi suratga olish davri bu sahanalashtiruvchi rejissyor va operatorlar, aktyorlar va film direktori uchun asosiy davr hisoblanadi. Suratga olish guruhi qanchalik xotirjam va hamjihat, "sip-silliq" ishlasa, suratga olish guruhi direktorining malakasi va ishini shunchalik yuqori baholash mumkin.

Guruh qanchalik a'lo tayyorlangan bo'lmasin, kutilmagan vaziyatlarni vujudga kelishini oldini olib bo'lmaydi. Bosh shaxslar - prodyuser, rejissyor, operator va direktorning vazifasi ularni budjet, ishlab chiqarish muddatlari va suratga olish jamoasi uchun og'riqsiz hal etish hisoblanadi. Agar filmning taqvimiy-sahnalashtirish grafigida (rejasida) kutilmagan vaziyatlarga (ba'zan - bosh qahramonlarning kasalligi, texnikaning ishdan chiqishi, qandaydir oilaviy vaziyatlar va afsuski, suratga olish vaqtida bo'lib o'tishi mumkin bo'lgan boshqa ko'plab vaziyatlar) zahira bo'lsa juda yaxshi bo'ladi.

Davlat kinostudiyalarida suratga olish smenasiga ishlab chiqarish me'yori mavjud. Bu bir kunda suratga olingan foydali metrajning metrlardagi (kino tasmaga suratga olishda) yoki videoga suratga olishdagi minutlardagi miqdori hisoblanadi.

O'sha bir sahna besh marta, o'n marta suratga olinishi mumkin va beshta yoki o'nta dubllar bo'ladi. (12.3- rasm) O'ta murakkab va takrorlash xavfli bo'lgan alohida xavfli tryukli sahnalar – yong'inlar, portlashlar, yiqilishlar esa bir marta, lekin bir necha kameralar orqali,

masalan, beshta turli nuqtalardan suratga olinadi va o'sha beshta dubllar olinadi.



12.3- rasm. Kinorejissyor Sh.Abbasovning film ishlash jarayoni

Va agar qandaydir sababga ko'ra, suratga olish kunlaridan birida suratga olish rejasida (ishlab chiqarish me'yori) bajarilmasa, bu kamchilik ko'chib o'tishlar, mashqlar yoki dam olishni qisqartirish hisobiga qoplanishi kerak.

Butun suratga olish guruhining vazifasi bu butun filmni suratga olish taqvimiy-sahnalashtirish rejasida belgilangan muddatda tugatilishi hisoblanadi va butun olingan material ham ko'rib chiqilishi kerak, chunki suratga olishni oddiy yakunlash kam, bevosita ekranda nima suratga olinganini ko'rib chiqish ham zarur bo'ladi.

Suratga olish davri vaqtida prodyuserlar (studiya rahbariyati) tomonidan suratga olishning borishini doimo va sinchiklab nazorat qilish zarur, prodyuserlar suratga olish guruhining ishi haqidagi kundalik hisobotni olish kerak va zarurat bo'lganida aralashish yoki tuzatish kiritishi kerak.

Bizga yaxshi tanish bo'lgan kino asarlar bo'yicha ikkita misollarni keltirish mumkin. Rejissyor Jeyms Kameronning "Titanik" filmi juda yuqori budjetli va yuqori xarajatli film. (12.4- rasm) Suratga olish davrining oxiriga kelib u yoki bu sabablarga ko'ra, suratga olish budjeti tugab qoldi, film esa yakunlanmagan.

Suratga olish davri Jeyms Kameronning shaxsiy vositalariga davom ettirilgan va bu juda sezilarli vositalar bo'lgan (ular keyin filmning ijarasi vaqtida oqlandi). Rossiyada ham bunday vaziyatlar ma'lum. Filmning prodyuseri va rejissyoriga ishlarni yakunlash uchun filmning rejalashtirilgan smetasining

(budjetining) ortiqcha sarflanishi tufayli o'z ko'chmas mulkini sotishga to'g'ri kelgan. Ishlab chiqarish me'yorini taqdim etishga boshqa misol. Mashhur rossiya seriali "Garang" ("Gluxar")




uchta mavsumi ustida suratga olish guruhi uch yil, deyarli tanaffuslarsiz, har mavsumda – 48 ta seriyalarda ishladi (bir yilda bitta mavsum) yoki taxminan ikkita suratga olish kunida bitta seriya suratga olindi.

Bunda shunga e'tibor berish kerak bo'ladiki, suratga olish guruhining turli a'zolarida, afsuski, ishlab chiqarish muddatlarini cho'zilishida turli manfaatlar bo'lishi mumkin. Agar asosiy tarkib - rejissyor, operator, film direktori uchun muddatlarni bajarilmasligi moliyaviy cheklashlarga olib kelsa, u holda aksincha, taklif etilgan va yollangan mutaxassislar – aktyorlar, grimchilar, suratga olish texnikasiga xizmat ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar, binolar yoki rekvizitlarni ijaraga beruvchi shaxslar uchun bu qo'shimcha mablag'larni olib kelishi mumkin. Nihoyat, barcha suratga olish ishlari yakunlandi, barcha olingan material ko'rib chiqildi, suratga olish davri yakunlanganligi haqida dalolatnoma tuziladi va bu dalolatnoma asosida studiya bo'yicha suratga olish guruhini a'zolarini bo'shatish to'g'risida bo'yruq chiqariladi. Ishlab chiqarishdan ozod etish barcha xodimlarga birday taalluqli bo'lmasligi mumkin. Chunki hali oldinda talaygina ishlar, ba'zida esa murakkab ishlar turishi mumkin.

2.4. Montaj qilish va ovozni sozlash jarayoni

Bu davr istalgan film uchinchi marta va yakuniy tug'iladigan davr hisoblanadi. Montaj qilish davriga filmni montaj qilishda qatnashadigan barcha xodimlar birlashtiriladi, shartnomalar tuziladi.



12.5- rasm. Montaj va efirga uzatish apparatxonasi

Zamonaviy elektron texnologiyalarning keskin rivojlanishi bilan videoga suratga olishda rejissyorlar montaj qilishni birinchi suratga olish ishlaridan keyin boshlashadi, zamonaviy texnologiyalar suratga olish ishlaridan keyin kechqurun qoralama montaj qilishni o'tkazishga imkon beradi. (12.5- rasm) Hech bir filmning hech qanday montaj qilish sahnalashtiruvchi rejissyorsiz bo'lishi mumkin emas, lekin montaj qilish bo'yicha ham bizning davlatimizda boshqa davlatlardagiga qaraganda farqlar mavjud. Bizda montaj qilish rejissyorning rahbarligida va uning uning bevosita qatnashuvida o'tkaziladi. G'arbda montaj qilish rejissyori deyiladigan kasb mavjud, u ham montaj qilishni o'tkazadi, ham tayyor montaj qilingan materialni rejissyorga topshiradi (ko'rsatadi). Lekin dubllarni tanlashni, qaysi dubl yakuniy montaj qilishda ishlatilishini faqat sahnalashtiruvchi rejissyor va sahnalashtiruvchi operator hal qiladi. Istalgan holda ijodiy jarayonning montajchi-qatnashuvchisi rejissyor, operator va ovoz operatori bo'ladi. Lekin afsuski, montajchiga qo'yilma taqdirlash bizda me'yoriy hujjatlarda ko'zda tutilmagan.

Maxsus montaj qilish xonasida o'tkaziladigan montaj qilish bilan parallel ravishda filmning ovoz operatori maxsus jihozlangan bino tonatelyeda "fon shovqinlari" ustida ishlashni amalga oshiradi, bu barcha ovozlar (dialoglar – aktyorlarning ovoz berishidan tashqari), sinxron shovqinlar va musiqani bir butunlikka keltirish hisoblanadi. Tayyor montaj qilingan (aktyorlar ovoz bermagan) variant studiyaning badiy kengashiga ko'rsatiladi va ma'qullanganida film keyingi bosqich – dublyaj qilish (sinxron ovozlashtirish) va sinxron shovqinlarni yozish guruhiga uzatiladi. Yana bir marta ta'kidlash kerak bo'ladiki, montaj qilish davridagi barcha jarayonlar va bosqichlar sahnalashtiruvchi rejissyorning nazorati va rahbarligi ostida bo'lib o'tadi. Shuningdek, bu vaqtda rejissyor kompozitor

va ovoz operatori bilan birga musiqani qo'yib chiqish bilan shug'ullanadi, kompozitor tomonidan yozilgan har bir kuy o'z epizodidagi o'z joyini egallashi kerak.

Sinxron ovozashtirish (12.6- rasm) va musiqa qo'yib chiqilganidan keyin filmning butun ovoz qatori – fon shovqinlari, sinxron shovqinlar va aktyorlarning sinxron ovoz berishi qayta ko'rib chiqiladi. Musiqa tayyor bo'lgani bilan, lekin turli kassetalarda, yo'lakchalarda yoki disklarda bo'ladi. Ovoz operatori montaj qilish davrining oxirgi bosqichi – yakuniy qayta (toza) yozish yoki keltirishga o'tadi.

Bu qayta yozish tugaganidan keyin filmning



12.6- rasm. Sinxron ovozashtirish

butun ovoz qatori endi bitta yo'lakchada joylashadi. Va film studiyaning badiy kengashiga yakuniy topshirishga tayyor bo'ladi. Studiyaning badiy kengashi ko'rib chiqqanidan va ma'qullaganidan keyin film o'zi tomoshabini bilan urashishga tayyor bo'ladi. Lekin efirga yoki ekranga chiqish vaqti endi suratga olish guruhiga bog'liq bo'lmaydi. Filmni qabul qilish haqidagi dalolatnomada ko'rsatiladigan topshirilishi muddati uni badiiy kengash qabul qilgan sana ham bo'lishi mumkin.

Film badiiy kengash tomonidan qabul qilinganidan keyin rejissyor, operator va suratga olish guruhi direktoridan boshqa suratga olish guruhining boshqa barcha a'zolari ajraladi va "dastlabki materiallarni topshirish va ishini bartaraf qilish" deyiladigan davr boshlanadi. Qandaydir moddiy boyliklar yoki materiallarni olgan suratga olish guruhining barcha a'zolari ularni mos bo'limlarga yoki bo'linmalarga topshiradi. Bunda qaytarilmaydigan sarf materiallarini, masalan grimchi rassomdagi paxta, atir, surtmalar, taroqlar hisobga olinishi kerak. Bunday materiallarga mos ravishda ro'yxatdan chiqarish dalolatnomasi tuziladi. Va guruh film ustidagi ishlashi tugaganidan keyin qaytarilishi shart bo'lgan boyliklar, masalan, dazmollar, termoslar, grim materiallari qoldiqlari, to'shaklar, barcha kostyumlar, kostyumlar va dekoratsiyalar eskizlari va boshqa suratga olish guruhlari foydalanishi mumkin bo'lgan ko'p marta foydalaniladigan buyumlar (ularga dekoratsiyalarni qurish uchun ishlatilgan metallar ham, yog'och to'sinlar ham kiradi) ham mavjud. Bu

davrdagi eng katta ma'suliyat va yuklama suratga olish guruhi direktoriga tushadi. Film ustida ishlash vaqtida munosabatlar bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslardan moliyaviy-hisobot hujjatlari olingan va barcha hisoblar yakunlangan bo'lishi (suratga olish guruhi qo'yilma taqdirlashdan tashqari, chunki bu masala bilan kinostudiyaning reja-moliya bo'limi shug'ullanadi), barcha moddiy boyliklar topshirilishi yoki hisobdan chiqarilishi, barcha ma'lumotlar olingan bo'lishi, barcha qaydnomalar va naryadlar yopilgan bo'lishi, film bo'yicha barcha sarflar kalkulyatsiyasi buxgalteriyadan olingan bo'lishi kerak. Obrazli aytganda direktor barcha ishlarni yopilishi yoki bartaraf etilishini o'tkazishi kerak. Bundan keyin suratga olish guruhi endi alohida birlik sifatida o'zining mavjudligini to'xtatadi. Va suratga olish guruhi direktori undagi barcha hujjatlarga asoslanish bilan kinostudiyaning iqtisodiy qo'mitasiga taqdim etiladigan suratga olish guruhining ishi haqidagi yakuniy hisobotni tayyorlaydi.

Bu hisobotga asoslanish bilan kinostudiyaning iqtisodiy qo'mitasi butun suratga olish guruhining ijodiy tarkibiga sahnalashtiruvchilarni taqdirlashni, ya'ni gonorar to'lash haqida qarorni chiqaradi.

Boshqa qo'mita to'lov guruhi yoki aksincha filmning reytingini aniqlaydi, filmning reytingi qanchalik yuqori bo'lsa, mos ravishda butun suratga olish guruhining ijodiy tarkibiga gonorar shunchalik yuqori bo'ladi.

Suratga olish guruhi direktori moliyaviy hisobotni topshirganidan keyin suratga olish guruhining barcha a'zolari ajratiladi – guruh to'liq tarqatib yuboriladi. Filmni efirga chiqishi sanasi va vaqtini teleradiokanal rahbariyati aniqlaydi.

Nazorat savollari:

1. TVda hujjatli film yaratish xususiyatini tushuntiring.
2. MTRKda badiiy filmlarini ishlab chiqarish bosqichlari, tayyorgarlik jarayoni qanday kechadi.
3. Suratga olish davrida qilinadigan ishlarni yoriting.
4. Montaj qilish-mashq davriga izoh bering.
5. Efirdan oldin qanday ish amalga oshiriladi.

XULOSA

Bugungi kunga kelib televideniya, kinematografiya va ularning tarkibiy qismlari san'atning ilg'or turlaridan biri hisoblanadi. Kinoteletasvirga olishlar esa ijodiy hamda ishlab chiqarish sohalarida keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Shu bois bo'lajak TV va kinematografiyachilarda g'oyaviy-badiiy madaniyat, yuqori darajadagi professional malaka hamda ko'nikma bilan bir qatorda TV va kinematografiyaning o'ziga xos ishlab chiqarish texnologiyalari va imkoniyatlarini o'rganish zarurati tug'ilmoqda.

Talabalarni, ya'ni sohaning bo'lajak mutaxassislarining kelajakda kinematografiya va televideniya yuqori darajadagi did va badiiy tafakkurga ega asarlar yaratish qobiliyatiga ega bo'lishlari mazkur fanning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Qolaversa, fan televideniye sohasidagi bo'lajak mutaxassisning film yaratish ishida, ijodiy va texnik muammolarni yechishda kerakli bilimga va tajribaga ega bo'lishini ta'minlaydi. U talabaga kinotelefilmning badiiy va texnik jihatdan sifatli bo'lishini ta'minlovchi jihatlarni, uni yaratishdagi asosiy bosqichlarni o'rgatadi. Shuningdek,, bu fanning o'ziga xos xususiyati shuki, u talabalarga predmetni mustahkam o'zlashtirish bilan bir qatorda o'z ijodiy imkoniyatlaridan to'la foydalanish sharoitini yaratadi.

Oxirgi yillarda o'zbek milliy kinosi va televideniya tubdan isloh qilinmoqda. Yangi zamonaviy standartlar asosida yangicha ishlab chiqarish tizimlari shakllanmoqda. Bu harakatlarning asosiy qaratilgan tomoni tez va qulay, sifatli va kam xarajatli mahsulot ishlab chiqishdan iboratdir.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar umumiy tushunchalar sifatida o'quvchining ushbu soha bo'yicha dunyoqarashini yo'naltiradi hamda film yaratish va tashkiliy ishlarida poydevor bo'lib xizmat qiladi deb ishonamiz.

LUGAVIY ATAMALAR

A

- Accent light** — asosiy yorugʻlik, chizuvchi, aksent beruvchi yorugʻlik
- Act** — harakat, akt, jarayon; harakat qilish, oʻynash, chalish
- Acting area** — ijro maydoni, mizansahna, ijrochi aktyorning rol oynaydigan joyi.
- Action** — filmning harakati, sahna harakati, "motor" odatda rejissyor shunday komanda beradi.
- Action film** — jangari janriga xos film. Amerika kinofilmlarida koʻproq uchratish mumkin.
- Action print** — xomaki (chernovaya) film nusxasi, montaj jarayoni tugamagan yoki umuman montaj qilinmagan material.
- Action still** — kadrdagi tasvirni kattalashtirmoq, baʼzi hollarda sekin va aniq kuzatmoq.
- Actor, film actor** — akter, kinoakter, erkak kishiga nisbatan professional rol ijrochisi.
- Actress, film actress** — aktrisa, kinoaktrisa, ayol kishiga nisbatan professional rol ijrochisi.
- Actuality** — kinoreportaj, voqea joyidan reportaj, hujjatli film, dolzarb.
- Acutance** — tiniqlik, tozalik, tasvir razresheniyasi. Plyonka, matrisa va obektiv linzasida sifat koʻrsatkichi hisoblanadi. Tasvirning tiniqligi bilan belgilanadi.

B

- B picture** — "B" kategoriyali film, kichik budjetli film
- Back lot** — naturadagi tasvirga olish maydoni
- Back-up** — qoʻshimcha, rezerv
- Back-up stuntman** — dubler, kaskader
- Background atmosphere** — atrof muhit, fondagi shovqinlar
- Background music** — fonovoy musiqa
- Background noise** — fonovoy shovqin
- Backing** — orqa dekoratsion fon
- Backlot** — natura maydonchasi (studiya ichida)
- Barney** — ovozni ushlab qoluvchi moslama, chexol

C

- Cable puller** — ishchi, kabellar bilan ishlaydigan ishchi
- Cable cam** — osib qoʻyilgan kamera

Cameo — taniqli akterning epizodik roli
Camera — tasvirga oluvchi apparat, kamera
Film camera — kinoplenkaga tasvirga oluvchi apparat, kinokamera
Camera angle — tasvirga olish burchagi, rakurs
Camera back — otyezd, optik uzoqlashish
Camera crane — kran-shtativ; operatorskiy kran
Camera crew — operatorlar guruhi
Camera cue — kameradagi qizil mayak (chiroqcha)
Camera line-up — kamerani sozlash
Camera operator — operator assistenti
Camera rails — operatorlik telejkasining relsi
Camera report — raskadrovka
Camera set up — kameraning tasvirga olish pozitsiyasi
Camera shifting — naezd, optik yaqinlashish
Camera speed — tasvirga olish chastotasi
Camera stand — kamera shtativi
Camera truck — operator avtomobili
Camera view point — tasvirga olish nuqtasi
Cameraman — operator, kinooperator

D

Dailies — bir kunlik tasvirga olingan material
Depth of field — tasvir ravshanligining fazo chuqurligi, glubina
Detail — detal, kinematografik plan
Developing — kinoplenka yuvish jarayoni, proyavka
Dialogue recording — dialogni yozish
Dialogue writer — dialog avtori
Director, film director — rejissyor, kinorejissyor
Director of photography — bosh operator; postanovkachi operator
Dismantling (of a set) — dekoratsiyani buzish, demontaj
Dissolve — napliv, kadrndan kadrغا sekin-asta o'tish
Distribution agency — fonogramma yozish (qayta)
Distribution rights — filmni prokat qilish huquqi
Documentary, documentary film — hujjatli film
Dolly, camera dolly — operatorlik telejkasi, kran-telejka
Dolly in — kamera yaqinlashuvi
Dolly out — kamera uzoqlashuvi

E

Editing — filmning montaji
Editing bench — montaj stoli

Editor, film editor — rejissyor-montajchi, montajchi
Educational film — ilmiy-ommabop film
Effects track — shovqinlar fonogrammasi, ovoz effektlari
Electrician — yorug'lik yoritish ustasi, chiroqchi
End title — yakuniy titr
Expert — maslahatchi
Exposure — ekspozitsiya, eksponirovat qilish
Exterior shooting — naturada tasvirga olish
Extra player, extra — massovka aktyori
Extras — massovkali sahna, massovka

F

Fairy-tale film — film-ertak
Far distance shot — umumiy plan (dal)
Fast motion effect — harakat tezlashgan effekt
Feature film — to'liq metrajli badiiy film
Feature player — xarakterli akter
Fiction film — sahnalashtirilgan, badiiy film
Fill-in light — to'ldiruvchi yorug'lik
Film appreciation — kinotaniishtiruv, kino nazariyotchi
Film art — kino san'ati
Film break — shikast yetgan kinoplenka, brak
Film cabinet, film car — operatorlar maxsus avtomobili
Film core — plenka yadrosi, plenka o'raladigan g'altak
Film distribution — kinoprokat
Film gate — kameraning yoki proektorning filmovoy kanali
Film length — filmning metraji, plenka uzunligi
Film library — filmoteka
Film loop — plyonka petlyasi
Film maker — kinematograf, rejissyor, kinorejissyor
Film on art — san'atshunoslikka qaratilgan film
Film processing — kinoplyonkani laboratoriyada yuvish, proyavka
Film production — film ishlab chiqarish
Film projection — filmni proeksiya qilish
Film projector — kinoproektor
Film research — kino nazariyasi
Film restoration — filmni restavratsiya qilish
Film rupture — kinoplyonkani uzilishi
Film score — film uchun musiqa
Film society — kino jamiyati

Film stock — plenka, kinoplenka o'rami
Film technician — kino texnikasi mutaxassisi
Film treading — filmovoy kanalga plenkanı zaryadka qilish
Film trap — kinokamera yoki proektorda kadr kuzatuvchi tuynuk
Film unit — tasvirga olish guruhi
Film valuation board — baholovchi komissiya
Filmgoer — tomoshabin
Filming — tasvirga olish
Filming ground — naturada tasvirga olish maydoni
Fine cut — yakuniy montaj
Fine — yakun, yaxshi yakun

G

Gaffer — bosh yorituvchi, bosh chiroq ustasi
Gantries — yoritish chiroqlari osib qo'yiladigan maxsus moslama
Geneva mechanism — maltiy mexanizm, (skachkoviy)
General release — ommaviy tomosha, katta ekranga chiqish
Glasswork — oynada chizish, diaproeksiya
Gobo — qoraytiruvchi ekran, blenda
Goof — kinolyap, yanglishish
Gore — "chernuxa", xomaki
Grid — apparatlar va dekoratsiyalar uchun karkas, sinch
Grip — ishlab chiqarish sexi ishchilari
Ground angle shot — pastki nuqtadan tasvirga olish
Gyro-tripod — kamera shtativi

H

Halation, halo — oreol, yorug'lik gardishi
Hand-held shot — qo'lda tasvirga olish
Hard cut — kadrlarning tez almashuvi
Hash — xalal beruvchi shovqin
Head cameraman — bosh operator
Hidden camera — yashirin kamera
High-angle shot — yuqori nuqtadan tasvirga olish
High-intensity arc lamp — dugali yoritish chirog'i, DIG
High-speed shooting — tezkor tasvirga olish usuli
Horror — ujas, daxshatli film
Horse opera — vestern, kovboy filmlar

I

Illumination — yorug'lik
Image, film image — tasvir, kinotasvir

Image area — kadr kengligi, tasvir kengligi
Image density — kadrning zichligi, tasvirning zichligi
In-betweener — rassom-fazovshik
Incandescent lamp, inky — cho'g'lanadigan lampa
Incidental sounds — shovqinli ovoz
Independent studio — xususiy studiya
Induction — muqaddima
Insert — montaj perebivkasi, oraga joylashtirish
Inspired by — (film) ...ga asoslangan
Instructional film — o'quv film
Insurance shot — zapas kadr, «kontrolniy vistrel»
Intercut — montaj perebivkasi, oradan olib tashlash
Interior shooting — yopiq joyda tasvirga olish, pavilyon
Intermediate negative — dubl-negativ, kontratip, oraliq negativi
Intermediate positive — dubl-pozitiv, oraliq pozitivi
Iris — obyektivning irisli diafragmasi

K

Keen response — o'tkir javob
Keen satire — o'tkir satira
Key drawing — harakatdagi faza asosi
Key light — asosiy yorug'lik, kyuch
Kill a camera — kamerani o'chirish
Kill a role — rolni barbod etish
Kill the light — yorug'likni o'chirish
Knock-out — sensatsiya

L

Lack of sharpness — ravshanlikning yetishmasligi, nerezkost
Lamp — lampa, yoritish chirog'i
Lap dissolve — napliv, yumshoq o'tish
Large screen film — keng hajmli film
Large screen picture — keng formatli tasvir
Layout — leyaut, qirqish, kadr komponovkasi
Leader strip, leader — rakord, qismning boshi
Leading part, lead — bosh rol
Leaking noise — shovqin pomexlari
Lens changing — obyektivni alishtirish
Lens coverage — linzaning ko'ra olish burchagi
Lens hood — blenda, obyektivning yorug'lik to'sini
Lens turret — obyektiv tureli

Lenticular screen — linzali proyeksiya ekrani
Light meter — eksponometr
Light truck — lixtvagen, mobil elektrostansiya
Lighting unit — yorug'lik pribori, projektor
Live recording — sinxron ovoz yozish
Loading — kinokamera yoki kinoproektorni zaryadka qilish
Location — natura, tabiiy tasvirga olish joyi

M

Magazine — kasseta
Magnetic film — magnit plyonkasi
Main light — ososiy yorug'lik
Main part — bosh qism
Main title — bosh titr
Make-up — grim
Married print — birlashgan nusxa
Mask — kashe, maska
Masked shot — kasheli kadr
Medium shot — o'rta plan
Microphone, mike — mikrofon
Miniature work — kichik maketlar ishi
Mixing — miksherlash, fonogrammani qayta yozish
Mixing booth — ovoz yozish apparat xonasi
Mixing console — miksher pulti, ovoz rejissyori pulti
Model — maket
Model background, foreground — orqa va old plan maketi
Model shot — tasvirga olishning maketli metodi
Monitor room — tasvir sozlash apparat xonasi
Motion picture — kinotasvir, kartina, film, kinofilm
Motion picture camera — kino tasvirga olish apparati, kamera
Motion picture camera lens — kamera obyektiv
Motion picture studio — kinostudiya, studiya
Motion picture — kinematografiya, kino
Movie — kinokartina, kinoteatr, kino, film, kinofilm
Movie camera — tasvirga olish apparati, kinokamera, kamera
Movie house — kinoteatr, kino uyi
Moving picture — kinotasvir, kartina, film, kinofilm
Multiple exposure — ko'p martali ekspozitsiya
Music — musiqa, musiqali jo'r, nota
Music recording — musiqa yozish

Musical — musiqali film
Mute print — ovozsiz nusxa ko'chirish

N

Name part — qism nomi
Narrator — kadr ortidagi ovoz
Narrow gauge film — ingichka, ensiz plyonka
Natural backdrop — tabiiy fon
Natural fold — tabiiy bukilganlik
Natural vision film — stereoskopik film, stereofilm
Negative cutting — negativ montaji
Newsreel — kinoxronika
N.G. take (no good) — omadsiz, brak kadr
Non-actor film — aktyor ishtirok etmagan film
Non-exposed stock — toza, tasvirga olinmagan plenka
Non-fiction film — hujjatli film
Non-halation — yorug'lik gardishiga moslashgan (plyonkada)
Non-linear editing — chiziqsiz montaj
Non-professional actor — professional bo'lmagan akter
Non-synchronism, non-syne — sinxronsiz
Nude scene — erotik sahna
Number board — nomerlash doskasi
Nursery-tale film — film-ertak

O

Open-air theatre — ochiq yozgi kinoteatr
Operator — kinomexanik, operator
Optical density — optik zichlik
Optical printing — optik pechat
Outdoor shot — naturada tasvirga olish
Over-exposure — ortiqcha ekspozitsiya, (perederjka)
Overhead light — ship yorug'ligi

P

Panning, pan — panoramali, panorama
Part — ijro, qism, to'p
Performance — akterlar ijrosi, ijro, kinoseans, seans
Period film — davriy, tarixiy film
Picture — tasvir, kinotasvir, film, kinofilm, fotografiya
Picture composition — kadrning kompozitsiyasi
Picture editing — tasvirning montaji
Picture negative — negativ tasvir

Picture print — pozitiv tasvir
Picture set-up — tasvir moslamasi
Player — ijro etadigan moslama,
Plunger — kontrgreyfer, kamera mexanizmi
Poster — plakat, afisha
Post-scoring — so‘ngi ovoz yozish, tonirovka
Post-synchronization — yakuniy sinxron ovoz yozish, tonirovka
Pre-release show — yakuniy ko‘rig, tomosha
Print, film print — pechat qilish, pozitiv plenka
Printing process — pechat qilish jarayoni
Printing station — kopiyalash, nusxa ko‘chirish fabrikasi
Pro-scoring — dastlabki ovoz yozish
Processing — kinoplyonkani laboratoriyada yuvish, proyavka
Production manager — film direktori, ishlab chiqarish menedjeri

R

Ranch — tabiiy dalada tasvirga olish joyi
Raw material — tasvirga olingan xom material
Raw stock — tasvirga olinmagan plyonka
Rear projection — optik rirproeksiya, RIR
Recorder room — apparatniy, ovoz yozish studiyasi
Recording director — ovoz operatori
Recording truck — mobil ovoz yozish apparati
Reduction print — kinoplyonkaning kichraytirilgan nusxasi
Reel — kinofilmning bir qismi
Reflecting screen — reflektor, podsvetka, yorug‘lik tarqatuvchi ekran
Register pin — kontrgreyfer
Rehearsal — repetitsiya
Release — filmning ekranga chiqishi
Release print — prokat uchun nusxa
Renting — film prokati

S

Safety stock — yonmaydigan xavfsiz plyonka
Scenario — ssenariy, kinossenariy
Scenario writer — ssenariy yozuvchi, kinossenariychi
Scene — kadr, sahna
Scenery — butaforiya, rekvizit
Scientific film — ilmiy film
Score, musical score — musiqa davomiyligi

Scoring — musiqa yozish
Scoring stage — ovoz yozish pavilyoni, ton-atele
Screen, projection screen — proeksiya ekrani, kinoekran
Screen actor — akter, kinoakter
Screen actress — aktrisa, kinoaktrisa
Screen adaptation — ekranizatsiya
Screen image — ekran tasviri
Screen test — akterlar probasini tasvirga olish
Screen version — ekranizatsiya
Screening — film proeksiyasi, kinoproeksiya, ekranizatsiya
Screening of rushes — ishchi ko‘rig, proba tomosha
Screenplay — ssenariy, kinossenariy
Screenwriter — ssenariy yozuvchi, kinossenariychi

T

Take — dubl, kadr, montajli kadr
Take-up spool — qabul qiluvchi bobina
Taking distance — tasvirga olish masofasi
Taking lens — kino obyektiv
Talking film, talkie — ovozli film
Team — tasvirga olish guruhi
Telescopic lens — teleobyektiv
Test strip — operatorlik probasi, texnik repititsiya
Theatre circuit — kinotarmoq
Threading up — kinoplenkani film kanaliga joylashtirish, zaryadka
Three dimensional film, 3D film — stereoskopik film, stereofilm
Throw, projection throw — proeksiya masofasi
Time-lapse cinematography — sekinlashgan tasvirga olish (seytrafer)

U

Under-exposure — yorug‘lik yetmaganlik, nedoderjka
Unit manager — film direktori
Unmarried print — birlashmagan, mos kelmaydigan nusxa

V

Veil — vual, tyul, xira parda qoplamasi
Venue — tutashgan joy
Version — postanovka
Video — video, klip, rolik
Video capture — video zaxvat, videosignalni ko‘chirish
Video source — telekamera, videosignal uzatuvchi moslama

View — ko‘rinish, panorama, nigoh, kartina
View point — ko‘rinish nuqtasi
Viewing — tomosha
Viewing print — tomosha uchun nusxa
Viewing public — tomoshabinlar auditoriyasi
Vignette — kashe; vinetka
Visual means — vizual vositalar
Visuals — bir necha ko‘rinish, kinotasvir, reklama rolik
Voice — ovoz, gap, ton; so‘zlash
Voice actor — gapi bor akter
Voice artist — dublyaj akteri
Voice coach — sahna ijrochi maslahatchisi
Voice off-screen — kadr ortidagi ovoz
Voice over — kadrda ovoz
Voice recording — ovoz yozish
Voice trial — eshitish, eshitib ko‘rish

W

Wedge, optical wedge — optik klin (pechatda)
Wide angle lens — keng burchakli obyektiv
Wide film — keng hajmli plenka (70 mm)
Wide screen — proeksiya ekrani
Wide screen film — keng ekranli film
Wipe — qorong‘ulikga ketish, shtorka
Working print — ishchi nusxa
Worm's eye view — pastki nuqtadan tasvirga olish

Z

Zoom away (shot) — transfokator yordamida uzoqlashish
(kichraytirish)
Zoom in (shot) — transfokator yordamida yaqinlashish
(kattalashtirish)
Zoom lens — fokus masofasi o‘zgaruvchan obyektiv (transfokator)

ADABIYOTLAR

1. Gates R. Production management for film and video. Focal Press. 2006.
2. Owens J., Millerson G. Television production. 15th Edition. Focal Press. 2012.
3. Фалмер Р.М. Энциклопедия современного управления. Т.1-5. М.: 2002.
4. Коноплев Б.Н. Основы фильмопроизводства. М.: Исскуства. 1988.
5. Веснин В.Р. Основы менежмента. М.: “Triada- Ltd”, 2007.
7. Средства массовой информации. Учебное пособие для студентов ВУЗов. М.: 2006.
8. Рудая Е.А. Основы бренд-менежмента. Учебное пособие. М.: 2006.
9. Павлов А.В. Разработка бизнес плана. М.: 2007.
10. Розентал А. Создания кино и видеофильмов как увлекательный бизнес. М.: Исскуства. 2009.
11. Русакова А.Б. Экономика телевидения и радиовешания. Программа курса и методические материалы. М.: 2003.
12. Ухин П.Н. Охрана труда и техника безопасности на кинопредриятиях. П.: 2002.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.cinefex.ru
2. www.wikipedia.ru
3. www.vgik.ru
4. www.iskusstvo.ru
5. www.tkt.ru

MUNDARIJA

Kirish	3
Birinchi bo'lim. Televizion mahsulotlarini yaratish	5
1. Televideniya faoliyati	5
1.1. Bosqich maqsadi	5
1.2. Televizion kanallarining ishlashi	8
1.3. Amaldagi televideniya	12
2. Televideniyada ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar	14
2.1. Televizion mahsulotlarining asosiy turlari	14
2.2. Tok-shou teleko'rsatuv turi sifatida	15
2.3. Televideniyada murakkab mahsulotni ishlab chiqarishning odatiy jarayoni	20
Ikkinchi bo'lim. Badiiy va hujjatli filmlar ishlab chiqarish	23
1. Film yaratishda ijodiy guruhning asosiy tarkibi va vazifalari	23
1.1. Tasvirga olish guruhi direktori vazifasi	23
1.2. Kinorejissyor ijodi	27
1.3. Kinoooperator faoliyati	28
1.4. Ovoz operatorining ahamiyati	29
1.5. Film ishlab chiqarishda assistentlarning roli	29
1.6. Prodyuser vazifasi	30
1.7. Kino film ishlab chiqarish texnologiyasi	34
2. Filmning xronometraj jadvali	42
2.1. Film xronometraji	42
2.2. Ssenariyni personajlar va tasvirga olish joylari bo'yicha bo'lish	42
2.3. Rejissyor ssenariysidagi maxsus talablar	45
2.4. Maxsus uskunalar ijarasi	49
3. Hujjatli filmlarni yaratish ketma-ketligi	54
3.1. Film g'oyasi	54
3.2. Hujjatli film ssenariysi	54
3.3. Buyuk britaniyada ssenariy buyurtmasini tayyorlash	59
3.4. Hujjatli filmlarni byudjetini rejalashtirish	60
3.5. Buyuk britaniyada hujjatli film byudjetini namunaviy loyihasi	62
4. Badiiy filmlarni yaratish ketma-ketligi	63
4.1. To'liq metrajli badiiy filmning ssenariysi	63
4.2. Badiiy film byudjetini rejalashtirish	67
Uchinchi bo'lim. Loyihaning xarajatlari va davrlar rivoji	69
1. Ishlab chiqarishda xarajatlarni taminlash	69
1.1. Qiymatni aniqlash	69
1.2. Loyihaning rivojlanishi	70
1.3. Ishlab chiqarishni moliyalashtirish	71
2. Rejalashtirishning bosh hujjati va tasvirga olish jadvalini tuzish	74
2.1. Asosiy (bosh) rejalashtirish	74
2.2. To'liq metrajli badiiy filmni tasvirga olish grafisini tuzish	77
2.3. To'liq metrajli filmni kalendar sahnalashtirish rejasini	77

3.	Televizion hujjatli va badiiy filmlarning byudjeti	80
3.1.	Filmning smetasi va byudjeti	80
3.2.	Hujjatli filmlar xarajatining asosiy bo'limlari	81
3.3.	Badiiy filmlar smetasi xarajatining asosiy qismi	81
3.4.	Tasvirga olish guruhini tarkibi	84
4.	Ishlab chiqarishning tayyorgarlik davri	86
4.1.	Byudjet va kalendar reja tuzish	86
4.2.	Rollarni taqsimlash, guruhlarini tuzish, tasvirga olish joylarini aniqlash	87
5.	Film yaratishda tasvirga olish davri	88
5.1.	Tasvirga olish guruhining bajargan ishlari to'g'risidagi hisobotlar	88
5.2.	Iyerarxiya	90
5.3.	Ko'chish va safarga chiqish	91
6.	Filmni montaj qilish davri	94
6.1.	Montajning mohiyati	94
6.2.	Montaj jarayoni	95
6.3.	Ovoz yozish	97
6.4.	Musiqqa yozish	99
6.5.	Maxsus effektlar yaratish	100
6.6.	Filmni nusxalash	102
7.	Filmni topshirish va ijodiy guruhning bajargan ishlari to'g'risida hisobotlar tayyorlash	103
7.1.	Filmni topshirish jarayoni	103
7.2.	Filmni reklama qilish va sotish	104
7.3.	Filmni ekranda namoyish etish (prokat)	104
To'rtinchi bo'lim.	Rivojlangan davlatlarda filmlarni ishlab chiqarish xususiyatlari	106
1.	Buyuk Britaniya, Amerika, Rossiya, Xitoy va boshqa mamlakatlar tajribasi	106
1.1.	"Masha va ayiq" – kinodagi samarador menejment	106
1.2.	Menejment va mavjud kinobozorini himoya qilish	115
1.3.	Hamkorlik: Stiven Spilberg – Jek Ma	122
1.4.	Gollivuddagi menejment	123
1.5.	Xalqaro kinofestivallar – ijodkorlik va menejment	126
2.	O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasida (MTRK) hujjatli va badiiy filmlarni yaratish xususiyatlari	134
2.1.	Televizion hujjatli kino	134
2.2.	MTRKda badiiy filmlarni ishlab chiqarish bosqichlari	137
2.3.	Suratga olish davri	140
2.4.	Montaj qilish va ovozni sozlash jarayoni	142
Xulosa	146	
Lug'aviy atamalar	147	
Adabiyotlar	157	

**A.D. ABDURAXIMOV, T.P. KO'CHKARBKOV,
K.S. ISMOILOV, N.R. SABUROVA**

FILM ISHLAB CHIQRISH MENEJMENTI ASOSLARI

(Darslik)

Toshkent – «Aloqachi» – 2018

Muharrir: M.Mirkomilov
Tex. muharrir: A.Tog'ayev
Musavvir: B.Esanov
Musahhiha: N.Hasanova
Kompyuterda
sahifalovchi: F.Tog'ayeva

Nashr.lits. AIN^o176, 11.06.11.

Bosishga ruhsat etildi: 7.09.2018. Bichimi 60x841 /16.

«Timez Uz» garniturası. Ofset bosma usulida bosildi.

Hajmi; Shartli bosma tabog'i 10,75. Nashr bosma tabog'i 10,0.

Adadi 60. Buyurtma № 53.

«Nihol print» Ok da chop etildi.

Toshkent sh., M. Ashrafiy ko'chasi, 99/101.